

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

“MUSIQA VA MEHNAT TA'LIMI”
kafedrasи



“TEXNOLOGIYA TA'LIMI PRAKTIKUMI”

fanidan

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	100000	– Gumanitar
Ta'lif sohasi:	110000	– Pedagogika
Ta'lif yo'nalishlari:	5112100	– Mehnat ta'limi

Ushbu “Texnologiya ta’limi praktikumi” fanidan “5112100 –Mehnat ta’limi” ta’lim yo’nalishi talabalari uchun o’quv – uslubiy majmua O’zbekiston respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2014 yil 11 oktyabr 430 – sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchi: Guliston davlat universiteti,
“Musiqa va mehnat ta’limi” kafedrasi o’qituvchisi

A.Cho’liev

Taqrizchi: Guliston davlat universiteti,
“Musiqa va mehnat ta’limi” kafedrasi dotsenti p.f.n.
“Musiqa va mehnat ta’limi” kafedrasi dotsenti p.f.n.

B.Qurbanov
M.Muxliboev

O’quv – uslubiy majmua “_” _____ 2017 yil Guliston davlat universiteti O’quv – uslubiy kengashining № 1 – bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

MUNDARIJA

O'quv materiallari.....	3-67
Mustaqil ta'lif mashg'ulotlari.....	68-69
Ilovalar.....	70-105
Glossariy.....	106-110

Amaliy mashg'ulot ishlarni bajarishda rioya etiladigan xavfsizlik qoidalar

Amaliy ishlarni bajarishdan avval talabalar xavfsizlik texnikasi va ichki tartib qoidalar bilan tanishtiriladi.

Amaliy ishlarni bajarish davrida turli baxtsiz xodisalarni oldini olish uchun xavfsizlik texnikasi qoidalariga har bir talaba qa'tiy amal qilishlari shart.

1. Ustaxonada talaba ish kiyimida bo'lism lozim.
2. Amaliy ishlarni bajarish bo`yicha o`qituvchi yoki laborantning ko`rsatmasini diqqat bilan tinglash va ularning ruxsati bilangina ishni bajarishga kirishi lozim.
3. Durodgorchilik dastgohlarini o`rganish vaqtida ularni avaylash va ulardan shikastlanmaslik choralarini ko`rish kerak.
4. Tig`li asboblar bilan ishlaganda texnika xavfsizlik qoidalariga amal qilish kerak
5. Dastgoh bilan ishlaganda diqqatni jamlash

1-mavzu. Kirish. Duradgorlikning xalq turmushidagi roli va vazifasi

Ishdan maqsad: Yog'ochlarning mexanik xossalarni va mexanik ishlov berish texnologiyasini o`rganish. Yog'ochga mexanik ishlov berish usuli yordamida buyumlar tayyorlash. Duradgorlik ustaxonasida ish o'rni va jihozlari. Yog'och va uning tuzilishi. Duradgorlik o'quv ustaxonasida ish o'rni va jihozlari. Yog'och va uning tuzilishi va boshqalarni o`rganish.

Kerakli jihozlar: Yog'ochga mexanik ishlov beruvchi asboblardan randa, arra, elektr charx dastgohi, bolg'a, iskana, jilvir qog'oz va boshqalar.

Yog'och odamlar uchun turli maqsadlar uchun foydalaniladigan asosiy ta'biv materiallardan xisoblanadi. Yog'ochdan juda qadim zamonlardan buyon turar joylar qurishda, turli mehnat qurollari, ro'zg'or buyumlar va shu kabilar yasashda, hamda qattiq yoqilg'i turi sifatida foydalanilmoqda. Shu bilan birga yog'och qog'oz, karton tayyorlash turli qismlar va boshqa kimyoviy moddalar olish hamda ayrim dori-darmonlar olish uchun ham asosiy material hisoblanadi.

Yog'och chiqindisiz material hisoblanadi. Chunki ulardan turli narsalar yasash uchun arralash, yo'nish, qirqish, randalash va boshqa usullarda ishlov berish jarayonida hosil bo'ladijan poyraxalar, qirindi, qipiqlik va boshqa mayda bo'laklardan iborat chiqindilarga maxsus mashinalarda tegishli ishlov berib, elim aralashtirib turli shakl va o'lchamlarda presslab quritish orqali yog'och-qipiqli materiallar tayyorlanadi. Ular ham turli buyumlar tayyorlashda tabiiy yog'och o'rnida ishlatiladi. Yog'och maxsulotlaridan doimo foydalanishga ko'nikib ketganmiz. Bular imoratlarning eshik, derazalar, stol, stul, sandiqlar, yaxshi xar xil asbob – uskunalar, qog'oz qalamlar va boshqalardan iborat. Yog'och materiallari turli daraxtlardan olinadi. Yog'och olish uchun turli sifatlardagi yog'och beradigan daraxtlarni ekib, tparvarish qilib o'stililadi. Har bir daraxt turi o'ziga xos sifatlarga ega yog'och hosil qiladi. Daraxtlarni turlarga ajratishda mevali yoki mevasizligi, tez yoki sekin o'sishi, ya'ni qancha yilda ishga yaroqli yog'och berishi hamda qanday sifatli yog'och berishi hisobga olinadi. Yog'ochning sifati deganda uning qattiq-yumshoqligi, og'ir-engilligi, turli ta'sirlarga chidamliligi, ya'ni undan tayyorlangan maxsulotning uzoq vaqt ishga yaroqli xolda saqlanishi, turli asboblar bilan ishlov berishga qulayligi, qanday maqsadlar uchun foydalanish mumkinligi tushuniladi. Bundan tashqari

daraxtlarning o'sish shakli va bargining tuzilishiga qarab ham farqlanadi. Bunda daraxtlarning tik o'sib, to'g'ri yassi bargli yoki igna bargli, doim yashil yoki kuzda bargini to'kadigan turlarga ajratiladi. Yog'och beruvchi daraxt turlari ko'p bo'lib, ular er yuzini turli qismlariga tarqalgan. O'zbekistonda o'sadigan daraxt turlaridan har turli sifatlarga ega yog'ochlar olish mumkin, bular terak, tol, archa, yong'oq, qayrog'och, chinor, nok, tut, o'rik, eman, qarag'ay, lipa va boshqalardan iborat.

Saksavul yog'ochi asosan o'tinga ishlatiladi. Kerakli yog'ochlarni etishtirish uchun har bir daraxt turini ekish va parvarish qilib o'stirish qoidalarini o'rgangan mutaxassislar mehnat qilishadi. O'stirib etishtirgan daraxtni kesish, ularni kerakli joylarga tashib keltirish va zarur o'lchamdag'i taxtalar, to'sinlar, reykalar shaklida arralash ishlarini bajarishda bir qancha turdag'i mashina-mexanizm va stanoklardan foydalaniladi. Ularning xar birini tegishli mutaxassislar boshqaradi. Ular o'rmon kesuvchilar, traktorchilar, shafyorlar, yuk tashish, ortish mexanizxmlari xaydovchilardir.

Taxta tilish arralash stanoklarini boshqaruvchilar hamda boshqa muxandis-texnik xodimlardan iborat. Ularning mexnatlari natijasida turli o'lchamdag'i taxtalar, to'sinlar, reykalar ham da fanerlar tayyorlanadi. Bular yarim tayyor yog'och maxsulotlari deb ataladi. Bunda asosiy ish jarayoni yog'och gullarni bo'yiga, ko'ndalangiga, arralash va randalash hamda faner tayyorashdan iborat bo'ladi. Yog'ochsozlik sanoati soxasida turli kasb egalari xizmat qiladilar. Yog'ochdan maxsulot tayyorlash kasblarining turlari ko'p bo'lib, ularni duradgorlik degan umumiy nom bilan aytildi. Xar bir duradgor ustasining kasbi uning tayyorlaydigan maxsulotiga asosan nomlanadi. Masalan imoratsoz, eshiksoz, yog'och o'ymakori, mebelchi, sandiqchi, dastgoxsoz, aravasoz, egarchi, kemasoz, qoshiqchi va boshqalar.

Yog'och tayyor qurilish materiali bo'lib, u xalq xo'jaligining turli soxalarida keng ko'lamda ishlatiladi. Yog'och duradgorlikda ishlatiladigan asosiy material xisoblanadi. Undan qurilish va inshoatlarda, avtomobilsozlikda, vagonsozlikda, kemasozlikda, ximiya va ko'mir sanoatida, qog'oz-tsellyuloza, sanoatida, faner, mebel, sport inventarlari, gugurt tayyorlashda va boshqa soxalarda foydalaniladi.

Yog'ochning keng ko'lamda ishlatilishiga sabab uning texnik xossalaring yuqoriligidadir. Yog'ochni ishslash oson, vazni engil, puxtaligi yuqori, issiqlik va elektrni yomon o'tkazadi, kislota va ishqorlar ta'sirida tez emirilmaydi, ko'pchilik yog'ochlarning tashqi ko'rinishi chirolyi bo'lib, puxta elimlanuvchi bo'ladi va yaxshi pardozlanadi. Ammo yog'ochning ayrim kamchiliklari ham bor: temperatura, namlik o'zgarishi natijasida yog'och qurib tob tashlaydi, nam totib shishadi, eshilib-toblanadi, yoriladi va xokazo.

Yog'ochning puxtaligi, kattaligi va boshqa mexanik xossalari, metallardagi singari, turli yo'naliшhda turlichadir, yog'ochning mexanik xossalari nam ta'sirida keskin kamayadi. Yog'och oson alanganadi, chirishga, xashoratlarning emirishiga qarshilik ko'rsata olmaydi. Bundan tashqari yog'ochda ayrim nuqsonlar ham bo'ladi, bular yog'och sifatining pasayishiga olib keladi.

Hozirgi kunda yog'och ishslash korxonalarida tabiiy yog'och o'rmini olodigan yangi tur yog'och materiallar ishlab chiqarilmoqda. Yog'och ishslash korxonalarida hosl bo'ladi dan chiqiidilardan: arra tuponi va payraxalarni presslash yo'li bilam tayyorlanayotgan yog'och materiallar tabiiy yog'ochlarda uchraydigan xar qanday nuqsonlardan, kamchiliklardash xoli, puxtalik jixatdan ustun bo'lib, ayrim xollarda

metall o'rnini ham olmoqda (presslangan yog'och matoriallardan xatto podshipnik va mashina detallari tayyorlanadi). Sanoatda ishlab chiqilayotgan ayrim presslangap yog'och materillar qurilishda, mebel korxonalarida keng ishlatilmoqda.

Ishlab chiqarishda har qanday buyum tayyorlshda materialdan to'g'ri va tejamkorlik bilan foydalanish, tayyorlangan buyumning sifatini, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish uchun ishlatiladigan materialning turini, xususiyatini, unga ishlov berish texnologiyasini bilish talab etiladi.

Shunga ko'ra o'quvchilarni xalq xujaligini turli soxalarida ishlatiladigan yog'och materiallarinng tuzilishi, turlari, xossalari, ularga ishlov berish usullari bilan tanishtirib o'tamiz.

O'quvchi ish o'rni hap qanday baxtsiz hodisaning oldini olishga qaratilgan holda tashkil qilinishi kerak.


Har bir ish o'rni o'rindiqlar bilan jihozlangan bo'lishi zarur.

Ish o'rni maxsus moslamalar: tumbochka, suriluvchi quti, shkaf, asbob uchun stellaj, himoya kuzoynagi, chizmalar va h.k. bilan jihozlanishi, ularning ish o'rnidan tashqariga chiqib turmasligi ta'minlanishi kerak.

Ish o'rni va yo'laklarni material, namuna, buyum yoki chiqitlar bilan to'sib qo'yishga ruxsat etilmaydi.


O'quv yurti rahvari, ustaxona mudiri, mehnat ta'limi o'qituvchilari, shuningdek amaliyot o'tash joyidagi ishlab chiqarish bulinmasi raxvarlari o'quvchilarning soz, ishchi holatidagi asboblar bilan ta'minlanishi, ish usullarini to'g'ri vajarishi uchun mas'uldir.

Asboblar uskuna yonidagi saqlanishi mumkin bo'lgan quti, shkaf, mashina konstruktsiyasida ko'zda tutilgan holda uning ichki qismida maxsus joyda saqlanishi kerak.



1-rasm, a. Duradgorlik o'quv ustaxonalarida ish o'rnlarining taxminiy joylanish rejasi:

7—o'qituvchining ish o'rni; 2 — qo'l yuvgich; 3 — aptechka, 4 — asbob-uskuna va materiallar jovoni; 5—kunda, 6—dastgohlar; 7—devor soati; 8-o'quv-ko'rgazma qurollari jovoni; 9-bo'yqchilik stoli; 10, 11, 12, 13, 14—frezerlash, parmalash, yog'och ishlash tokarlik stanoklari, randalash, arralash stanoklari; 15—charx; 16—materiallar tokchasi.



1-rasm, b. Duradgorlik o'kuv ustaxonalarida ish o'rirlarining taxminiy joylanish rejasi:

1—kunda; 2—dastgohlar; 3—universal arralash-randalash stanogi; 4— parmalash stanogi; 5—yog'och-tokarlik stanogi; 6—charx; 7 —o'qituvchining ish o'rni; 8 — qo'l yuvgich; 9 — aptechka; 10 — asbob-uskuna va materiallar jovoni; 11 — devor soati.

Verstaklarda joylashtirilgan iskana o'qlari o'zaro masofasi bir metrni tashkil qilgan holda o'rnatiladi. Verstak eni 0,75 m dan kichik bo'lmasligi, o'quvchilarni turli uchqunlardan saqlash uchun boshqalardan to'sib turuvchi sim to'rdan tusiqlar o'rnatilishi kerak.

Iskanalar buyumni ishonchli tutib tura olishi, ularning siqib turuvchi qismi deformatsiyalanmagan bo'lishi talab qilinadi.

Bolg'a, kuvalda va boshqalar muh rasi tekis bo'lishi , chuqurcha yoki yorilgan joylari bo'lmasligi, mustahkam tutqichga ega bo'lishi kerak.

Bolg'a va kuvalda tutqichlari qattiq, qayishqoq yog'och turlaridan ishlanadi.

Yumshoq, mo'rt yog'ochdan ishlangan tutqichlardan foydalanish ta'qiqlanadi.

Bolg'a va kuvalda silliq, oval kesimli, tutib turiladigan tomoni yug'onlashib boradigan shaklda bo'lishi kerak. Tutqich yuzasi silliq, tekis bo'lishi, yoriq va payraxalari bo'lmasligi kerak.

Egov, stameska, arra va boshqa shu kabi asboblar keyingi qismiga yorilib ketishning oldini oluvchi metallar halqali tutqichlar o'rnatiladi.

Tutqich uzunligi asbob o'lchamiga mos kelishi ta'minlanadi.

Asbob og'irligi va ulchami unda ishlovchi o'quvchining yosh xususiyatlariga mos bo'lishi lozim.

Qayd etilgan asboblardan tutqichi bo'limgan, nosoz bo'lgan holda foydalanish ta'qiqlanadi.

Metalga ishlov berishda uchqundan saqlanish uchun himoya ko'zoynaklari taqiladi. Ishlab chiqarish ustalari himoya ko'zoynaklaridan foydalanishni nazorat qilishlari kerak.

Arralar tug'ri kerilgan va charxlangan bo'lishi kerak. Arra tutqichlari mustah kam o'rnatilgan, silliqlab tozalangan bo'lishi kerak.

Randalash asboblari tekis, silliqlab tozalangan kolodkalarga ega bo'lishi kerak.

Kolodkaning keyingi qismi tumtoqlangan tutqichi silliqlangan bo'lishi kerak.

Randalash asbobi yunish qismi to'g'ri charxlangan, yog'och kolodkaga mustahkam va zich o'rnatilgan bo'lishi, yorilgan joylari va chuqurchalari bo'lmasligi kerak.

Gayka kalitlari gayka va bolt kallaklari o'lchamiga to'g'ri kelishi, yorilgan joylari va chuqurchalari bo'lmasligi kerak.

Kalitlarni turli moslamalar bilan uzaytirish mumkin emas.

Qo'lda tashiladigan yuk bilan ishlashga mashg'ulot vaqtining 3G'1 qismi sarflanganda uning og'irligi mehnat qonunchiligiga kura: 15 yoshdagi o'g'il bolalar - 8,2 kg

O'quv ustaxonalarining tabiiy va sun'iy yoritilish darajasi maktab va maktab-kasb xunar kollejlari uchun belgilangan talabga javob berishi lozim. O'quv xonalarida yorug'lik chap tomonidan tushishi, o'quv-ishlab chiqarish xona ish o'rnlari esa texnologik talab asosida tashkil qilinishi lozim.

Yog'och va metallga ishlov berish ustaxonasida gorizontal yuzalarning poldan 0,8 m valandlikdagi satxda yoritilganlik lyuminestsent lampa uchun - 300 lk, chug'lanma lampa, uchun 150 lk, tikuv ustaxonasida lyuminestsent lampa uchun - 400 lk, chug'lanma lampa, uchun 200 lk, o'quv ustaxona, yo'laklarda (polda) 100 lk va 50 lk bo'lishi lozim.

Eshik va boshqa yorug'lik o'tkazuvchi tuyruklni buyum, uskuna, material va boshqalar bilan to'sib quyish ta'qiqlanadi.

Deraza yonida buyum va materiallarning joylashtirilishi ustaxonaning tabiiy yoritilishiga xalaqit bermasligi kerak.

Ustaxonadagi uskunalar ish o'rnnini yorug'likdan to'sib qo'ymaydigan qilib o'rnatiladi.

Deraza oynalari yilda kamida ikki marta tozalab turilishi, tutun, dud va chang ko'proq chiqadigan xonalarda ularning ifloslanishiga qarab yiliga kamida 4 marta tozalanishi lozim.

Ustaxona binoning qaysi qavatida joylashishidan qat'iy nazar deraza oynalarini yuvishga o'quvchilarni jalg qilish ta'qiqlanadi..

Oynalar deraza romida mustahkam o'rnatilgan bo'lishi va tushib ketishning oldi olingan bo'lishi kerak.

Daraxtlarning o'sib ketgan shoxlari oynani to'sib quymasligi uchun ular o'quvbinosidan kamida 10 m masofada o'tqaziladi. Bino yaqinida o'sayotgan daraxtlar har yili vahor faslida butab turiladi.

Sun'iy yoritish umumi yoki kombinatsiyalashgan (umumi va mahalliy) bo'lishi mumkin. Faqat mahalliy yoritish bilan cheklanishga yo'l quylmaydi.

Umumi yoritish lampalari poldan kamida 3 m valandlikda joylashtiriladi.

Mahalliy yoritish uskunalari quvvati 1000 vattdan oshmasligi va 3b voltdan yuqori bo'limgan kuchlanishda ishlashi lozim.

Ishdan chiqqan yoritkich yoki o'tkazgichlar shu vaqtning o'zida almashtirilishi yoki sozlanishi lozim. Lampa, o'tkazgich, saqlagichlarni almashtirish elektromontyor tomonidan vajariladi. Bu ishlarni vajarish o'quvchilarga topshirilmaydi.

Yoritish uskunalarning elektrqismi elektr uskunalarni o'rnatish qoidalariga javob berishi talab qilinadi.

o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi va yordamchi xonalar havo almashtirish va isitish tizimi bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Havo almashtirish tabiiy, mexanik yoki aralash bo'lishi mumkin, u sanitariya me'yorida ko'zda tutilgan havo almashinushi, harorat va havo tarkibini ta'minlab berishi lozim.

Metal va yog'ochga ishlov berish ustaxonalarida havo almashinushi 1 kishiga 20 m³G'soat ni tashkil qilishi kerak. Chang ajralib chiqishi bilan bog'liq ishlab chiqarish

jarayonlar (elektr charx, pardozlash dastgohi) uning chiqib ketishi yoki tutib qolinishini ta'minlovchi moslamalar bilan ta'minlanadi.

Havo almashtirish uskunalarini hamma vaqt ishchi holatda bo'lishi, ularni ishlatish uchun javobgar shaxslarning doimiy nazoratida bo'lishi lozim.

Havo almashtirish uskunalarini rejali ravishda ta'mirlab, rostlab turilishi, davriy sanitariya va texnik sinovdan o'tkazilib, ishlarning varchasi maxsus daftarda qayd etib boriladi.

O'quv va o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarida metall radiatorli markaziy isitish tarmog'idan foydalanish tavsiya etiladi.

Isitish haroratining bir me'yorda bo'lishi, rostlab turish imkoniyatining bo'lishi, umumiy tapmoqqa ulash yoki uzish uskunalarining ishchi holatda bo'lishi talab qilinadi.

O'quv va o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarini isitish maqsadida vaqtinchalik chuyan pechlar yoki texnik talablarga javob bermaydigan boshqa uskunalaridan foydalanish ta'qiqlanadi.

Metalga ishlov berish ustaxonada optimal temperatura $15-16^{\circ}\text{S}$, yog'ochga ishlov berish ustaxonada $14-15^{\circ}\text{S}$ bo'lishi lozim.

Eshiklar majburiy yopilishni ta'minlovchi moslama (prujina, pnevmatik qurilma va b.)ga ega bo'lishi kerak.

O'quv va o'quv-ishlab chiqarish ustaxona derazalari havo almashtiradigan qurilmalar mavjud bo'lishidan qat'iy nazar alohida ochiladigan darcha yoki bosh a shamollatish qurilmasiga ega bo'lishi kerak.


O'zingiz yashayotgan xududda o'sadigan yog'och beruvchi daraxt turlarini aniqlang, ularni ko'paytirish va parvarish qilish qoidalari o'rganing.

2-mavzu. Duradgorlikda ishlatiladigan yog'och turlari va xossalari.

Ishdan maqsad: Maxalliy daraxtlarning yog'ochlaridan nimalar yasash mumkinligini aniqlash. Duradgorlik ustaxonasining ichki tartib qoidalari. Texnika xavfsizligi, ishlab chiqarish tozaligi va gigiena qoidalari

Kerakli jihozlar: Yog'ochga mexanik ishlov beruvchi asboblardan randa, arra, elektr charx dastgohi, bolg'a, iskana, jilvir qog'oz va boshqalar.


Yog'och deb daraxtning tanasi, butoqlari, novdalari va ilbdizlarining asosiy qismini hosil qiluvchi qismiga aytildi. (2-rasm). Daraxtning yog'och hosil qiluvchi tanasi o'zak, yog'ochlik tola, po'stloqdan iborat bo'ladi. Yog'och daraxtning suv va unda erigan mineral tuzlari o'tkazuvchi murakkab to'qimasidan iborat. Bu to'qimalar tuproqqa ildizlar orqali olingan moddalarni daraxt tanasi orqali barglarga hamda barglarda hosil bo'lgan moddalarni daraxtning boshqa moddalariga etkazib beradi.



2-rasm. O'sib turgan daraxt qismlari.

a) o'sib turgan daraxt, b) 13-yoshli daraxt tanasining shakllanish sxemasi.

Shu bilan birga yog'och to'qimalari o'zida tegishli moddalarni to'plab o'sib boradi. Yog'ochning o'sishi uning ko'ndalang qismidagi yillik xalqalaridan ko'rindi. (3-rasm).



3-rasm. Tananing ko'ndalang qirqimi.

Bu xalqalar soni shu yog'ochning yoshini bildiradi. Xar bir daraxtning yog'ochi

uning og'irligini ko'tarib turish, turli ta'sirlarga chidamliliginin ta'minlash vazifalarini ham bajaradi. Daraxtning tanasi, butoqlari, shohlari, novdalari va ildizi uning yog'och qismini tashkil qiladi. Daraxtning tanasi uning asosiy yo'g'on yog'och qismi bo'lib, ildizlar bilan barglar orasidagi modda almashinuvini ta'minlash hamda daraxtning erdan ustki qismini ko'tarib turish vazifalarini bajaradi. Butoqlar daraxt tanasining turli tomonlarga qarab o'sib chiqqan qismlardan iborat. Shoxlar butoqlarning turli tomonlarga qarab o'sib chiqqan qismi bo'lib, ular o'sish novdalari bilan tugallanadi. Novdalar va shoxlarda daraxt barglari va mevalar o'sadi. Ildizlar daraxtning tuproq orqali oziqlanishini hamda erga mustaxkam o'rnashishini ta'minlaydi.

Yog'ochgozlik ishlarida asosan daraxtning tanasini hosil Qiluvchi qismidan foydalaniladi. Daraxtning ildizlari va ayrim shohlaridan qiziqarli shakldagi bezak buyumlar yasashda foydalaniladi. Ayrim daraxtlarning egiluvchan va to'g'ri o'sgan novdalari savatchilikda va boshqa buyumlar yasashda ishlatiladi. Turli daraxtlarning ildiz qismidan badiiy haykallar yasashda ko'p foydalaniladi.

Yog'ochli o'simliklarni butasimon turlari mavjud bo'lib, ularning tanasi er satxidan boshlab ko'p sonli yon shohlari hosil qilib o'sadi va yo'g'on yog'ochli tana hosil qilmaydi. Bularga irg'ay, to'rang'i, do'lana, chetan ligusturum (jonli devor hosil qiluvchi o'simliklar) va boshqalar kiradi. Ularning novda va shohlaridan turli buyumlar yasashda foydalaniladi.

Ma'lumki, barcha turdag'i yog'och - taxta materiallar daraxtdan olinadi. Shuning uchun o'quvchilarga daraxt tuzilishi, unint qismlari bilan tanishtirib, ulardan qanday material olinadi va qanday maqsadlarda ishlatilishi haqida tushuncha berish maqsadga muvofiqdir.

Har qanday o'sib turgan daraxt uch qismdan: ildiz, tana va shoxlardan iboratdir. (2-rasm). Ildiz daraxtning o'sishi uchun kerak bo'ladigan asosiy qismlardan biridir. Ildiz o'z shakli, katta-kichikligi, soni va erga joylashishiga qarab turli daraxtlarda turlicha bo'ladi. Shunga qaramasdan barcha daraxtlarning ildizida asosiy tomirlar bo'lib, ular ko'pincha asosiy-o'q tomirlardan iborat bo'ladi, ular tananing davomini tashkil etadi. Bundan ko'rinadiki, qalin ekilgan daraxtlarning o'q tomoni rivljlangan bo'ladi. Siyrak va yakka tartibda o'sgan daratlarning ildizi erga tik ketmasdan er betini qoplab tarqaladi. Chunki yakka va siyrak o'sgan daraxtlar shamol ta'sirida o'z muvozanatini saqlash maqsadida past bo'yli, ildizi er betini qoplab tarvaqaylab o'sadi.

Daraxt ildizida o'q tomirlar, yon tomirlar shuningdek rishta tomirlar bo'ladi. Rishta tomirlarda mayda ko'zga ko'rinmas kapilyar naychalar bo'lib, ular orqali erdan olingan va daraxtning o'sishi uchun kerak bo'ladigan suv va ozuqa moddalari so'rib olinadi. Ildiz orqali olingan ozuqa moddalari tana orqali shoxlarga o'tadi.

Daraxtning o'q tomiri to'g'ri va katta bo'lib, ulardan ko'pincha yog'och ishslash tokarlik stanoklari uchun material sifatida foydalaniladi.

Po'stloq-tashqi va ichki qatlardan iborat bo'lib, tana xajmining 6-25% cha qismini tashkil etadi. Po'stloqning tashqi qismi po'k qatlam, deb ataladigan qattiq qatlardan iborat. U yog'ochni har xil tashqi ta'sirlardan: issiq-sovuqdan, mexanik ta'sirlardan, zararkunanda xashoratlardan saqlaydi. Po'stloqning ichki qismi lub qatlami deyiladi. Lub ko'zga ko'rinmaydigan mayda tolalardan iborat.

Po'stloqning qalinligi tananing turli qismida turlicha bo'ladi. U tananing uch qismida yupqa bo'lib, patga tushgan sayin qalinlashib boradi. Bundan tashqari daraxtlarning

po'stlog'i tashqi ko'rinish jixatdan ham bir-biridan farq qiladi. Yosh daraxtlarning po'stlog'i silliq va yumshoq bo'ladi, tana yo'g'onlasha borgan sayin po'stloq yorilib dag'allashadi va kattaligi orta boradi.

Har qanday daraxtning po'stlog'i tashqi tuzilishi bilan bir qatorda rangi bilan ham bir-biridan farq qiladi. Daraxtlarning po'stlog'i oq tusdan to'q-jigar rangacha o'zgaradi.

Qrim va Kavkazda, uzoq Sharq va Saxalinda o'sadigan probkali eman daraxtining po'stlog'i qalin bo'lib, ulardan probkalar, issiqlik izolyatsion plitalar tayyorlanadi.

Kambiy- Kambiy lub bilan yog'och orasiga joylashgan mayin va shirali qatlama bo'lib, u tirik xujayralardan iborat.

Kambiyni qurollanmagan ko'z bilan ajrata olish qiyin. Uni baxorda tanadan po'stloqni shilib olish bilan ko'rish mumkin. Bu vaqtda kambiy xujayralarining buzilishi natijasida shirali, shilliq parda-suyuqlik ajralib chiqadi.

Kambiy lub orqali shoxdan keluvchi ozuqa bilan oziqlanadi. Daraxtning o'sishi kambiy xujayralarining ikkiga bo'linishi orqali ro'y beradi. Ulardan biri kambial ajralib chiquvchi xujayralarning ko'p qismi yog'ochlikka o'tib, po'stloqqa oz miqdordagina o'tadi. Buning natijasida yog'ochning o'sishiga qaraganda ro'y berib, yog'och va po'stloqning xajmi proportsional ravishda o'smaydi. Bu esa daraxtning yoshi orta borgan sayin po'stloqning po'k qatlamining yorilishiga sabab bo'ladi.

Kambiy o'sayotgan daraxt uchun hayotiy manba hisoblanadi.

Yog'ochlik – tananing yog'ochlik qismi po'stloq osti, mag'iz va o'zakdan tashkil topgan. (3-rasm). Kambiy xujayralarining rivojlanishi erta baxorda asta-sekin boshlanib, yozda tezlashadi, kuzda susaya boradi. Kambiy xujayralarining bu xilda rivojlanishi natijasida yillik xalqalar hosil bo'ladi. Chunki bahor faslida kambiy xujayralarining tananing yog'ochlik qismiga o'tadigan miqdori ko'p bo'lib, ular yirik va yupqa po'stloqli bo'ladilar. Natijada yog'ochlikning bahor faslida hosil bo'lgan qismida g'ovak to'qima aktivligi susayadi, xujayralar maydalashib, qalin po'stloqli bo'la boradi va zichligi ortadi. Oqibatda yoz faslida hosil bo'lgan yog'ochning qattiqligi yuqori bo'ladi. Yog'ochlikka o'tgan kambiy xujayralarining zichligi kam bo'lgan qismi ochroq tusga ega bo'ladi, zichligi ortiq bo'lgan qismining rangi qoramitir bo'ladi. Bu hol daraxtning usish davrida har yili takrorlanib, o'z navbatida yillik xalqalarning hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Yog'ochning ko'ndalang qirqimi bo'yicha qaraganda yillik xalqalar aylana shaklida, radial qirqimi bo'yicha to'g'ri chiziqlar ko'rinishida va tangental qirqimi bo'yicha qaraganda uchi shox tomonga qaragan burchaklar shaklida ko'rindi. Daraxtning yoshi orta borgan sayin eski yillik xalqalarning zichligi va qattiqligi orta boradi. (3-rasm). Pustloqqa yaqin joylashgan yillik xalqalarning zichligi kam, g'ovak bo'lib, u orqali ildizdan olingan ozuqa moddalar pastdan yuqoriga qarab ko'tariladi.. agar mag'zining rangi po'stloq osti qatlamining rangidai farq qilmasa daraxt etilgan xisoblanadi.

O'zak - tanani ko'ndalang qirqimi bo'yicha karaganda uning o'rtasidan silliq doirani ko'rish mumkin. Bu o'zak bo'ladi. O'zak nozik, tez chiriydigan bo'ladi. Chirish uzaqdan boshlansa, po'stloqqacha tarqalib daraxtni po'k qilishgacha olib keladi. O'zak g'ovak xujayralardan iborat bo'lib, u butun tana buylab o'tadi. O'zakdan pustloqqa qarb o'zak nurlari o'tadi.

Pustloqdagi ozuqa moddalari o'zak nurlari orqqali tananing ichki qatlamiga o'tadi. O'zak nurlari hamma daraxt turlarida bo'lib, shakli va joylanishlariga ko'ra ular bir — biridai farq qiladi. O'zak nurlarini tananing xar qanday qirqimi bo'yicha ko'rish

mumkin. Birlamchi deb ataluvchi o'zak nurlari o'zakdan boshlanib, po'stloqqa qadar davom etadi, ikkilamchi dob ataluvchi o'zak nurlari o'zakdan turlicha masofada boshlanib, po'stloqqa qadar etib boradi. O'zak nurlarining eni 0,005:1 mm atrofida bo'ladi. Radial qirkimda o'zakdan po'stloqqa tomon yunalgan ensiz chiziqlar ko'riniishda, tangental qirqim bo'yicha uzik — uzik chiziqlar ko'rinishida, ko'ndalang qirqimda radius bo'yicha yo'nalgan chiziqlar ko'rinishiga ega bo'ladi.

Mazkur savollarga o'quvchilar uchun testlar tayyorlang.


1. Yog'och deb nimaga aytildi?
2. Daraxtning qaysi qismlarida yog'och hosil buladi?
3. Daraxtning yog'och to'qimalari kanday vazifalarni bajaradi?
4. Yog'ochning ko'ndalang xalqalaridan nimalarni bilasiz?
5. Daraxtninr ildizidan nimalar tayyorlanadi?
6. Butasimon o'simliklar yog'ochidan nimalar tayyorlanadi?

Mazkur topshiriqlarga binoan o'quvchilar uchun amaliy ish va uyga vazifa tayyorlang.

1. Ayrim daraxtlarning umumiyligi shaklini va alohida qismlarining qanday shaklda o'sishini aniqlang?
2. Turli daraxtlarga tegishli ko'ndalang halqalarni kuzatib, ularning nimalarni bildirishini aniqlang.

Yog'och turlari ular olinadigan daraxtlarga qarab farqlanadi. Har bir daraxtning yog'ochi bir — biriga nisbatan qattiq — yumshoqligi, og'ir — engilligi, zichligi, turli ta'sirlarga chidamliligi, ishlov berishga qulayligi, ko'rinishi, rangi va boshqa belgilar bilan farqlanadi. Yog'och olinadigan daraxtlar igna bargli va yaproqli (bargli) turlarga ajratiladi. Ignan bargli daraxtlarga qaragay, pixta, tilog'ach, archa, kedr, sari, tis kiradi. Bu daraxtlarning har biri o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi. Masalan, dunyoda qarag'ayning 100 ga yaqin turi, pixtaning 40 ga yaqin turi, tilog'ochning 20 dan ortiq turi, archaning 45 ga yaqin turi, kedrning 4 turi, sarvning 20 ga yaqin turi, tisning 10 yaqin turi ma'lum.

Qarag'ay, pixta, tilog'och kabilardan asosan turli o'lchamlardagi taxtalar, to'sinlar, reykalar tayyorlanadi. Bunday yog'och materiallardan imoratloarning zarur qismlarini yasash, eshik va derazalar hamda boshqalar turli yog'och buyumlar tayyorlashda foydalaniladi.



4-rasm. Yog'och turlari va teksturasi.

Ignan bargli qarag'ay va pixta yumshoq qolganlari qattiq yog'och beradi. Yaproqli daraxtlar

ham yumshoq, qattiq yoki mo'rt yog'och hosil qiladi. Ulardan imoratsozlikda va turli buyumlar yasashda foydalaniladi. Masalan, terakning bir turi bo'lgan tog'terak yog'ochidan gugurt, chang'i, bo'chkalar tayyorlashda va boshqa maqsadlarda foydalaniladi. Yaproqli daraxtlarniig qattiq yog'och beruvchi turlaridan O'zbokistonda yong'ok, nok, tut, qayrag'och, o'rik, shaftoli, zarang, jo'ka, buk, akatsiya va boshqalar ham da mo'rt yog'och beruvchi turlaridan chinor, eman kabilar o'sadi. Ular mebel va boshqa buyumlar yasashda, ular yog'och o'ymakorlikda ishlatiladi.

Har qanday yog'ochning ishlatilishi uning fizik va mexanik xossalariga, ishlatilish sharoitiga, miqdoriga va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Texnikaning taraqqiy etishi natijasida yog'och materiallardan foydalanish soxasida doimiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Yaqin kunlarda ham yog'och asosiy qurilish materiali xisoblanadi. Qurilish va inshoatlarda yig'ma temir beton kopstruktsiyalarning ishlatilishi yog'ochga bo'lgan extiyojni ancha kamaytiradi. Shunga qaramasdan, yog'och tsellyuloza sanoatida xozirgi vaktda asosiy material xisoblanadi.

Shuningdek ayrim yog'ochlarning xo'jalik aham iyati ortib bormoqda. Oq qayin yaqin yillargacha faqat o'tin sifatida ishlatilib kelingan bo'lsa, xozirgi kunda faner ishlab chiqarish korxonalarida va sanoatning boshqa soxalarida qimmatbaho material xisoblanadi.

Ham ma yog'ochlar ular olinadigan daraxtlarning turiga qarab bargli va nina bargli gruppalarga bo'linadi.

Qurilishlarda ko'pincha nina bargli qarag'ay, archa, puxta, keder kabi daraxtlardan olingan yog'ochlar ishlatiladi.

Bir qator afzalliklariga ko'ra nina bargli daraxtlardan olingan yog'ochlar qurilish va duradgorlik ishlarida asosiy material xisoblanadi. Uning afzalliklari quyidagilardan iborat: nina bargli yog'ochlarning tarkibida smolali moddalar bo'lgani uchun xizmat muddati uzoq bo'ladi, chirimaydi. Nina bargli o'rmonlar bargli o'rmonlarga qaraganda ko'p, nina bargli yog'ochlar bargli daraxtlar yogochlariga qaraganda engil bo'lgani uchun bir joydan ikkinchi joyga tashish oson. Nina bargli daraxt yog'ochlari bargli daraxt yog'ochlaridan yumshoq bo'lgani uchun ularga ishlov berish oson.

Nina bargli daraxtlarning tanasi to'g'ri, silliq bo'lib, ulardan yaxshi sifatli xoda tayyorlanadi.

Qurilish va duradgorlik ishlarida nina bargli daraxt yog'ochlari bilan bir qatorda ba'zi bargli daraxt yog'ochlari ham ishlatiladi. Masalan eman, shumtol, arguvon, terak, chinor, zirk na boshqalar. Eman daraxtining zichligi ortirq, puxta va qattiq chiroyli teksturali, nam ta'siriga chidamliligi bilan boshqa yog'ochlardan ajralib turadi.

O'sib turgan daraxtlarning turini ularning pustlog'iga, shoxlarning tuzilishiga va barglariga qarab farqlash mumkin. Qurilish va duradgorlikda ishlatiladigap xolda, to'sin va taxta xolidagi yog'och materiallarning turini ularning rangiga, ta'biy guliga, xidiga, tovlanishiga qarab aniqlanadi.


Quyidagi qurilish va duradgorlikda ishlatiladigan ba'zi bargli va nina bargli yog'ochlarning turlari, tashqi belgilari va xossalari bilan tanishib o'tamiz. (5-rasm)

QARAG'AY-(sosna) Qarag'ayning po'stlog'i qalin, to'q jigar rang, yog'ochli oq — qizg'ich rangli, to'g'ri qatlamlili, engil, puxta, smolali bo'lib, namga chidamli, yillik xalqalarini aniq ko'rish mumkin.

ARChA -Archa daraxtining pustlog'i qalin, qoramtil kul rang bo'lib, yog'achi

serbutoq bo'lganligi uchun ishlash qiyin. Mayin qatlamlili bo'lgani uchun o'zak nurlari ko'rinxaydi. Kam smolali, nam ta'siriga chidamsiz. Archa qurilishda, tsellyuloza—
qog'oz sanoatida, oddiy mobellar, tarralar tayyorlashda ishlataladi.

TILOG'OCh- Tilog' ochning po'stlog'i qalin, qoramtil — sarg'ish rangli bo'ladi. Yog'ochi mayin qatlamlili, yillik xalqalari aniq bilinadigan, qizg'ish jigar rang, qarag'ayga qaraganda puxta bo'ladi. Ortiqcha smolali bo'lgani uchun ishlash qiyin. Uni gidrotexnik inshoatlarda, er osti qurilishlarida, shpal tayyorlashda foydalaniladi. Qurilish va vagonsozlikda eman yog'ochining o'rnida ishlatsa bo'ladi.




5-расм. Ёғоч турлари

OQ QARAG'AY — (pixta). Oq qararay po'stlog'i yupqa, silliq kul rang tovlanadi. Yog'ochi oqish, bilinar — bilinmas qoramtil dag'al yumshoq engil bo'lib, oson ishlanadi. Undan ko'pipcha qog'oz sanoatida va tarralar tayyorlashda foydalaniladi.

KEDR — Kedrning po'stlog'i qalin, chatnagan, qo'ng'ir tusli. Yog'ochi engil, yumshoq, oson ishlanadi, rangli va tabiiy gulli chiroyli, yillik xalqalari barcha qirqimlardan aniq ko'rindi. Undan qurilishda, duradgorlikda qarag'ay va archa bilan bir qatorda foydalaniladi, qalam tayyorlanadi.

ZIRK — (olxa) Qora zirkning po'stlog'i qoramtil tusli, qalin, chatlangap bo'lib oq zirkning po'stlog'i tiniq va sillik, bo'ladi. Yog'ochi oqish, ochiq xavoda tezda qizarib ketadi, tez quriydi: yumshoq, engil bo'ladi, oson ishlanadi, namga chidamli, yillik xalqalari aniq bo'linib turadi. Zirk yog'och bo'yoqni yaxshi oladi, uni qizil yog'och, yong'oq beytsi tezob bilan zaranga o'xshatib ishlash oson. Zirkning katta

kamchilii uni tez qurt eyishidir. Undan arzon mebellar, faner va tarralar tayyorlanadi.



Шамшод

Арғувон

Қайин

5-rasm. Yog'och turlari.

Mazkur savollarga binoan o'quvchilar uchun testlar tayyorlang.

1. Yog'och turlari qaysi belgilari bilan farqlanadi?
2. Nina bargli daraxtlar qaysilari?
3. Yumshoq yog'ochli nina bargli daraxtlar qaysilari?
4. Yaproqli daraxtlardan qaysilarining yog'ochi yumshoq?
5. Qattiq yoki mo'rt yog'ochlardan iimalar yasash mumkin?

3-mavzu Duradgorlikda ishlataladigan rejalah asbob va uskunalari.

Ishdan maqsad: Yog'och materiallarini rejalah, yo'nish, arralash, randalash. Ish usullarini o'rganish va malaka hosil qilish. Yasash uchun buyumlar: Plakat taxtachasi; chizma uchun chorcho'p; yo'naliish ko'rsatkich taxtachasi; supurgi dastasi, kurak dastasi, bolta dastasi. Yog'och materiallaridan buyumlar tayyorlashda xavfsizlik texnikasi qoidalari.

Kerakli jihozlar: Yog'ochga mexanik ishlov beruvchi asboblardan randa, arra, elektr charx dastgohi, bolg'a, iskana, jilvir qog'oz va boshqalar.

Yog'ochdan turli buyumlar tayyorlash va boshqa ishlarni bajarish uchun yog'och materiallarni o'lchash va rejalash kerak bo'ladi. Buning uchun maxsus asboblardan foydalaniladi.

O'lchash deb yog'och materialdning o'lchamlarini va shaklini aniqlashni aytildi. Bu asboblarga chizg'ichlar, matr, ruletkalar, go'niyalar, xatkash transporti va o'lchov andozalari kiradi.

Chizg'ichlar yog'och, metall, plastmassa yoki boshqa materiallardan bir necha santimetrdan bir metrgacha uzunlikda millimetrlarga bo'lingan xolda tayyorlanadi. Ular millimetrgacha aniqlikda o'lchash, kerakli to'g'ri chiziqlar chizish va yog'och qirralarining to'g'ri chiziq shaklida ekanligini tekshirish uchun ishlatiladi.


a-chizg'ich



b-ruletmestr




v-burchak chizg'ich (go'niya)



g-xatkash



d-shtangentsirkul



11-rasm. O'lchash va rejalash asboblari.

Uzunligi bir metr chiziqlarni metr deb ataladi. Ular ham shunday maqsadlarda ishlatiladi. Buklama metr uni olib yurish va saqlash qulay bo'lishi uchun buklanadigan qilib yasaladi.

Ruletlar bir necha metr uzunlikdagi metal va boshqa materialdan foydalanilgan santimetr va millimetrlarga bo'lingan tasmadan iborat. Ular bir necha metrgacha bo'lgan uzunliklarni aniq ishslash uchun ishlatiladi.

Go'niyalar yog'och yoki boshqa materialdan foydalaniladi. Ular to'g'ri burchaklarni o'lchash, belgilash, chizib va tekshirib ko'rish uchun ishlatiladi.(10-rasm) Shu bilan birga boshqa burchaklar uchun moslashtirilgan go'niyalar ham ishlatiladi.

O'lchov andozalari bir xil buyumni ko'plab tayyorlashda qo'llaniladi. O'lchov andazasi bir xil uzunlikni ko'p marta o'lchash uchun kerakli kattalikda tayyorlangan reyka, tayoqcha yoki shu kabilardan iborat. Shu maqsadda tayyor buyum namunasidan ham foydalanish kerak.

Rejalar deb tayyorlanadigan buyumning kerakli o'lchamlardagi shakllarini yog'och

materiallariga chizishni aytiladi. Rejalash uchun yuqorida aytilgan o'lchash asboblari bilan birga xatkash, qalam, har turli rejalash andozalaridan foydalaniladi.

Xatkash yog'ochning belgilangan qirrasiga tayangan xolda unga parallel chiziqlar chizish uchun ishlatiladigan moslama u kunda uning teshiklariga o'rnatiladigan reykalar o'ziga urnatiladigan bir yoki bir necha mix yoki qalamlardan iborat bo'ladi.

Xatkash yordamida bir vaqtida bir necha parallel chiziqlar chizish mumkin.

Pargar (tsirkul) turli aylanalar, aylana yoylari chizish ham da uzunliklarni o'lchash uchun ishlatiladi. U metall, yog'och yoki plastmassadan tayyorlangan, umumiyoq o'qqa o'rnatiladigan ikkita oyoqdan iborat. Chizuvchi pargar oyoqlaridan birinchi uchiga igna ikkinchisining uchiga qalam o'rnatiladi. O'lchagich pargarning ikkala oyog'i uchiga igna o'rnatiladi.

O'lchash va rejalash ishlarida qora yoki boshqa rangdagi yumshoq qalamlardan foydalaniladi.

Rejalash andozalari karton, qog'oz, faner, metal, plastmassa, yog'och kabilardan zarur shakllarda tayyorlanadi. Ular turli burchaklar, aylanalar, aylana yoylari, ko'pburchaklar, egri chiziqli shakllar andozalaridan iborat bo'ladi. Ular kerakli shaklini ishlatilayotgan yog'och material ustiga qo'yib chizib olish yoki boshqa ishlar bajarish uchun qo'llaniladi. Shu maqsadda ba'zan tayyor buyum na'munasidan ham foydalanish mumkin.

Rejalash tayyor buyumining o'zi, uning texnik rasmi, eskizi yoki chizmasiga qarab bajarilishi mumkin.

Tayyor buyumning o'ziga qarab rejalashda shu buyumning har bir detali qanday shaklda va o'lchamlarda ekanligini aniqlanadi, so'ng shu o'lchamdagini o'lchamlarni yog'och materialga tegishli rejalash asboblari yordamida ko'chirib chiziladi.

Bunda ayrim detalning o'zidan andoza sifatida foydalanib chizish ham mumkin.

Buyumning texnik rasmi, eskizi yoki chizmasi asosida ularda ko'rsatiladigan o'lchamlarga muvofiq ravishda tegishli detallarning shakllari yog'och materialiga chiziladi.

Mazkur savollarga binoan o'quvchilar uchun testlar tayyorlang.

1. O'lchash nima?
2. O'lchash asboblari qaysilar ?
3. Rejalash nima?
4. Rejalash asboblari qaysilar?
5. Chiziqlar nima uchun ishlatiladi?
6. O'lchov andozalari nima uchun ishlatiladi?
7. Rejalash andozalari nima uchun ishlatiladi?
8. Xatkash nima uchun ishlatiladi?

Mazkur topshiriqlarga binoan o'quvchilar uchun amaliy ish va uyg'a vazifa tayyorlash.

O'lchash va randalash asboblari ishlashni mashq qiling.

5-mavzu Birikmasiz egri chiziq shaklidagi buyumlar tayyorlash texnologiyasi.

Ishdan maqsad: Yog'och materiallarni oyish va parmalash, pardozlash (silliqlash). Kesuvchi asboblarni ishga sozlash. Mehnat havfsizligi qoidalari. Ish usullarini o'rganish va malaka hosil qilish. Yog'och materiallaridan buyumlar tayyorlashda xavfsizlik texnikasi qoidalari

Kerakli jihozlar: Yog'ochga mexanik ishlov beruvchi asboblardan randa, arra, elektr charx dastgohi, bolg'a, iskana, jilvir qog'oz va boshqalar.

Duradgorlik iskanalari.

Yog'och materiallardan turli xil buyumlar tayyorlashda ularning qismlari ko'pincha "tirnoq" chiqarish yo'li bilan biriktirilib, bunda o'yish-teshish ishlari bajariladi. Bu maqsadda har hil duradgorlik iskanalaridan foydalaniлади.


Duradgorlik iskanalari vazifasiga ko'ra *yo'nuvchi* va *o'yuvchi* iskanalarga bo'linadi (14- rasm).

Yo'nuvchi iskanalar yordamida yo'nish yo'li bilan taxtalarning chetlariga faska chiqariladi, tirnoqlar rostlanadi, teshik, uyalar yo'nib kengaytiriladi. Shuningdek, yumshoq va yupqa taxtalar o'yib teshiladi. Qalin va qattiq yog'ochlarni o'yish-teshish ishlari hamma vaqt o'yuvchi iskanalar yordamida bajariladi.

Yo'nuvchi iskanalar yupqa, o'yuvchi iskanalar qalin bo'ladi. Bundan qat'iy nazar, ularning eni har xil o'lchamda tayyorlanadi. Yo'nuvchi iskanalarning eni 4 mm dan 40 mm gacha, o'yuvchi iskanalarning eni 6 mm dan 20 mm gacha bo'ladi.

O'yish-teshish ishlarida qulqoq, uya va teshiklarning kengligiga qarab unga mos iskanalar tanlanadi. Teshik enidan katta iskana ishlatishga ruxsat etilmaydi. Kichik o'lchamdagisi iskanalar bilan esa katta teshik va uyalarini ochish ham mumkin.

Yog'och taxtalarni yo'nish, o'yish-teshishda *nov shaklidagi iskanalar* ham ishlataladi (14-rasm, v). Ular yordamida tsilindrik teshik va uyalar o'yish, sirtlarda nov ochish ishlari bajariladi. Nov shaklidagi iskanalar har xil o'lchamda tayyorlanadi.



14-rasm. Duradgorlik iskanalari: a - o'yuvchi; b - yo'nuvchi; v - nov iskana.

Iskanalar bir tomonidan charxlanadi. Yo'nuvchi iskanalarning o'tkirlik (charxlash) burchagi 18—25°, o'yuvchi iskanalarning o'tkirlik burchagi 25—35° atrofida bo'ladi.

Iskanalarning dastalari zarang, qora qayin, qayrag'och, yong'oq kabi pishiq yog'ochlardan tayyorlanib, uchiga metall halqa kiydiriladi. Halqalar iskanaga bolg'a bilan urishda dastani yorilishdan saqlaydi. Iskanalar yog'och to'qmoq bilan uriladi. Iskana dastalari plastmassadan ham tayyorlanadi.

Mazkur savollarga binoan o'quvchilar uchun testlar tayyorlang.

1. Iskanalar qanday turlarga bo'linadi?
2. O'yuvchi iskanalar bilan qaysi ishlar bajariladi?
3. Yo'nuvchi iskanalarni tig'i qanday shakllarda bo'ladi?
4. Kesuvchi iskanalar bilan qaysi ishlar bajariladi?
5. Iskana bilan ishlashda qaysi xavsizlik qoidalariga rioya qilish shart?

Mazkur topshiriqlarga binoan o'quvchilar uchun amaliy ish va uyga vazifa tayyorlang.

Iskanalar bilan turli yog'ochlarni ishlov berish mashqlarini bajaring.

6-mavzu Kesuvchi asboblarni ishga sozlash texnologiyasi.

Ishdan maqsad: Ish turiga qarab qirquvchi, yo'nuvchi, uyuvchi uskunalar tanlash. Uskunalarni charxlash va o'tkirlik burchaklarini tekshirish. Ish turiga qarab qirquvchi, yo'nuvchi, oyuvchi uskunalar tanlash. Amaliy ishlar: Uskanalar bilan yog'ochni boyiga, eniga, ko'ndalangiga yo'nish. Parma va drel bilan tik va yotiq holatlarda parmalash.

Yasaladigan buyumlar: oshxona taxtachalari, bolalar kursichasi. Mix va burama mixlar yordamida oddiy birikma tayyorlash texnologiyasi.

Kerakli jihozlar: Yog'ochga mexanik ishlov beruvchi asboblardan randa, arra, elektr charx dastgohi, bolg'a, iskana, jilvir qog'oz va boshqalar.


O'yish-teshish ishlari birikmalar hosil qilishda bajarilishini hisobga olib, bu ishlarni o'rgatishni bog'lash usullarini o'rgatish jarayonida qo'shib olib borilishi mumkin. Lekin bog'lash usulida turli xil birikmalar hosil qilinib, unda bitta brusok yordamida bir necha turdag'i o'yish-teshish ishlarni bajarib bo'lmaydi. Buning natijasida navbatdagi tur o'yish-teshish ishlarni olib borish uchun yangi yog'och talab etiladi. Bu esa materialning ko'plab isrof bo'lishiga sabab, bo'ladi. Shuni hisobga olib, arralash va randalash mashqidan so'n bog'lash usullarini o'rgatishga o'tishdan oldin alohida o'yish-teshish ishlarni o'rgatish (mashq qildirish) maqsadga muvofiqdir. Buning uchun birinchi navbatda o'quv ustaxonalarida ishlatiladigan duradgorchilik iskanalarining turlari, tuzilishi, vazifasi, o'yish-teshish tartibi va bu vaqtida rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi qoidalari haqida qisqacha; tushuncha berib, uya, teshiq quloqlarni rejalash va o'yish-teshish tartibini amalda ko'rsatiladi.

O'yish-teshish ishlarni olib borishda o'yiladigan yog'och-taxta materiallarning turiga qarab unga mos iskanalar ishlatiladi. Yumshoq va yupqa yog'och-taxtalarni o'yishda yo'nuvchi iskanalardan, qalin va qattiq yog'ochlarni o'yishda o'yuvchi iskanalardan foydalaniadi.

Iskanalar dasta 1-tana, 2-ishchi qismi, tig'-3 tadan iborat bo'lib (43-rasm) «bet» 4 va orqa yoq 5 lar bilan bir-biridan farq qiladi.


Iskanalardan foydalanishda o'yiluvchi yog'ochni dastgohga o'rnatish, o'nga nisbatan iskanalarni to'g'ri tutish va bolg'alashga, payraxa ko'chirishga e'tibor beriladi. O'yish-teshish vaqtida uya, teshik yoki «quloq» o'rnlari aniq rejalab olinib, ular asosida o'yish-teshish ishlari olib boriladi.

Uyalar o'yishda reja chizig'i go'niya va xatkash yordamida faqat bir tomonga chiziladi. Birinchi bor iskanani reja chizig'iga qo'yib bolg'alashda uning tig'i reja chizig'idan yog'ochning qattiq-yumshoqliliga qarab 0,5-1 mm gacha ichkariga o'yiladigan tomonga surib o'rnatiladi. Iskananing orqa yog'i hamma vaqt o'yiladigan tomonga qaratib tutiladi,



43-rasm. Iskananining tuzilishi: 1-dasta; 2-tana; 3-tig'; 4-bet; 5-orqa yoq.

Bolg‘alash yog‘och to‘qmoq yordamida olib boriladi. Dastlabki bolg‘alash iskana yog‘ochga botib reja chizig‘iga surilib etguncha (biri-ikki bor) davom ettiriladi. Ortiqcha bolg‘alashga ruxsat etilmaydi. Chunki iskana yog‘ochga botgan sari orqa yoq iskananani oldinga surib reja chizig‘idan chiqarib yuboradi. Payraxa ko‘chirishda iskana yog‘ochga qiya tutilib bolg‘alanadi. So‘ngra iskana oldinga tiklanib payraxa ko‘chirilgach, orqaga qayirib payraxa chiqariladi. Aks holda bolg‘alashdan so‘ng bir yo‘la payraxa chiqarilsa, taxtaning beti ko‘chib ketadi. O‘yish vaqtida iskana har safar reja chizig‘i bo‘yicha tik bolg‘alanib, payraxa ko‘chirishda orqaga surib boriladi.



44-rasm. O‘yish-teshish tartibi: a-uyalarni rejalah; b,v-o‘yish tartibi; g-teshiklarni rejalah;
d-quloloa ochish:

O‘yish chuqurligi masshtabli lineyka yordamida yoki iskananining botishiga qarab taxminiy aniqlanadi.


O‘yish vaqtida iskananining tig‘ini yog‘och tolalariga parallel tutmaslik kerak. Aks holda yupqa yog‘ochlarni o‘yish-teshishda ular yorilib ketadi. Uya, teshiq qulq ochilgandan keyin tozalab kengaytirish hollaridagina iskananani tola yo‘nalishida tutib yo‘nish ishlari olib boriladi. Teshik ochishda «bet» dagi reja chizig‘i go‘niya va xatkash yordamida orqa tomonga simmetrik ko‘chiriladi. Buning uchun «yordamchi bet» dan foydalaniladi. Bunday hollarda ikki cho‘pli xatkash ishlatalidi. Chunki ikkala cho‘p bir yo‘la o‘lchamga sozlanib, reja chizig‘ini simmetrik ko‘chirish imkonini beradi.

O‘yish ikki tomonlama olib boriladi. «Bet» tomondan yog‘och qalinligining 2/3 qismicha o‘yilib, qolgan qismi orqa tomondan o‘yildi. Aksincha, o‘yish bir tomonlama olib borilsa, iskananining tik tushmasligi orqasida teshik to‘g‘ri ochilmasligi, reja chizig‘ining buzilishi, shuningdek iskana yog‘ochni kuchirib yuborib, buyumning sifati buzilishi mumkin.

Teshik ochish vaqtida dastgoh ish taxtasi o‘yilib ketmasligi uchun o‘yiladigan yog‘och ostiga ehtiyoj taxta qo‘yib olinadi.



45-rasm. Yog‘ochni o‘yishda ishlovchining



46-rasm. Kalta zagatovkalarni o‘yishda strubnisa bilan

Qulq ochishda reja chizig‘i teshik ochishdagi singari qarama-qarshi tomonga simmetrik kuchirib olinadi va o‘yish ikki tomonlama olib boriladi.

Teshik va qulqlar to‘g‘ri ochilishi uchun o‘yish reja chizig‘i bo‘yicha tik olib borilishi kerak. Lekin amalda reja chizig‘i bo‘yicha tik o‘yish qiyin. Shuning uchun o‘yish vaqtida teshiklarning bochkasimon, qulqlarning botiq o‘yilishiga e’tibor beriladi. Teshik va qulqlarning do‘ng (qavariq) ochilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday hollarda birikmaning jipsligi, puxtaligi ta’minlanmaydi, buyumning sifati buziladi.


O'yish-teshish mashqining barcha turi bitta brusokda bajariladi. Brusokning ikki uchidan ikkita qulqoq, o'rta qismidan bir necha uya va teshik ochish mashq qilinadi.

O'yuvchi va kesuvchi iskanalar bilan ishslashda metall bolg'alardan emas, balki yog'och bolga (to'qmoq)lardan foydalaniladi.


Yog'ochlarni o'yishda ish o'rnini tashkil etishning quyidagi qoidalariga rioya qilish zarur.

Tik turib o'yishda korpusni to'g'ri ushslash, boshni sal oldinga og'dirish va oyoqlar orasini ochiq holda tutish kerak (45-rasm).

Tubi yopiq go'shalarni o'yishda detalni bir tomondan rejalanadi. Ochiq go'shalarni o'yishda esa detalni ikki qarama-qarshi tomondan rejalanadi. Kalta detallar verstak iskanjasiga mahkam o'rnatiladi. Duradgorlik verstagining qopqog'ini shikast-lantirmaslik uchun ishlanayotgan detalning ostiga kichikroq taxta qo'yish lozim (46-rasm).



47-rasm. Uyani o'yishda iskananining holati; b-qirindilarni iskana bilan chiqarish.




48-rasm. Go'shani o'yish usullari.

Chuqur va ensiz uyalar asosan o'yuvchi iskanada o'yiladi. Bunda iskananining eni rejalangan o'yiqning kengligiga baravar bo'lishi kerak. Lekin har doim buning iloji bo'lavermaydi. Ko'pincha ustaxonadagi mavjud iskananining enidan keng o'yiqlar ochishga to'g'ri keladi. Ana shunday hollarda uya yoki teshiklar bir o'tishda o'yuvchi iskanani reja chiziqlaridan biriga zichlab qo'yib, uning eniga baravar qilib o'yiladi va ikkinchi tomondagi yog'ochning ortiqcha qismi kesuvchi iskana bilan olib tashlanadi.

O'yishda reja chizig'idan 1-1,5 mm qoldiriladi va bu qo'yim kesuvchi iskana bilan tekislab olib tashlanadi.

O'yuvchi iskanani tik holatda keskichining qiya tomonini uyaning ichiga qaratib qo'yiladi (46-rasm). Qarshi tomonga qarab o'yiladi. Birinchi o'yiq olingach, iskanani shu o'yiqdan 15-20 mm nariga qo'yiladi va qiyalatib o'yiladi.



49. 1. Yarim o'yilgan t...li birikma go'shasini tayyorlash usuli:

a-o'zakni o'yuvchi iskana bilan o'yish;
b-o'zakni qirquvchi iskana bilan tozalash.

Yog'ochning kesilgan qismlari iskana bilan kovlab chiqariladi (47-rasm). Agar ochiq uya o'yish lozim bo'lsa, oldin zagotovkaning bir tomonidan uya chuqurliginnng taxminan 2/3 qismi o'yilib, keyin zagotovkaning teskari tomoni ag'darib qo'yib o'yiladi. O'yuvchi iskana bilan o'yilgan uyalar kesuvchi iskana bilan tozalanadi. Bunda ularni juda ham silliqlab yubormaslik kerak. Chunki biroz g'adir-budir sirtlar yaxshirok, eliminanadi.

To'g'ri tirnoqli detalning ortiqcha qismlarini olib tashlashda zagotovkani verstakning qirqog'iga (iskanjasiga) olrubnisa bilan mahkam o'rnatish kerak. Iskananining tig'ini rsja chizig'i yoniga qo'yib, to'qmoq bilan bir necha marta urib ortiqcha qismi kesiladi va iskanani qiyalatib payraxalar chiqarib tashlanadi. Zagotovkaning teskari tomonidan ham ana shu ishlar bajariladi.

7-mavzu Detallarni mix, burama mix, yog‘och mixlar bilan biriktirish.

Ishdan maqsad: Birikmani bajarishda qo‘llaniladigan moslamalar, asboblar va materiallar. Mix va burama mix,yog‘och mixlarni tanlash. Detallarni biriktirishda sifat talabi. Sifatsizlik turlari va ularni bartaraf qilish. Mix va burama mix,yog‘och mixlarni biriktirishda mehnat havfsizligi qoidalari.

Kerakli jihozlar: Yog‘ochga mexanik ishlov beruvchi asboblardan randa, arra, elektr charx dastgohi,bolg’a, iskana, jilvir qog‘oz va boshqalar.

Duradgorlik qurilish ishlab chiqarishida ishlatiladigan metall buyumlar, odatda mahkamlash buyumlariga, eshik va deraza buyumlariga hamda mebel furniturasiga ajratiladi. Bunday ajratish shartli, chunki ba’zi buyumlar mebel tayyorlashda, furnituraning ayrim xillari duradgorlik-qurilish buyumlari tayyorlashda ishlatiladi.

Mahkamlovchi buyumlarga mixlar, shuruplar, boltlar va hokozolar kiradi. Mebel elementlarini mahkamlash uchun bulardan tashqari burchakliklar, plastinkalar, tortqilar, tokcha tutqichlar va boshqalar ham ishlatiladi. Ular duradgorlik buyumlarining detallari va qismlarini biriktirishga xizmat qiladi va buyum elementlarining o‘zaro qo‘zg‘almay turishini ta’minlaydi.

Mixlar kam uglerodli toblanmagan och rangli po‘lat simlardan sovuqlayin shtapmlab yasaladi. Vazifasiga qarab, ular binokorlik mixlari, tara tayyorlanadigan mixlar, gulqog‘oz qoqiladigan mixlar, suvoq mixlari, tol qoqiladigan mixlar va pardoz mixlariga ajratiladi.

Dumaloq yassi kallakli binokorlik mixlari (DC 4028-63) yog‘och qurilish konstruksiyasining detallarini biriktirish, shuningdyek, pardevor, panellar, to‘siqlarni montaj qilishda foydalaniladi. Shuningdyek, ingichka kallaksiz mixlar-shpilkalar ham ishlatilib, ular bilan obkladkalar, raskladkalar, tirqish berkitgichlar mahkamlanadi. Yog‘och uylarni yig‘ishda 70, 80, 90, 100, 120 va 150 mm uzunlikdagi mixlar ishlatiladi. Pardevor shchitlarini yig‘ishda 60, 70, 80, 90 mm uzunlikdagi mixlardan. foydalaniladi. Yassi kallakli binokorlik mixlari quyidagi o‘lchamlarda ishlab chiqariladi (mm da): (8:12)x0,8; 16x1; (16:20;25)x1,2; (25; 32;40)x x 1,4; (25; 40; 50)x1,6. Birinchi raqamlar mixning uzunligini, ikkinchisi mix diametrini (l+d), ya’ni mix uzunligi l bo‘lganda diametri d bo‘ladi.

Konussimon kallakli binokorlik mixlari quyidagi o‘lchamlarda ishlab chiqariladi (mm larda): (32; 40; 50; 60)x1,8; (40; 50)x2; (50; 60)x2,5; (70; 80)xZ; 90x3,5; (100; 120)x4; (120;150)x5; (150;200)x6: 250x8.

Tara mixlari (DS 4034-63) yassi va konussimon kallakli qilib ishlab chiqariladi. Ulardan yashiklar va boshqa turli idishlar tayyorlashda foydalaniladi. Yassi kallakli tara mixlarining o‘lchamlari quyidagicha (mm larda); 25x1,6; 32x1,8; (40; 45) x2; 50x2,2; (50; 60)x2,5; (70; 80)x3; mix kallaklarining diametri 4 dan 6,5 mm gacha. Konussimon kallakli mixlarning o‘lchamlari yassi kallakli mixlarniki kabi.

Gulqog‘oz qoqiladigan mixlar dumaloq bo‘lib (DS 4033-63), yog‘ochga gulli materiallar – to‘qima, dyermatin, charm qoplash uchun ishlatiladi. Buyumning ustki yuzasiga koqiladigan shaklli mixlarning ustida qo‘sishma qalpog‘i bo‘ladi, bu qalpoq jez, bronza yoki oq tunukadan har xil kattalikda, shaklda, naqshli qilib yasaladi. Bu mixning o‘lchamlari quyidagicha (mm larda): (8;12;16)x1,6; (20;25)x2.

Tom yopishda ishlatiladigan mixlari (DS 4030-63) uzunligi 40 mm, qalinligi 3,5 mm bo‘ladi. Ular ichki pardevorlar va qavatlar orasidagi yopmalarga ishlatiladigan shchitlarga rezgi taxtalar qoqishda va tom yopishda ishlatiladi.

Tol qoqiladigan mixlar (DS 4029-63) yig‘ilgan Deraza bloklari va eshik bloklariga, balkalarning uchlariga hamda yog‘och konstruksiyalarning devorga tegib turadigan joylariga tol qoqishda ishlatiladi. Ularning o‘lchamlari: (20; 25) x2; (32; 40) x2; 5; 40x2 mm.


Pardoz mixlari (DS 4032-63) yarim doiraviy kallakli bo‘ladi. Ular shtapiklar va qoplamlarni mixlashda shpilkalar o‘rnida ishlatiladi. Furnituralarni qoqishda ularidan mayda shuruplar o‘rnida ham foydalaniladi. Ularning o‘lchamlari (mm da): (8;12)x0,8; 16x1; (16;20;25)x1,2; (25;32)x1,6; 40x2.

Dekorativ mebel mixlar mebellar yuziga yumshoq materiallar qoplashda ishlatiladi. Ular dumaloq, kvadrat va shakldor kallakli, o‘z navbatida silliq, siqilgan va yoki quyma naqshli bo‘lishi mumkin. Kallaklarining o‘lchami diametri yoki kvadrat tomonlari bo‘yicha: 6, 8, 10, 12 mm. Bu mixlar sterjenlarining uzunligi ko‘pi bilan 30 mm. Kallaklardagi naqshlar aniq va geometrik jihatidan to‘g‘ri bo‘lishi lozim. Kallak sirti ezilmagan, tirlalmagan, dog‘siz o‘tkir qirrasiz va chiqiqlarsiz bo‘lishi lozim. Bu

mixni yog‘och bolg‘a bilan yog‘ochga qoqqanda uning kallagi sterjenidan chiqib ketmasligi, ezilmasligi, qiyshaymasligi yoki naqshli qatlami qatlamlanmasligi kerak.

Qora metalldan qilingan dekorativ mixlarning kallakkari dekorativ himoyaviy nikel, xrom, latun yoki bronza qoplamlari bo‘lishi kerak.

Mixlar massasi bo‘yicha hisoblanadi. Ular yashiklarga, naqshlilari esa karton qutichalarga joylanadi.



43-rasm. Yog‘och uchun metal mutahkamlagichlar: a- shuruplar: 1-yashirin kallakli, 2-yarim yashirin kallakli, 3- yarim yumaloq kallakli, 4-olti qirrali bor kallakli, 5-bolt (b).

usulida yasalgan buyumlarga metall asboblar va furnituralarni biriktirishda ham shuruplar ishlataladi. Shurupni yog‘ochga burab kiritish qulay bo‘lishi uchun qalpog‘iga ariqcha (shlista) qilingan. Shuruplarning qalpog‘i tekis, yarim tekis va yarim dumaloq shaklda bo‘lishi mumkin. Tekis qalpoqli shuruplar yog‘ochga burab kiritilganda qalpog‘i detalning yuziga turtib chiqmasligi kerak. Oshiqmoshiqlar, qulflar va h.k. tekis qalpoqli shuruplar bilan biriktiriladi. Buyumning yuz tomonidan qoqladigan bo‘lsa, yarim tekis va yarim dumaloq qalpoqli shuruplar ishlataladi.

Shuruplar egilmagan, qalpoqlaridagi ariqchalari-toza va tekis, rezbalari esa silliq, pitirsiz bo‘lishi lozim. Shurup rezbasining bittagina o‘rami yo‘g‘onlashgan yoki uchgan bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi. Lekin rezbaning sirtida uning ichki va tashqi o‘lchadaqi o‘zgartiradigan o‘ramlar va g‘adir-budurlar bo‘lmasisligi shart. Shurup qalpog‘ida pitirlar, shuningdyek, qalpoq tagida g‘uddalar bo‘lishiga ham yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Shuruplar yog‘och yashiklarga va karton qutichalarga joylashtiriladi. Mixlar zanglamasligi uchun maxsus moy bilan moylanadi yoki yashik ichiga moy shimdirlig qog‘oz to‘shaladi. Shuruplar quruq binoda saqlanadi. Ular o‘lchamiga qarab va tortib ko‘rib, ba’zan esa donalab hisoblanadi.

Tekis qalpoqli shuruplar (DS 1144-70), yarim tekis qalpoqli shuruplar (DS 1145-70) yarim dumaloq qalpoqli shuruplar (DS-70) uzunligi 7-120 mm, diametri 1,6-10 mm qilib tayyorlanadi.

Olti qirrali qalpoqli shuruplarni burash uchun (DS 11473-75) shurup qalpog‘iga mos keladigan gayka kalitidan foydalilanadi. Shuruplar uzunligi 20 dan 200 mm gacha, diametri 6, 8, 10, 12, 16 va 20 mm bo‘ladi.

Kam uglerodli po‘latdan tayyorlangan shuruplar qoplamasiz va xromlangan rux qoplamlari, ko‘p qatlamlari (mis-nikel, mis-nikel-xrom) qoplamlari bo‘lishi mumkin.

Boltlar (43-rasm, b) qurilish buyumlarini (yig‘ma-ajratma bino panellarini) mahkamlashga, ajratma, egma va egma yopishtirma mebellarning olinadigan detallarini biriktirishga xizmat qiladi. Boltlarni burab kirgazganda yog‘och ezilmasligi uchun bolt qalpog‘i va gayka tagiga shayba qo‘yiladi. Boltlar o‘lchamlari bo‘yicha va donalab hisoblanadi.

Shuruplar (43-rasm, a) kam uglerodli po‘lat yeki latun, simdan qilinadi. Shuruplarning o‘lchamlari: uzunligi 7 dan 120 mm gacha, sterjenining diametri 1,6 dan 10 mm gacha, qalpog‘ining diametri 3 dan 20 mm gacha, sterjenining rezba ochilgan qismi sterjen uzunligining 0,6 qism uzunligini tashkil qiladi. Buyum detallarining yelimalab ulanadigan yuzasi, masalan, egib yasaladigan mebelda juda kichkina bo‘lgan hollarda bunday detallar shuruplar bilan mahkamlanadn. Zarb ta’sir etib turadigan buyumlarning detallari, masalan, vagonlar ichiga o‘rnatilgan buyumlarning yelimalab yopishtirilgan detallari qo‘sishma ravishda shuruplar bilan mahkamlanadi. Mebellarga hamda duradgorlik

8-mavzu. Yog'ochsozlikda ishlatiladigan mexanizm va yo'naltirgichlar.

Ishdan maqsad: Ish usullarini o'rganish va malaka hosil qilish. Detallarni qalnligiga qarab mexanizm va yo'naltirgichlarni tanlash. Yog'ochlarni qattiq va yumshoqligiga qarab mixlarni qoqish. Biriktiriladigan detalning qalnligiga qarab burama mixlarni tanlash va mahkamlab biriktirish. Amaliy ish: biriktiriladigan qattiq yog'ochlarga mexanizm va yo'naltirgichlar qoqishdan oldin uni parmalab olish.

Yasaladigan buyumlar: Burchak chizg'ich, mixlar uchun quti, gul tuvagi, shaxmat qutisi.

Kerakli jihozlar: Yog'ochga mexanik ishlov beruvchi asboblardan randa, arra, elektr charx dastgohi, bolg'a, iskana, jilvir qog'oz va boshqalar.


Oshiq-moshiqlar. Oshiq-moshiqlar tavaqali (shu jumladai royalda ishlatiladigan ham), shtirli, tovonli, trelyajli va hokozolarga ajratiladi. Tuzilishiga ko'ra oshiq-moshiqlar bir sharnirli (tavaqali, tavonli, sterjenli), ikki sharnirli (lomberli va kombinasiyalangan) va to'rt sharnirli (kombinasiyalashgan) bo'ladi. Ko'rib o'tilgan oshiq-moshiqlar ajraladigan va ajralmaydigan bo'lishi mumkin. Ajraladigan oshiq moshiqlardan foydalanish eshiklarni o'rnatish va osishni osonlashtiradi. Oshiq-moshiqlar vazifasiga ko'ra o'ng va chap bulishi mumkin.

Deraza va eshik asboblariga oshiq-moshiqlar, tutqichlar (bandlar), qulflar, shpingatellar, lo'kidonlar, tortqilar va hokazo, kiradi. Odatda bu asboblar kam uglerodli po'latdan tayyorlanadi. Bu asboblarning yuz tomonlari loklanadi, xromланади, никелланади. Eshik va Deraza band-skobalari va knopkasimon tutqichlar ko'pincha metall va qattiq turdag'i yog'ochdan, metalldan va plastmassadan kombinastiyalashtirib qilinadi.

Deraza va eshiklarga ishlatiladigan oshiq-moshiqlar (DS 5088-72) asosan turar joy va jamoat binolari ommaviy qurilishida ishlatiladi. Bunday oshiq-moshiqlar eshik tavaqalarini va Deraza romlarini, shuningdyek, framuga va fortchkalarini o'rnatishga xizmat qiladi. Har qaysi oshiq-moshiq sharnirli ikkita tavaqadan tuzilgan. Har qaysi tavaqa bitta po'lat plastinkadan iborat bo'lib, plastinkaning bitta uzala qirrasi o'yilgan, buning natijasida hosil bo'lgan chiqiqni bukib sharnir hosil qilinadi. Bukilgan trubka sterjen bilan birlashtiriladi va sharnirli birikma hosil qilinadi. Trubka ikki, uch, to'rt va besh zvenoli bo'lishi mumkin.

Tavaqali oshiq-moshiqlar konstruksiyasiga ko'ra quyidagi xillarga ajratiladi: o'rtadan buriladigan (PNST) va o'rtasidan buriladigan figurali, sharikli buriladigan (PNSH) va sharikda buriladigan figurali, sterjeni to'g'ri o'tgan (PNS), ko'tarilishi chyeklangan (PNO), tabaqasining balandligi 80 va 110 mm.

Tavaqali oshiq-moshiqlar eshik va Derazalar tavaqalarini, framugalar va romlarni biriktirishda ishlatiladi. Bunday oshiq-moshiqlar o'rtasidan buriladigan yoki PN va PNF tipidagi sharikda buriladigan, balandligi 70 dan 130 mm gacha, tabaqasining kengligi 22 dan 30 mm gacha, tabaqasining qalinligi 2 dan 3 mm gacha, sterjenining diametri 7-8 mm qilib ishlab chiqariladi.



44-rasm. Mebellarda ishlatiladigan oshiq-moshiq xillari: a-j – bir sharnirli tavaqali; z,i – bir sharnirli tovonli; k-m – bir sharnirli sterjenli; n – ikki sharnirli lomber; o – to'rt sharnirli kombinatsivalanoan; n – ikki sharnirli kombinatsivalanoan.

Oshiq-moshiqlar tavaqali (shu jumladan royalda ishlataladigan ham), shtirli, tovonli, trelyajli va horozolarga ajratiladi. Tuzilishiga ko‘ra oshiq-moshiqlar bir sharnirli (tavaqali, tavonli, sterjenli), ikki sharnirli (lomberli va kombinastiyalangan) va to‘rt sharnirli (kombinastiyalashgan) bo‘ladi. Ko‘rib o‘tilgan oshiq-moshiqlar ajraladigan va ajralmaydigan bo‘lishi mumkin. Ajraladigan oshiq-moshiqlardan foydalanish eshiklarni o‘rnatish va osishni osonlashtiradi. Oshiq-moshiqlar vazifasiga ko‘ra o‘ng va chap bo‘lishi mumkin.

Bir sharnirli tavaqali oshiq-moshiqlar (44-rasm, a, d) tug‘ri 1 yoki egilgan 3 plastinkalardan (tavaqalardan) tuzilgai bo‘lib, ular o‘zaro tavaqalarning erkin aylanishnii ta’daqlaydigan o‘q 2 yordamida birikkan.

Bir sharnirli tovonli oshiq-moshiqlar (44-rasm, z; i) to‘g‘ri 4 yoki burchakli 5 plastinkalardan tuzilgan bo‘lib, ular o‘zaro o‘q 2 bilan birikkan.

Bir sharnirli sterjenli oshiq-moshiqlar (44-rasm, k, l) silliq yoki rezbali sterjenlar 6 dan tuzilgan bo‘lib, uning bir uchida turli shakldagi kallak bo‘lishi mumkin. Sterjenlarning kallaklari o‘q 2 bilan biriktirilgan. Ikki sharnirli lomber oshiq-moshiqlar (44-rasm, n) o‘zaro o‘q 2 bilan birikkan burchaklik plastinkalar 5 hamda syerga 7 dan tuzilgan.

To‘rt sharnirlikombinastiyalashgan oshiq-moshiqlar (44-rasm, o) dumaloq kosacha 8 hamda o‘qlar 2 yordamida ikkita syerga bilan birikkan to‘g‘ri burchaklik korpus 9 dan tuzilgan. Korpusga vint 10 bilan korpus 9 ichida erkin joylashgan plavnka 11 mahkamlanadi.

To‘rt sharnirli oshiq-moshiqlar eshiklar o‘rnatib bo‘linganidan keyin ham ularni rostlash imkonini beradi.

Ikki sharnirli kombinastiyalashgan oshiq-moshiqlar (44-rasm, p) kosacha 8 va o‘zaro ikkita o‘q hamda syerga bilan biriktirilgan tavaqalardan iborat.

Oshiq-moshiqlar mebel buyumlariga shuruplar, vintlar bilan yoki oshiq-moshiqlar sterjenidagi rezba yordamida mahkamlanadi.

Oshiq-moshiqlar quyidagicha belgilanadi: PNST85 oshiq-moshig‘i (DS 5088-72) balandlnigi 85 mm bo‘lgan, tavaqali, markazidan buriladigan, PNSH85 oshiq-moshig‘i balandligi 85 mm, tavaqali, shariklarda buriladigan; PNFS 85 balandligi 85 mm, tavaqali markazida buriladigan rasm).

Yuqorida ko‘rib o‘tilganlar bilan bir qatorda parron o‘tadigan PNS tipidagi tavaqali oshiq-moshiqlar ham ishlab chiqariladi, ularning balandligi 40 va 60 mm, tabaqasining eni 16 va 200 tabaqasining qalinligi 1,6 dan 2 mm gacha, sterjenining diametri 4 va 5 mm. Bu oshiq-


moshiqlar fortokchalarni osishda ishlataladi.

Deraza va eshiklarga o‘rnatiladigan yordamchi asbob va buyumlar (DS 5091-72) eshiklarni berkitish, Deraza romlarini, eshiklarni va boshqalarni ma’lum vaziyatda fiksastiyalaydi. Eshikni avtomatik tarzda berkitadigan PAV asbobi (yuqori holatda) binoga tashqaridan kirish eshiklariga va xizmat xonalariga kirish eshiklariga o‘rnatiladi.


Spiralsimon yassi eshik prujinasi PSP va stilindrik PSST turar joy binolariga kirish eshiklariga ularni berkitish uchun qo‘yiladi. Xonani shamollatish uchun qo‘sish va yakka qavat

Deraza romlarini kerakli kattalikda ochish va yopish plankali (46-rasm), ryeykali FR va ilgakli FK fiksatorlar bilan bajariladi. Deraza tavaqalarining va balkon eshiklarining mustahkamligini oshirish maqsadida o‘lchamlari 70x70 mm va qalinligi 1,5-2 mm bo‘lgan uchburchak ko‘rinishidagi kosinkalar o‘rnatiladi. Ular shtiftlar bilan mahkamlanadi.

Eshiklarni devorga va boshqa narsalarga urilishdan saqlash uchun balandligi 25 mm, diametri 30 mm bo‘lgan eshiklar ostanovlaridan foydalaniladi. Ostanovning tashqi qismi rezina yoki boshqa elastik



45-rasm. PNFS-85 ustdan o‘rnatiladigan shakldor oshiq-moshig‘i.



46-rasm. FP plankal fiksatori.

materialdan iborat bo‘ladi.

Burchagi birikishlarning mustahkamligini oshirish maqsadida uzunligi 50, 75, 100 va 125 mm bo‘lgan yassi (UP) va shakldor (UF) burchakliklar burab qo‘yiladi. Plankalar eni 12, 14, 16 va 18 mm. Burchakliklar shuruplar bilan mahkamlanadi.

Alovida romli derazalar uchun Deraza tiragi (UA) elastik uchlikka ega bo‘lib, uning uzunligi 48 mm, u deraza tavaqalarini ushlab turishga xizmat qiladi.

Mebel elementlariiing o‘zaro suviluvchanligini ta’daqlaydigan furnituraga (DS 13-40-75) oshiq-moshiqlar, mexanizmlar, yo‘naltirgichlar kiradi.

Mexanizmlar mebelning vazifasiga va ko‘rinishiga qarab turli konstruksiyalarda: divan-kravatlar, kreslo-kravatlar, kreslolar va stullar, korpusli mebel buyumlar, stollar va boshqalar uchun ishlab chiqariladi. Kombinastiyalangan mebellarda mebellarni turli vaziyatlarda fiksastiyalash va o‘zgartirish uchun transformastiya mexanizmlari ishlatiladi.


Yo‘naltirgichlar eshiklar va oynalar, yashiklar, qutilar va kassetalar, stollarinig suvilma qopqoqlari uchun tayyorlanadi.

Mebel elementlarining o‘zaro qo‘zg‘almay bog‘lanishini ta’daqlaydigan furnituraga buyumlarni biriktiruvchi tortqilar, maxsus biriktirish buyumlari, qulflar, zadvijkalar, lo‘kidonlar, kronshteynlar, tutqichlar, ostanovlar kiradi.

Tortqilar. Mebel elementlarini biriktirish uchun rezbani, eksstentrikli va ponali tortqilar ishlatiladi.

Rezbali tortqilar biriktiriladigan elementlarning ishonchli mahkamlanishini (tortilishini) ta’minlaydi, biroq siqish uchun ancha vaqt ketadi. Siqish kuchi vint, shpilka yoki gaykaning metrik rezbasi hisobiga hosil qilinadi. Rezbali tortqining eng oddysi vint hamda gaykadir.

Hozirgi vaqtda mebel elementlarini biriktirish uchun maxsus rezbali tortqilar (47-rasm, a-g) ishlatiladi. Tortqilarning asosiy detallariga gayka, vint yoki shpilka, shayba kiradi.




47-rasm. Mebel tortqilari: a-g – rezbali; d – eksentrikli; e – ikki ilgakli ponasimon; j – bir ilgakli ponasimon; 1-gayka-plankalar, 2-gayka-vtulka ershli, 3-tashqi rezbali gayka-vtulka, 4-maxsus vintlar, 5-shayba-dushka, 6-berkitgich, 7-gayka-dushka; 8-silindrik gayka, 9-standart vint, 10-skoba, 11-chiqiqqli gayka, 12-shpilka, 13-gayka-flanes, 14-eksentrik, 15-plastinalar.

Eksentrik tortqilar vintli tortqilarga nisbatan ta'siri tezroq, lekin siqish kuchi kamroq bo'ladi. Siqish kuchini eksstentrikning geometrik o'qiga nisbatan eksstentrisiteti deb ataladigan masofaga siljigan o'q atrofida aylanadigan eksstentrik hosil qiladi.

Mebel elementlarini biriktirish uchun maxsus eksstentrikli tortqilar ham ishlataladi (47-rasm, d), uning asosiy detallari gayka, vint va eksstentrikdir.


Eksentrikli tortqilar biriktiriladigan detallarning siqilish joylaridagi o'lchamlar farqi kichik bo'lgandagina ishlaydi. Mebeldan foydalanish vaqtida qismlar ajralib tegmasligi uchun ular o'z-o'zidan tormozlanadigan eksstentrikka ega bo'lishi kerak.

O'z-o'zidan tormozlanadigan eksstentrik deb shunday eksstentrikka aytildiki, uning siqilgan holatdagi profilining ko'tarish burchagi ishqalanish burchagidan katta bo'lmaydi. Bu shart eksstentrik diametri bilan uning eksstentrisiteta nisbati to'g'riligiga rioya qilingandagina bajariladi.




48-rasm. Mebel qulflari:

a-o'yib o'rnatiladigan; b-ustdan o'rnatiladigan; v-



darajada qiyshayishdan saqlaydi.



49-rasm. Surgichlar (a), lo'kidonlar (b) va magnitaviy tutqichlar (v):
1-ustdan o'rnatiladigan surgichlar, 2-o'yib o'rnatiladigan surgich, 3-
ustdan o'rnatiladigan lo'kidon, 4-o'yib o'rnatiladigan lo'kidon, 5-
ustdan o'rnatiladigan magnitaviy tutqich, 6-o'yib o'rnatiladigan
magnitaviy tutqich.

lo'kidon uchun to'xtatish plankasi bo'lib ostanovlar xizmat qiladi. Magnitli tutqichlar 3-4 kg kuch bilan tutib turadigan qilib tayyorlanadi.

Ustdan o'rnatiladigan zulfin, lo'kidon va magnitli tutqichlar shuruplar bilan mahkamlanadi, o'yib o'rnatiladiganlari esa yelim bilan yopishtiriladi.

Tashlama elementlar uchun kronshteynlar. Duradgorlnk buyumlari tayyorlashda elastik, fiksatorlik. tormozsiz, tormozli va boshqa kronshteynlar ishlatiladi. Kronshteynlarning vazifasi mebelning tashlama elementlarini ochiq holatda saqlab turishdan iborat. Kronshteynlar konstruksiyasiga ko'ra bir richagli (50-rasm, a,b) va ikki richagli (50-rasm, v) xillarga ajratiladi. Richaglar dumaloq yoki plastinkasimoi bo'lishi mumkin.

Tokcha tutqichlar, shtanga tutqichlar, skalka tutqichlar. Tokcha tutqich va skalka tutqichlar konstruksiyasini shunday bo'lishi kerakki, skalkalar uchun yelkachalar hamda mebel buyumlaridagi tokchalarni ularni yig'ib bo'lgandan keyin o'rnatish mumkin bo'lsin.

Ponasimon tortqilar (47-rasm, e, j.) biriktiriladigan elementlarning ishonchli va tez mahkamlanishini ta'daqlaydi. Ponasimon tortqilarning asosiy detallari skobalar, ponalaridir. Po'latdan yasalgan o'rnatish tortqilar ponalarining qiyaligi (pona balandligining uning uzunligiga nisbati) 1/10 ga, o'z-o'zidan tormozlanishi esa 1/20 ga teng deb qabul qilinadi. Ponasimon tortqilarning detallari shuruplar bilan mahkamlanadi.

Biriktirish buyumlariga burchakliklar, plastinkalar, bobishkalar, flanestlar, kolodkalar, prujinalar, shkantlar, fiksatorlar kiradi.

Maxsus mahkamlash buyumlari gruppasi: vintlar, boltlar, gaykalar, shpilkalar, shtiftlar, mixlar, tugmalar, knopkalar, skobalar, shaybalar kiradi.

Qulflar. Qulflar silindrik mexanizmli, shtangali suvald va hokazo bo'lishi mumkin. Mebellarda o'yib o'rnatiladigan va ustdan o'rnatiladigan qulflar ishlatiladi. O'yib o'rnatilgan qulflar maxsus uyalarga o'rnatiladi (14-rasm, a). Ularning afzalligi shundaki, ular buyumga yashirin o'rnatiladi. Biroq o'yish va ularni o'rnatish jarayoni ancha sermehnat ish hisoblanadi.

Ustdan o'rnatiladigan qulflar (48-rasm, b, v) eshikcha sirtiga o'rnatiladi. Ustdan o'rnatiladigan shpingatel qulfining afzalligi shundaki, ular mebel eshigini ma'lum

Qulflar shuruplar bilan mahkamlanadi.

Zulfin (lo'kidon) va magnitli tutqichlar. Zulfinlar (49-rasm, a) mebelning suvilma elementlarini qulflashga, lo'kidonlar (49-rasm, b) va magnitli tutqichlar (49-rasm, v) ularni ma'lum vaziyatda qotirib qo'yishga xizmat qiladi. Zulfin, lo'kidon va magnitli tutqichlar o'yi o'rnatiladigan 2, 4 va 6 hamda ustdan o'rnatiladigan 1, 3 va 5 bo'lishi mumkin.

Zulfin va lo'kidonlarda berkitish plankasi bo'lib, bu planka suvilma elementni fiksastiyalaydi.

Ustdan o'rnatiladigan zulfin va

Magnitli tutqichlar 3-4 kg kuch bilan

Skalka tutqichlar va tokcha tutqichlar ular uchun parmalangan teshikka dumi bilan tiqib qo'yiladi. Skalka tutqich dudaqing diametri 25-30 mm, tokcha tutqichniki esa 7 mm. Tokcha tutqichlarni o'rnatish uchun vtulkalardan foydalanish tavsiya etiladi, ular teshikni yemirilishdan saqlaydi.

Oyna tutqichlar. Mebellarga oyna o'rnatish uchun plastinkali va vintli tutqichlardan foydalilanadi. Plastinkali tutqichlar oyna fastyetiga tomon uchlari egilgan plastinkadan iborat bo'ladi. Plastinkali tutqichlar shuruplar bilan mahkamlanadi. Vintli tutqich rolini ko'pincha maxsus shaybali shurup o'taydi.

Shurup kallagi va shayba naqshdor qalpoqcha bilan berkitiladi.

Ostanovlar. Ostanovlar mebelning suviluvchan elementlari harakatini cheklaydi. Ostanovlar ustdan o'rnatiladigan, shurup bilan mahkamlanadigan, o'yib, yelimlab o'rnatiladigan bo'ladi.

Mebeldan foydalanishni qulaylashtirish hamda uni ko'rkarlashtirish maqsadida skobalar, knopkalar, rakkovinalar va h.k. ko'rinishidagi tutqichlar mahkamlanadi.


Tutqich skobalar ikki nuqtadan mahkamlanadigan, qo'zg'almas (51-rasm, a)

yoki qo'zg'aluvchan (51-rasm, b) skobadan iborat.

Tutqich osgichlar skobali, bir nuqtaga mahkamlangan, ko'zg'almas (51-rasm, v) yoki qo'zg'aluvchan (51-rasm, g) skoba halqa yoki boshqa qurilmadan iborat. Qo'zg'aluvchi (osilib tushadigan) tutqich skobalarni va tutqich osmalarni konstruksiyalashda ularda mebel buyudaqing sirtiga urilishidan saqlash uchun tirak yoki plastinka ko'zda tutiladi.

Tutqich knopka (51-rasm, d) korpusi dumaloq, to'g'ri to'rtburchaklik yoki boshqa shaklda bo'lib, mebelga uning o'qi orqali o'tadigan vint bilan mahkamlanadi. Tutqich-knopkalar zarur hollarda normal ishlatish sharoitlarida o'z-o'zidan burilish va buralib ketishdan saqlaydigan moslamalar bilan ta'daqlanishi zarur.

Tutqich planka (51-rasm, ye) mebelga kamida ikki nuqtasidan mahkamlanadn. Uning korpusi profilining butun uzunligi bo'yicha bir xil kyesimga ega.



51-rasm. Mebel tutqichlari va ularning asosiy o'lchamlari:
a-qo'zg'almas tutqich-skoba; b-qo'zg'aluvchan tutqich-skoba;
v-qo'zg'almas tutqich osma; g-qo'zg'aluvchan tutqich-osma;
d-tutqich knopka; e-tutqich planka; j-chiqib turadigan tutqich-rakkovina;
z-chuqurlashtirib o'rnatilgan tutqich-rakkovina.

Tutqich rakkovina mahkamlanadigan element sirtidan chiqib turadigan (51-rasm, j) va Unga o'yib kirgizilgan bo'lishi mumkin (51-rasm, z). Chiqib turadigan tutqichlar buyumga ikkita nuqtada mahkamlanadi, chuqur joylashgani esa o'yilgan teshikka o'rnatiladi.

Tutqichlar mebelga yelimlab, vint va shuruplar bilan mahkamlanadi. kamdan-kam hollardagina yelimlab yopishtiriladi, chunki mebelni tashish va remont qilish vaqtida oldindan yelimlab qo'yilgan tutqichni olib bo'lmaydi. Bundan tashqari, yelimlab yopishtirilgan tutqich sinib qolsa, uni yangisiga almashtirish qiyin. Asosan chuqur o'rnatiladigan tutqich rakkovinalarga yelimlab yopishtiriladi.

Tutqichlarni unga qo'yib ishlangan maxsus vintlar va standart gaykalar bilan mahkamlash keng qo'llaniladi. Bu holda gayka va vint metall yoki plastmassa qalpoq bilan berkitiladi.

Mebellar ichini jihozlash uchun yog'och

bo‘luman materiallardan ishlangan sig‘imlar, shtangalar, kassetalar, ilmoqlar ishlatiladi. Ko‘pincha qutisimon yashiklar, bochkasimon va boshqa ko‘rinishdagi sig‘ishlar ishlatiladi. Shtangalar stastionar, chiqarma, buriladigan tutqichlar va boshqa ko‘rinishda, kassetalar esa chiqarma, osma, burilma va boshqacha bo‘ladi. Bir, ikki va ko‘p shoxli ilgaklardan foydalaniлади.

Shkaflarning ichini jihozlash elementlariga shimlar, shlyapalar uchun ilgaklar, oyoq kiyimlari uchun ostqo‘ymalar, mayda kiyimlar, tualyet predmetlari uchun sig‘imlar, oshxona aijomlari, galstuk ilgichlar, yelkalar uchun shtangalar kiradi. Oshxona shkaflarida sabzavot va mevalarni saqlash uchun turli xil idishlar, qo‘l sochiqlarni quritish uchun chiqarma qurilma, quruq chiqindilar va axlatlar uchun konteynerlar, non kesgich bo‘ladi.

Metalldan yasalgan galstuk ilgichlar, shtangasnga ulardan galstuklar sirpanib ketmasligi uchun to‘r, mato yoki plastmassa qoplanadi. Galstuk ilgichlarning uzunligi 250-400 mm, balandligi 15-25 mm bo‘ladi.

Yelkalar uchun shtangalar shkaflar fasadiga perpendikulyar joylashtiriladi va chiqarma qilib konstruksiyalanadi. Shtangalar shrupular yoki vintlar bilan mahkamlanadi. Shtanga uzunligi 350-400 mm, yelkacha ilgagini qamrash uchun mo‘ljallangan plastinkalari orasidagi masofa 25 mm. Shtangalar shrupular yoki vintlar bilan mahkamlanadi.

Qulfchalar ustdan o‘rnatiladigan va o‘yib o‘rnatiladigan bo‘lishi mumkin. Qulfchalar buyum sirtiga chiqib turishi yoki uning sirti bilan bir tekis qilib o‘rnatilishi mumkin. Ustdan o‘rnatiladigan qulfchalar shrupular bilan mahkamlanadi, o‘yib o‘rnatiladiganlari mixlar, shpilkalar, yelmlar bilan mahkamlanadi.

9-mavzu Yelmlar, biriktiriladigan detal yuzasini Yelmlashga tayyorlash.

Ishdan maqsad: Yelim tanlash. Yelmlarni eritish. Qisuvchi moslamalarni tayyorlash. Detallarni Yelim yordamida yig‘ish. Yelimning turiga qarab yig‘ilgan buyumni Yelim ketguncha saqlab turish.

Kerakli jihozlar: Yog‘ochga mexanik ishlov beruvchi asboblardan randa, arra, elektr charx dastgohi,bolg‘a, iskana, jilvir qog‘oz va boshqalar.

Duradgorlik ishlarida yaxshi sifatlari buyumlar tayyorlash, tayyorlangan birikmaning puxtaligini ta’minlash maqsadida tiroqli birikmalar hosil qilinib, qismlar yelmlash yo‘li bilan biriktiriladi. Bu maqsadda har xil yelmlar ishlatiladi.

Yelim ma’lum bir sharoitda har xil jism (material)larning sirtini bir-biriga biriktirish xususiyatiga ega bo‘lgan yopishqoq moddadir.

Yelmlanuvchi sirtlarga suvtilgan suyuq yelim eritmasi kurit natijasida yupqa qattiq parda yelim choki hosil qiladi.

Yelmlar qanday moddalardan tayyorlanishiga qarab go‘sht-parda, suyak, baliq, kazein, albumindan tayyorlanadigan xayvonot yelmlariga; loviya, no‘xat, kunjut, kartoshka, jo‘xori, guruch kraxmallar, o‘simlik oqsillaridan tayyorlanadigan O‘simlik yelmlariga va sintetik smolalardan tayyorlanadigan smolali yelmlarga bo‘linadi.

Yelmlangan fanerlar tayyorlashda albumin, kazein, O‘simlik yelmlari ishlatiladi. Namga, suvga chidamli fanerlar va yelmlangan yog‘och qurilish konstruksiyalari tayyorlashda smolali yelmlardan foydalaniлади.


Go‘shtparda va suyak yelmlari duradgorlik yelmlari hisoblanadi.

Go‘shtparda yelimi qushxona va teri zavodlarida hosil bo‘ladigan chiqindilarni pishirish yo‘li bilan tayyorlanadi.

Suyak yelimi yog‘sizlantirilgan hayvonot suyaklari va shoxlarini pishirib tayyorlanadi.

Yelmlash xususiyatiga ko‘ra go‘shtparda yelimi suyak yelmidan ustun turadi. Chunki uning puxtaligi yuqori.

Go‘shtparda va suyak yelmlari qattiq plita shaklida tayyorlanadi. Plitalar tiniq, sarg‘ish yoki qoramtil rangli



Asbobi37-rasm. Yelmlarning puxtaligini aniqlash.a-yelmlash.b-laboratoriva

bo‘ladi. Toza, sifatli yelnmlarning sinig‘i shishasimon ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Quruq yelimlar talqon, tugmacha va boshqa ko‘rinishlarda ham tayyorlanadi.

Yelimlash sovuq (12—30°da), issiq (40—70°da) va qaynoq (80° va undan yuqori) holda olib borilishi mumkin.

Yelim eritmasi tayyorlash uchun plita maydalanib, bir qism yelimga 2—3 qism sovuq suv quyiladi va 8-16 soat davomida ivitiladi (yelim sovuq suvda erimaydi, faqat suv shimb yumshaydi va shishadi). So‘ngra ortiqcha suv to‘kib tashlanib, yumiya-gan yelim 60-70° temperaturada 2 soatgacha eritilgandan keyin 5-6 minut davomida qaynatiladi. Yelim eritmasi eng ko‘pi bilan bir-ikki kunga yetadigan qilib sritiladi.

Yelim bir qavatli idishlarda — yelimdonlarda eritilganda idish qirg‘og‘iga yopishgan yelimlar kuyib, yelimlash xususiyatini yo‘qotadi. Bunday idishlarda ortib qolgan yelimlarni qayta eritib foydalanib bo‘lmaydi. Shuning uchun yelim bir qavatli idishlarda eritilganda uni bir bor ishlatish uchun yetarli miqdorda eritish kerak. Yelim ortib qolgan taqdirda uni toza idishga quyib, 5—10°C temperaturada saqlanadi. Shunday qilinganda yelimni qayta eritib ishlatish mumkin bo‘ladi.

Bir qavatli idishlarda ma’lum miqdordagi yelimning kuyishi, yelimlash xususiyatini yo‘qotishi ro‘y beradi. Shuning uchun yelimlar maxsus yelimdonlarda eritiladi.

Turli xil materiallarni bir-biriga yelimlab yopishtirish ustida ko‘p olimlar ish olib bordilar. Bu masalani I. N. Nazarov hal etib karbinol yelimi deb ataluvch yelimlovchi suyuqlik tarkibini topdi.

Karbinol yelimi tashqi ko‘rinish jihatidan gliseringa o‘xhash xushbo‘y hidli, och sariq rangli tiniq suyuqlikdir.

Material ustiga yupqa qilib suvtalgan yelim tezda qotib benzinda, moylarda erimaydigan, suv va kislota ta’siriga berilmaydigan parda hosil qiladi.

Karbinol yelimi yog‘ochni metallga, metallni shisha, charm, marmarga yopishtirish imkonini beradi.

Sintetik smolalardan tayyorlangan suvgaga chidamli yelimlar o‘ta mustahkam bo‘ladi.

Sintetik smolalar har xil ximikatlarning ximiyaviy reaksiya yo‘li bilan birikishidan hosil bo‘ladi. Bu ximikatlar fenol, karbamid, melamin va formalinlardir.

Sintetik smolalar fanerlarni, yog‘och plitalarni yelimlashda, mebellarni fanerlashda va ayrim detallarni yopishtirishda sovuq va issiq holda ishlatiladi.

Sintetik yelimlar boshqa yelimlarga nisbatan suv va mo‘g‘orga chidamli, mustahkam yopishadi, yelimlash rejimlari oddiy, press ostida saqlanishi qizdirish orqali (15-20 minutgacha) qisqartirilishi mumkin.

Sintetik yelimlardan eng ko‘p taqalgani mochevinaformaldegidli, karbomidli U KS, K-17, M-19-62 fenolformaldegidli KB-3, epoksid smolalar EDP, EKF va boshqa yelimlardir.


Karbomidli yelimlar bilan ishlaydash jarayonida formaldegid ajratib chiqqanligi uchun xonalar yaxshi ishlaydigan ventilatsiya bilan jihozlanishi shart.

Yelimlab yopishtiriladigan sirtlarga yelim suvilgach, ular bir-biriga yaxshiroq yopishishi uchun siqladi. Bunda maxsus iskanja, tiski va boshqa qisuvchi moslamalardan foydalanish mumkin.

Yelim tayyorlanadigan xonaning temperaturasi 16°C dan past bo‘lmasligi kerak.

Yog‘och detallarni o‘yish, biriktirishni amalda sinab ko‘rish uchun quyidagi skameyka konstruksiyasi tavsiya etiladi.

Taxta yelimini ishlatishga tayyorlash uchun uni suvda bo‘rtgunicha 10—12 soat ivitiladi, so‘ngra yelimqaynatgichda qaynatiladi. Yelimqaynatgich bir-birining ichiga qo‘yiladigan ikkita metall idishdan iborat bo‘lib, yelim kuyib ketmasligi uchun katta (tashqi) idishga suv quyiladi, kichik (ichki) idishga yelimni va u shimmagan suvni solinadi (38-rasm). Yelimqaynatgichni taxminan 70—80°S gacha qizdiriladi. Ana shu darajadagi haroratda yelim eriydi. Yelimqaynatgichni elektr plitkada, kerogaz va hokazolarda qizdirish mumkin. Yelimni qaynatishda uning qattiq qaynab ketmasligi va uzok, vaqt qizimasligini kuzatib turish kerak. Chunki ana shunday hollarda uning sifati yomonlashadi. Odatda, yelimni bir-ikki kunlik ishga yetarli qilib tayyorlanadi. Negaki, u qayta qizdirilsa, buziladi. Juda quyuq yoki juda suyuq yelim buyumlarni yelimlashga yaramaydi. Yelimning ishga yaroqlilagini aniqlash uchun Unga bitta payraxani tiqib olib, uning tomishiga qaraladi. Agar yelim payraxadan uzlusiz oqib tushsa, sifatlari bo‘ladi, tomchilab tushsa (yoki butunlay oqib tushmasa), ishlatishga yaramaydi. Asboblar saqlanadigan planshet, shvabra va archa uchun taglik



yasashda qo'llanadigan to'g'ri, T simon va ochiq uyali tirnoqli birikmalarini yigish hamda yelimlashga doir amaliy ishlar 4,5 va 6-jadvallardagi tegishli texnologik kartalarda ifodalangan.

Duradgorlik yelimlari va ularni ishlatish

Yog'ochlarni yopishtirish uchuy ishlatiladigan yelimlar hayvonot yelimlari, o'simlik va smola yelimlaridan iboratdir. Duradgorlik o'quv ustaxonalarida xayvonot yelimlari, xususan suyak va kazein yelimlari, smoladan qilingan yelimlar eng ko'p ishlatiladi. O'simlik yelimlari asosan faner ishlab chiqarish korxonalarida ishlatiladi.

Yelmlar quyuq eritmalar holida, smolali yelimlar esa quruq parda (plyonkalar) ko'rinishida ishlatiladi. Yelimlarning tarkibi asosiy qism — eritkichlar va yordamchi moddalardan iboratdir.

Yelim pishirish zavodlari mezdra va suyak yelimlarini ko'pincha taxta (plita) ko'rinishida chiqaradi. Taxtaning uzunligi 150—200 mm, eni 30—100 mm, qalinligi 10—15 mm bo'ladi. Suyak yelimi bochkaga joylab ham chiqariladi. Glyutinli yelimlar sifatiga qarab sortlarga ajratiladi.

Glyutinli yelimlarning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ular quruq holida gigroskopik bo'ladi. Namlansa bo'kadi, qizdirilsa, yumshaydi va, hatto, suyuqlanadi. Bu yelimlar suvga chidamsizligi uchun ulardan yopiq xonalarda turadigan buyumlarni yelimlashdagina foydalaniladi.

Kazein yelimlarining asosiy tarkibiy qismi kazein, ya'ni yog'i olingen suzma (tvorog)dan iborat. Toza suvda kazein juda tiniq bo'ladi, lekin erimaydi va yelim hosil qilmaydi. Duradgorlik o'quv ustaxonalarida faqat kazein poroshogidan tayyorlangan va o'simlik yelimlaridan, shuningdek suyuq fenolformaldegidli yelimlardai foydalaniladi. Bu yelim quyuq shiraga o'xshash bir jinsli suyuqlik bo'lib, yupqa qatlamlvi va shaffofdir.

Fenolformaldegidli yelim quyidagicha tayyorlanadi: qo'shdevorli, ichi oqartirilgan yoki sirlangan (emal qoplangan) idishga smola quyilib, idish devorlari orasiga sovuq suv to'ldiriladi, idishga aseton yoki etil spirti solinib, smola bilan uzlusiz aralashtirib turiladi, keyin kerosin konstanti va aralashma solinib, ularni 10 minut mobaynida qorishtiriladi.

10-mavzu Tirnoqli birikmalar tasnifi va texnologiyasi.

Ishdan maqsad: Burchakli murakkab bir tirnoqli birikmalarini tayyorlash texnologiyasi Burchakli va tirnoqli birikmalarini tayyorlashda ish usullarini tushuntirish va ko'rsatish. Tirnokli birikmalar sifatini tekshirish va birikmalar yaroqsizligining oldini olish. Mehnat xavfsizligi qoidalari.

Kerakli jihozlar: Yog'ochga mexanik ishlov beruvchi asboblardan randa, arra, elektr charx dastgohi, bolg'a, iskana, jilvir qog'oz va boshqalar.

Yog'och detallarini biriktirish.

Yog'och buyumlar ko'pincha ko'pincha bir necha bo'laklardan yasaladi. Buyumni tashkil qiluvchi har bir alovida bo'lakni detal deb ataladi. Buyumni yasash uchun avval uni hosil qiluvchi hamma detallarni tayyorlanadi, so'ngra ularni tegishli tartibda biriktiriladi, har turli buyumlarni tayyorlashda detallarni to'g'ri chiziqlar, to'g'ri burchaklar, o'tkir yoki o'tmas burchaklar hamda shakldan ko'rinishida biriktiriladi. To'g'ri chiziqli biriktirish yog'och detallarni bo'yiga ulab uzaytirish yoki qalinligini oshirish uchun qo'llaniladi. To'g'ri burchakli biriktirish eng ko'p qo'llaniladi. Bunga misollar sabzavot taxtachasioyoqchalari, suratlar uchun ramka detallari, deraza romlari, eshiklar, mebellar va shu kabilar qo'llaniladi.

O'tkir yoki o'tmas burchakli birikmalar turli asbob- uskunalar, mebellar, imoratlar va boshqalarda qo'llaniladi. Shakldor birikmalar musiqa asboblari, agar va bochkalarda qo'llaniladi. Biriktirish shakllari yog'och detallarining mustaxkam va aniq biriktirilishi uchun ularning biriktirma sirtlari turli shakllarda tayyorlanadi. Tirnoqli birikmalar shakllarda tayyorlanadi. Tirnoqlar to'g'ri va qiya sirtli shakllarda bo'ladi.

Elimlash. Yog'ochdan buyumlar tayyorlashda detallarni biriktirishning asosiy usuli elimlashdir. Elimlanadigan yog'och detallari quruq bo'lishi lozim. Bu detallarni elimlab biriktiriladigan sirtlari bir-biriga zich yopishadigan aniq shakllarda tayyorlanib, changlardan tayyorlanadi. Elimlab yopishtirilgan yog'och sirtlari orasidagi elim qatlami hosil qiladigan

chokning qalinligi 0,1 mm dan 0,15 mm gacha bo'lishi lozim. Chokning qalinligi bundan yupqa bo'lsa ham, qalin bo'lsa ham elimli birikma mustaxkam bo'lmaydi.

Biriktirilayotgan sirtlarga elim surtilgan detallarni bir-biriga ishqlash yoki presslash usulida biriktiriladi.

Ishqlash usulida biriktirilayotgan sirtlarning dastlab ozgina qismini bir-biriga bosib turgan holda asta – sekin kerakli xolatgacha surib boriladi.

Presslash usulida ikki yoki undan ortiq detallarni bir-biriga biriktiruvchi elim qatlami quriguncha press ostida tutib turiladi.

Kichik reykachalarni bir – biriga yaxshilab elimlash orqali uzunligi 12 metrgacha bo'lgan yog'och to'sinlar hamda kerakli egri shakldagi katta yog'och detallari tayyorlanadi.

Biriktirish va bog'lash usullari

Duradgorlik yo'li bilan tayyorlanadigan buyumlarning, mebellarning qismlari bir-biriga turli usullar bilan biriktiriladi. Birkmalar hosil qilishda har xil elimlar va biriktiruvchi materiallardan foydalaniladi.

Duradgorlik birkmalari hosil qilishda bir necha bog'lash usullari qo'llaniladi.

Buyumning qanday materialdan tayyorlanishiga va qanday maqsadlarda ishlatalishiga, unga qanday sifat berilishiga qarab detallar o'zaro oddiy yoki murakkab ko'rinishda biriktiriladi.

Birkmalar hosil qilishda qo'llaniladigan bog'lash usullari: dasta bet bog'lash, prizmatik yoki to'g'ri tirnoqli birkmalar (bir tirnoqli yoki ko'p tirnoqli), porsi usulida bog'lash, zakrovli birkmalar, chokli birkmalar, «qaldirg'och quyruq» tirnoqli birkmalar, maxfiy va yarim maxfiy tirnoqli birkmalar va boshqalardan iborat.

Dasta bet bog'lash yoki kertmak usuli

Dasta bet bog'lash duradgorlik birkmalari hosil qilishning eng oddiy va oson usuli. Bu usul binokorlik ishlarida, parnik xo'jaligida yog'och qismlarni o'zaro biriktirishda, oddiy qoplama ramkalar, vitrinalar va boshqalar tayyorlashda qo'llaniladi.

Birikmaning o'lchamiga qarab detallar bir-biriga mixlash yo'li bilan, burama mix, bolt yoki changak yordamida qotiriladi.

Dasta bet bog'lashda detallar «G» simon, «T» simon shaklda to'g'ri va «qaldirg'och quyruq» li qilib biriktirilishi mumkin (43- rasm).

Dasta bet bog'lash 2-texnologik kartada ko'rsatilgan tartibda bajariladi.



43-rasm. Dasta bet blirkmalar;

a - «G» simon; b,v - «T» simon to'g'ri va «qaldirg'och quyruqli».

1. Birikmaga mos yog'och tanlanadi, randalashda undan payrasha chiqishini hisobga olib ma'lum qo'yim bilan material arralab olinadi.
2. Tayyorlangan materialni randalab ixtiyorli 1 uzunlikda eni a, qalinligi h bo'lgan ikkita brusok tayyorlanadi.
3. Kertmaklarni rejash uchun brusoklarning uchlarini go'niya asosida arralab to'g'ri burchakli qirqimlar hosil qilinadn, so'ngra rejalanadi. Buning uchun brusoklarning uchidan o'lchamda «bet» larga kertmak uzunligi rejalanadi va go'niya yordamida qolgan tomonlarga olib o'tiladi. So'ngra xatkash yordamida kertmak qalinligi rejalanadi. Buning uchun xatkashni hG'2 o'lchamga sozlab «bet» larga nisbatan brusoklarning yon chetlari (qirralari) va ko'ndalang qirqimlariga a uzunlikda reja chiziladi.

4. Dasta bet bog'lashda brusoklarni ustma-ust qo'yib biriktiriladi. Shuning uchun brusoklarda hosil qilinadigan kertmaklarning biri «bet» tomondan, ikkinchisida orqa tomondan ochiladi. Buning uchun kertmaklarda reja chiziqlarining yarmini saqlagan holda oldin tilinadi, so'ngra ko'ndalangiga arralab qirqiladi (kertiladi).


5. Hosil bo'lgan kertmaklarni ustma-ust qo'yib mix yoki burama mix yordamida biriktiriladi. Har qanday birikma hosil qilinganda detallarning «bet» larini birikmaning bir tomonida bo'lishiga e'tibor berish kerak.

Birikmaning jipsligi, sifati talabga javob beradigan darajaga etgunga qadar mashq qilish davom ettiriladi.

To'g'ri tirnoqli birikmalar

Duradgorlik buyumlari tayyorlashda ularning sifatli chiqishi va detallarning puxta birikishini ta'minlash maqsadida, uning shakli va o'lchamlariga qarab har xil ko'rinishdagi bir tirnoqli, ikki tirnoqli, ko'p tirnoqli ochiq, maxfiy va yarim maxfiy tirnoqli birikmalar hosil qilnnadi. Ulardan eng soddasi va eng ko'p qo'llanadigan ochiq ko'rinishidagi bir tirnoqli birikmalardir.

1. Birikmaga mos yog'och tanlanadi, randalash uchun qo'yim qoldirib undan material arralab olinadi.




44-rasm. Tirnoq chiqarish va quloq ochish.

a-tirnoq va quloqlarni tilish; b-tirnoq kiritish; v-quloq o'yish.

2. Brusoklarnit uchlarini go'niya asosida arralab to'g'ri burchakli qirqimlar hosil qilingandan so'ng tirnoq va quloqlar rejalanadi. Buning uchun brusoklarning uchida o'lchamda tirnoq va quloq uzunligi rejalanib, qolgan tomonlarga go'niya yordamida olib o'tiladi. Bir tirnoqli birikmalarda tirnoqning qalinligi yoki quloqning kengligi brusok qalinligining $1G'3$ qismiga teng qilib olinadi (shuni hisobga olib ko'pincha bir tirnoqli birikmalarda brusokiing qalinligini 3 ga qoldiqsiz bo'linadigan o'lchamda tayyorlanadi). Shuning uchun tirnoq va quloq o'lchamlarini rejalahda xatkashning bir cho'pini brusok qalinligining – qismiga ($\frac{h}{3}$), ikkinchi cho'pini brusok qalinligining ($\frac{2}{3}h$) qismiga teng o'lchamga sozlanadi va ikkala cho'p yordamida «bet» larga nisbatan brusok chetlariga reja chiziladi.


4. Reja asosida tirnoq chiqarish va quloq ochish uchun birinchi navbatda tilish ishi olib boriladi. Tirnoq va quloqlarni tilish ishlari 44-rasmida ko'rsatilganidek olib boriladi. So'ng tirnoq chiqarish uchun kertish va quloq ochish uchun o'yish ishi bajariladi.

5. Tirnoq va quloqlarni o'zaro bir-biriga kiritib birikma hosil qilingach, uning jipsligi ta'minlanadi. Jipslikni ta'minlash chaspakli dastarra yordamida olib boriladi.



45-rasm. Tirnoq andazalari va ko'p chizg'ichli xatkash:

a-dastabet andazasi; b-to'g'ri tirnoq andazasi; v-qaldirg'och quyruq andazasi; g- ko'p chizg'ichli xatkash.



46-rasm. Bir tirnoqli va ko'p tirnoqli maxfiy va yarim maxfiy birikmalar:
a,g — maxfiy, b, v — yarim maxfiy.

Buning uchun birikmaning chokiga ham «bet» dan, ham orqadan arra qo'yiladi (arralanadi). Birikma hosil qilishni bir necha bor mashq qilinadi.

Ikki tirnoqli birikmalarda har bir tirnoqning qalinligi brusok qalinligining ($\frac{1}{5}$) qismiga teng qilib chiqariladi, quloqlar unga moslab ochiladi.

Ikki tirnoqli birikmalar hosil qilishda birinchi navbatda tirnoqlar chiqariladi. So'ng tirnoqlarga moslab quloq o'rirlari rejalanadi.


Ko'p tirnoqli birikmalarda ham oldin tirnoqlar chiqarilib, so'ngra ular asosida kuloq o'rirlari rejalanadi. Ikki tirnoqli va ko'p tirnoqli birikmalarda ikki cho'pli xatkashlar yordamida rejalash mumkin emas. Ular uchun maxsus ko'p chizg'ichli xatkashlar tayyorlanadi yoki andazalardan foydalaniadi.

Bir tirnoqli maxfiy yoki yarim maxfiy birikmalarda quloq o'mida uya yoki teshik ochiladi. Buning natijasida tirnoq butunlay ko'rinnaydi yoki tirnoqning uch qismigina ko'rindi. Shunga ko'ra maxfiy tirnoqli birikmalarda uya (brusokning eniga qarab) brusok enining ($\frac{2}{3}$) yoki ($\frac{3}{4}$) qismigacha o'yilib, tirnoqning uzunligi unga moslab chiqariladi.

Tirnoqli birikmalar hamma vaqt elimlab biriktiriladi. Ayrim hollarda birikmaning puxtaligini oshirish uchun unga yog'och mix qoqlidi yoki uning sifatiga qarab ichki yoki tashqi tomonidan po'lat burchaklik yoki fanerdan tayyorlangan uchburchaklik mixlanadi.

Porsi usulida bog'lash

Duradgorlik buyumlarining sifatini oshirish maqsadida, ko'pincha, detallarning «bet» qismlari yoki birikma ustidan mixlanadigan (qoplanadigan) chaspaklarning tirnoq va quloqlari porsi usulida (45° burchak ostida) biriktiriladi. Bunday detallarning «bet» qismlariga chorafzal randalar yordamida har xil gullar chiqarilgan yoki faska olingan bo'ladi. Ular to'g'ri burchak hosil qilib biriktirilsa, gullar yoki faskalar bir-biriga mos kelmay birikmaning sifati buziladi. Porsi usulida bog'lashda qismlar bir-biriga tirnoqsiz yoki tirnoqli qilib biriktirilishi mumkin.



47-rasm. Tirnoqsiz porsi birikmalar.

Tirnoqsiz porsi usulida bog'lashda, ular zakrovli yoki zakrovsiz bo'lishlaridan qat'i nazar, detallarning uchlari porsi usulida (45° burchak ostida) arralanib, ular bir-biriga mixlab, qirg'og'iga tunuka lenta yoki po'lat burchakli qoplab biriktiriladi (47 -rasm). Talab etilishiga qarab detallarning betiga faska yoki gul chiqariladi.

Bunday hollarda chorabzal randalar bilan randalash ham mashq qildiriladi.

1. Tirnoq va quloqlarni rejalah. Buning uchun brusoklar-ning uchidan *a* o'lchamda tirnoq va quloq uzunligi rejalah qolgan tomonlarga go'niya yordamida olib o'tiladi. Shuningdek, «bet»larga porsi go'niya yordamida brusoklarning uchlardan porsi chizig'i (45° burchak ostida qo'shimcha reja) chiziladi. So'ngra xatkashni tirnoq o'lchamiga sozlab, «bet»larga nisbatan brusokning qirralariga reja chiziladi.
2. Reja asosida tirnoq chiqarish va quloq ochish uchun birinchi galda tilish ishi bajariladi. Tirnoq chiqarish uchun tilishda orqa tomondan go'niya chizig'igacha tilihib, «bet» tomondan porsi chizig'iga (45° li rejaga) moslab burchak ostida tilihib. Buning natijasida orqa tomondan go'niya chizig'i bo'yicha, «bet» dan porsi chizig'i bo'yicha kertib tirnoq chiqariladi. Quлоq ochilgandan so'ng «bet» tomondan tirnoqqa moslab porsi chizig'i bo'yicha arralab tashlanadi (kertiladi). Kertish vaqtida arralash porsi qolip yordamida bajarilishi mumkin.
3. Talab etilishiga qarab faska yoki gul chiqarish. Detallarga faska chiqarishda ularning bir xil chiqishini ta'minlash uchun «bet» va ichki qirralarga xatkash yordamida reja chizib olinadi. Reja chizig'igacha randalanadi. Gul chiqarishda chorabzal randalar yordamida payraxa chiqmay qolgunga qadar randalash davom ettiriladi.
4. Tayyor qismlarni o'zaro biriktirib birikma hosil qiliinadi va uning jipsligi ta'minlanadi.

Zakrovli birikmalar

Oynalanadigan duradgorlik buyumlari tayyorlashda zakrovli birikmalar hosil qilinadi. Zakrovli birikmalar dasta bet, to'g'ri tirnoqli yoki porsi usulida biriktirilishi mumkin.

Zakrovli birikmalar boshqa turdag'i birikmalarga qaraganda bir oz murakkab bo'lib, ma'lum darajada malaka bo'lishini talab etadi. Shuning uchun ham zakrovli birikmalar hosil qilish mashqini o'quvchilarda etarli ko'nikma va mehnat malakalari hosil bo'lgandan so'ng o'tkazilgani ma'qul.

Quyida to'g'ri tirnoqli zakrovli birikmalar hosil qilish usuli bilan tanishib o'tamiz.

1. Brusoklarning uchi go'niyali qilib tayyorlangandan so'ng *a* o'lchamda tirnoq va quloq uzunligi rejalah qolgan tomonlarga olib o'tiladi.

Zakrov ochilganda quloqning qirg'og'idan qirqimi 1 sm^2 bo'lган *a* uzunlikdagi qismi randalanib (chizib) ketadi. Buni hisobga olib tirnoq chiqarishda zakrovlik tomonidan 1 sm qisqa kertiladi. Shuning uchun tirnoqni rejalahda *a* o'lchamdag'i reja chizig'idan 1 sm tashlab *a* - 1 o'lchamda qo'shimcha reja chiziladi va go'niya yordamida qolgan tomonlarga olib o'tiladi.

Tirnoq va quloqlarni rejalahda zakrov ochilishini hisobga olib xatkashning bitta chizg'ichini hamma vaqt 1 sm o'lchamga sozlanadi. (Chunki zakrov randa qirg'oqdan 1 sm^2 qirqimlik zakrov ochadi.) Ikkinch'i chizg'ichini esa iskananining enini hisobga olib, unga 1 sm qo'shib sozlanadi (iskananining eni 15 mm bo'lsa xatkashning ikkinchi chizg'ichini 25 mm ga sozlanadi). Xatkashni shu tariqa o'lchamga sozlab tirnoq va quloq rejalahadi.

2. Tirnoq chiqarish va quloq ochish reja asosida olib boriladi. Tirnoq chiqarishda zakrovli tomonidan aq1 sm o'lchamli reja chizig'igacha tilihib so'ng kertiladi. Orqa tomondan o'lchamli rejagacha tilihib so'ng kertiladi.

Quлоq odatdagidek ochilaveradi.

3. Zakrovlar bir yoqli ochilganda hamma vaqt brusokning «bet» va «yordamchi bet» lar kesishuvchi qirrasidan ochiladi. Zakrov zakrov randa yordamida ochiladi.

4. To'g'ri tirnoqli zakrovli birikmalarga sifat berish maqsadida «bet» tomondan zakrov ochilsa, orqa tomondan faska chiqariladi. Buni hisobga olib tirnoq chiqarishda orqa tomondan o'lchamda kertmak chiqarmasdan, balki tilishni *a* o'lchamgacha olib borib kertishda *a* $q1$ o'lchamli reja chizig'idan *a* o'lchamli reja chizig'iga tushadigan qilib burchak ostida arralab kertiladi.

Barcha qismlardagi faskalarning bir xil chiqishini ta'minlash uchun faska chiqariladigan qirra bo'yicha xatkashning katta o'lchamli cho'pi bilan, orqa tomonga 1 sm ga sozlangan cho'pi bilan reja chizib

olinadi. Buning uchun xatkashni tirnoq, quloq rejalashga sozlangan holicha saqlash kerak. Faska chiqarishda randalash reja chizig'igacha davom ettiriladi.

Agar zakrovli birikmalarga faska o'rnida gul chiqarilsa tirnoq, quloqlar porsi usulida biriktiriladi. Biriktiriluvchi qismlardagi gullarni bir-biriga mos kelishini ta'minlash maqsadida gul chiqarishdan oldin qismlarni xomaki yig'ib, birikmaning tekisligi ta'minlangandan so'ng qayta qismlarga ajratib gul chiqariladi.

5. Tayyor bo'lgan qismlar yig'ilib, jipsligi ta'minlanadi

«Qaldirg'och quyruq» tirnoqli birikmalar


To'g'ri tirnoqli birikmalarda birikmaning puxtaligi elimlash yo'li bilan ta'minlanadi. Tirnoqli birikmalarning puxtaligini oshirish uchun ayrim hollarda elimlash bilan birga qo'shimcha yog'och mixlar va metall burchakliklar qoqiladi.

Ba'zan duradgorlik yo'li bilan tayyorlanadigan tirnoqli birikmalarda elim, yog'och mixlardan foydalanmagan holda puxtalikni ta'minlanadi. Bunday birikmalar «qaldirg'och quyruq» tirnoqli birikmalar deb ataladi.

«Qaldirg'och quyruq» tirnoqli birikmalar bir tirnoqli yoki ko'p tirnoqli bo'ladi.

Bir tirnoqli «qaldirg'och quyruqli» birikmalar kesaki bog'lashda ko'p tirnoqli «qaldirg'och quyruqli» birikmalar sandiq (yashik) bog'lashda qo'llaniladi.

Rejalash, tirnoq chiqarish va quloq ochish. «Qaldirg'och quyruqli» birikmalarda dastavval tirnoq chiqarilib, so'ngra tirnoqqa moslab quloq ochiladi (48-rasm).



48-rasm. Qaldirg'och quyruqli birikmalar xosil qilish, quloqlarni rejalash.

Chunki «qaldirg'och quyruqli» birikmalarni yig'ishda detalning biri ikkinchisiga tushadi, lekin ikkinchisi birinchisiga tushmaydi. Shuning uchun rejalash, tirnoq chiqarish va quloq ochish ishlari aralash bajariladi.

11-mavzu Yog'ochlarni kuydirib ishlov berishda ishlatiladigan materiallar va asboblar.


Ishdan maqsad: Moslamalarning tavsifi. Ish uslubini ko'rsatish va tushuntirish. Mehnat havfsizligi qoidalari. Ishlov berish va malaka hosil qilish. Ishning turiga qarab kuydiruvchi asbob va moslamalar. Xavfsizlik texnikasi qoidalari

Kerakli jihozlar: Yog'ochga mexanik ishlov beruvchi asboblardan randa, arra, elektr charx dastgohi, bolg'a, iskana, jilvir qog'oz va boshqalar.


Yog'ochga kuydirib gul, naqsh solish sotuvda bo'ladigan yoki yasama elektr asbob yordamida bajariladi. Asbob komplektiga (90- rasm) 127 yoki 220 V kuchlanishni 2 V kuchlanishigacha (bu — asbobning ish kuchlanishi) pasaytirish uchun xizmat qiladigan transformator kiradi. Iste'mol quvvati 120 Vt ga yaqin. Uchiga elektr odamlangan tutqich (dasta) ish asbobi bo'lib xizmat qiladi. Mstall elektr odamlangan undan o'tuvchi tok kuchi ta'sirida cho'g'lanadi. 91- rasmida asbobning qo'lida yasalgan konstruksiysi

ko'rsatilgan. 5—6 mm li faner yoki taxtachadan yasalgan dasta (1) ga ikkita metall (latun yoki mis) plastinkalar (2) va (3) mahkamlanadi. Bu plastinkalarning erkin uchlariiga uncha katta bo'limgan gaykali vintlar yordamida diametri 0,4—0,5 mm bo'lgan nixrom simdan yasalgan elektrod (ilmoq) (4) mahkamlaiadi. Bu maqsadda 127 V kuchlanishga mo'ljallangan elektr plitkaning simidan foydalanilgani ma'qo'l. Metall plastinkalarning qarama-qarshi uchiga elektr simlarning uchlari mahkamlanadi, shundan so'ng kuydirgichning butun dastasi izolyasiya lentasi bilan, uning ustidan esa ingichka sim bilan o'raladi. Bunday dastani ushslash qulay bo'ladi va u ish vaqtida uncha qizimaydi. Transformator tarmoqqa ulanganda sim cho'g'lanadi va uning uchli o'rta qismi bilan kuydiriladi.

Barcha ulangan joylar juda puxta bo'lishi lozim: simlarning ochiq uchlari Hech qayerda bir-biriga tegmasligi kerak, aks holda qisqa tutashuv sodir bo'ladi; ularni izolyasiya lentasi bilan o'rash lozim. Kerakli kuchlanishdagi tok hosil qilish uchun maktabda ishlatiladigan pasaytiruvchi o'quv tajriba transformatorlaridan yoki bolalar «Elektr konstruktor» naborlaridagi transformatorlardan shuningdek kuchlanishi va quvvati bo'yicha shunga to'g'ri keladigan boshqa asboblardai foydalanish mumkin. Asbob transformatorning ikkilamchi chulg'amidagi «2 V» qisqichiga ulanadi. Agar bunda uchlik yetarli qizimasa (u tiniq qizil rangli bo'lishi kerak), transformator esa kuchlanishning boshqa pog'onasiga ega bo'lsa, u holda elektr kuydirgich «3 V» yoki «4 V» li qisqichlaridan biriga ulanadi. Elektr kuydirgichni transformatorga faqat transformator elektr tarmog'idan uzilgan holdagina qayta ulash kerak. Ishlayotgan paytda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak: tanaffus vaqtida transformatori tarmoqdai albatta uzib qo'yish, asbobni esa uning simi sovimagunga qadar taglikka qo'ymaslik lozim. Kuydirish uchun material sifatida yog'och yoki faner, yaxshisi yumshoq yog'och (arg'ivon, terak va olxa)lar dan foydalanilgani ma'qo'l.



90-rasm. PVD-3 markali yogochga kuydirib gul, naqsh solish kuydirgichi.



91-rasm. Yasama elektr kuydirgich (o'lchamlar mm hisobida): 1-dasta; 2-plastinkalar; 3-dastaga mahkamlangan plastinkalar; 4-ilmoq; 5-dastani lenta

Kuydirib gul solish uchun rasmlar maxsus albomlar ishlab chiqariladi; bu maqsad uchun, shuningdek, lobzik bilan arralash uchun mo'ljallangan albomdagi rasmlardan, bo'yash uchun bolalarga chiqariladigan albomlardan, kitob va jurnallarning rasmlaridan ham foydalanish mumkin. Yog'ochga rasmni to'g'ri ko'chirish juda muhim. Buning uchun tanlangan rasm kalka yoki papiroq qog'oziga ko'chirib olinadi, so'ngra nusxa ko'chirish (kopirovka) qog'ozi yordamida yog'och sirtiga o'tkaziladi. Yog'ochga nusxa ko'chirishdan oldin, u jilvir qog'oz bilan yaxshilab pardozlanadi. Naqshlarni va bir xil konturli rasmlarni kuydirib hosil qilishda fanerdan arralangan yoki qattiq qog'ozdan kesilgan andaza (shablon)lar va trafaretlar ishlatilishi mumkin. Ularni yog'ochning yaxshi pardozlangan sirtiga qo'yib qalam bilan chizib chiqiladi. Dastlabki snnab ko'rildigan rasmlarni nukta qo'yib kuydirish kerak. Zich yoki siyrakroq nuqtalar qo'yib, ularning o'lchamlarini va chuqurligini

O'zgartirib tasvirlanadigan predmetlar hajmini katta qilib ko'rsatish yorug'dan soyaga o'tishlarni hosil qilish mumkin. Buyumga kuydirib gul solish vaqtida uni stol ustiga nisbatan ma'lum burchak ostida va ko'zdan 30—35 sm oraliqda o'rnatish kerak. Eng muhimi Buyumning ishlov beriladigan sirti yaxshi yoritilgan bo'lishi lozim. Ish vaqtida yog'ochning ko'yishi natijasida xonaning havosi buziladi, shuning

uchun xonani vaqtı-vaqtı bilan shamollatib turish kerak. Kuydirish vaqtida ko'z nisbatan tez charchaydi, shuning uchun har 15—20 minutdan so'ng dam olish lozim. Kuydirilgan Buyum bir xil rangga bo'yalishi, rang-barang qilib bo'yalishi yoki lak bilan qoplanishi mumkin. Rang-barang qilib bo'yash uchun suvda eritiladigan bo'yoqlar (anilin bo'yeqlari, har xil tushlar, rangli siyohlar) tanlanadi, Buyumni tezob (yog'ochni bo'yash uchun ishlatiladigan o'tkir suyuq modda) bilan jigar rangga bo'yash mumkin. Bo'yashdan oldin Buyumning sirtini jilvir qog'oz bilan yaxshilab tozalash kerak. Oxirgi tozalashda jilvir qog'ozni yog'ochning faqat tolasi bo'ylab yurgizish lozim. Bo'yagichlarning suvdagi eritmaları juda ham quyuq bo'lmasligi kerak; rangnnig ravshanligi va quyuqligiga erishish uchun bitta joyga bo'yoqning suyuq eritmasidan 2—3 marta surkash yetarli bo'ladi. Yog'ochning kesilgan joylari, shuningdek fanerning qirralari bo'yashdan oldin suv bilan namlanadi, chunki yog'ochning buiday joylari namni, shu bilan birga bo'yoqni ham yon tomonlariga nisbatai ko'proq shimb oladi va bo'yalgandan so'ng nisbatan to'qroq bo'lib chiqishi mumkin. Bo'yash vaqtida yog'ochning tolasi bo'ylab mayda bo'yoq oqimlari hosil bo'lmasligi uchun kontur chegaralari bo'yicha chi-ziqlarni uzluksiz kuydirish kerak. Kuydirib naqsh solnigan Buyumlarni rang-barang qilib bo'yash uchun uncha katta bo'lмаган yumshoq cho'tkadan foydalaniladi. Buyumning sirtini yaxlit qilib bo'yash uchun bo'yoq toza ip-gazlamaga o'ralgan raxta tampon bilan surkaladi. Bo'yoqning bir tekis bo'yalishiga erishish uchun bo'yoq berilgandan so'ng tezlik bilan bo'yagan sirtini toza yumshoq latta bilan artish kerak.

12-mavzu Duradgorlik polirovkasi va uni bajarish texnologiyasi.

Ishdan maqsad: Ishlanayotgan buyumlar sifatini tekshirish, mehnat havfsizligi qoidalari. Duradgorlik polirovkasida lak surtish uchun tampon tayyorlash.. Duradgorlik polirovkasi va uni bajarish texnologiyasi. Ishlanayotgan buyumlar sifatini tekshirish, mehnat havfsizligi qoidalari. Duradgorlik polirovkasida lak surtish uchun tampon tayyorlash

Kerakli jihozlar: Yog'ochga mexanik ishlov beruvchi asboblardan randa, arra, elektr charx dastgohi,bolg'a, iskana, jilvir qog'oz va boshqalar.

Duradgorlik ishlarida, mebelsozlik korxonalarida yog'ochdan tayyorlangan buyum va mebellarning sifatini yaxshilash, xizmat muddatini oshirish massadida pardozlash ishlari olib boriladi.


Pardozlash ishlary bir necha xil bo'lib, ular sirtlarning tekisligi va sillshushgini oshirish, ya'ni qurish natijasida xosil bo'lgan yoriklarni to'ldirish va turli xil suvgichlar suvtish yo'li bilan tekislikni ta'minlash, buning uchun sirtlarnish randalab, qirib, jilvirlab silliqlash; yog'ochning tabiiy gulini o'zgartirish maqsadida buyash; yog'ochnipg tabiiy gulini o'zgartmagan holda yoki boshqacha tusga kiritish maqsadida loklash va politurlashdan iborat.

Sirtlarning tekisligini ta'minlash. Yog'och buyumlar, ko'pincha, bir necha detallarni uzaro biriktirish yo'li bilan tayyorlanadi. Detallarni tayyorlashda birikma hosil qilish uchun koldirilgan quyimlar hisobiga birikma (buyum)ning sirti hamma vaqt tekis chiqmaydi. Shuningdek, ob-havo ta'siri ayrim detallar tob tashlab, birikma tekisligining buzilishi ga sabab bo'ladi. Shuning uchun har qanday birikma hosil qilingandan so'ng tayyor buyum sirtini bir necha bor randalash yo'li bilan tekislanadi.

Buyum tayyorlashda xamma vaqt jips birikma hosil bo'lavermaydi. Shuningdek, birikma hosil qilish vaqtida nojo'ya bolg'alash orasida sirtlarning ezilishi, ayrim butoqlarning ko'chib ketishi va boshqa sabablarga ko'ra sirtlar o'yilib, tekislikning buzilishi mumkin. Bunday hollarda sirtlarga har xil shpaklyovkalar suvtlib yoriqlar, tirkishlar, o'ydim chuqurliklar, teshiklar to'ldiriladi va tekislanadi.

Shpaklyovka yoriqlarni, teshik kovaklarni to'ldirish va butun sirtga suvtish yo'li bilan tekislikni ta'minlash maqsadida ishlatiladi. Shunga ko'ra shpaklyovka quyuq va suyuq holda tayyorlanadi. Kuyuq shpaklyovka teshikkovaklarni to'ldirishda, suyuq shpaklyovka butun sirtga suvtib tekislikni ta'minlashda ishdatiladi. Shpaklyovka bir yoki bir necha bor yog'och yoki metall ko'rakcha — shpatel (39-rasm) bilan suvtildi.

Shpaklyovka moyli, lokli, yelimli bo'lishni mumkin.



39-rasm. Shpaklyovka kuraklari.a-po'lat, b-yo'goch, v-yoppa shpaklyovka surtish.

Uning tarkibiga bur, bo'yoq, alif, lok, yelim, smola, pigmentlar qo'shilishi mumkin. Shpaklyovka ko'pincha ish joyida, ishlatish vaqtida tayyorlanadi.

Yelimli shpaklyovkaning tarkibida 3% duradgorlik yelimi, 65% bur va pigment, 30% suv bo'ladi. U tez qotadi. Uning yumshoq, ilashimli bo'lishini ta'minlash uchun tarkibiga 2% olif qo'shiladi.


Moyli shpaklyovkaning tarkibida 70% bur va pigment, 30% lok bo'lib, yelimli shpaklyovkaga qaraganda mustahkam bo'ladi, sekin quriydi. Uning tez qurishini ta'minlash uchun olifga oz miqdorda moyli lok aralashtiriladi. Moyli shpaklyovkalar moyli bo'yoq va moyli lok bilan bo'yadigan sirtlarga suvtish uchun ishlatidadi.

Shpaklyovka sirtga suvtigandan so'ng yog'ochning rangini, tabiiy gulini buzadi yoki qoplab yo'qotadi. Shuning uchun shpaklyovka suvtigan yog'och buyumlar ko'pincha bo'yadigan.

Yog'och rangi, tabiiy guli o'zgarmay qoladigan yog'och buyumlarning sirtini to'ldirish va tekislash maqsadida tarkibida mum, parafin, talk, skipidar, olif, lok bo'lgan mumli va moyli to'ldiruvchilar ishlatiladi. Bo'lar buyumlarni loklash va politurlashdan oldin suvtildi.

Yog'och buyumlarning sirtiga lok va politurlarning bir tekis yaxshi yopishib puxta birikishini ta'minlash maqsadida gruntovka klinadi. Sirtlarni keyinchalik pardozlash uchun tayyorlash maqsadida birinchi bor turli xil qoplovchilar suvtish bilan tekislash gruntovkalash deyiladi. Duradgorlik pardoz ishlarida moyli, lokli va nitrolakli gruntlar ishlatiladi. Duradgorlik buyumlari ko'pincha, sof alif yoki skipidar aralashtirilgan oliflar bilan gruntovka qilinadi. Olif yog'ochning rangini, tabiiy gulini o'zgartmagan holda sirtlarni tekislash va sirtda yupqa qattiq parda qatlami hosil qilib lok bo'yoqlarning puxta birikishiga imkon beradi. Spirtli loklar bilan pardozlanadigan sirtlarga birinchi bor olif o'rnida mum suvtildi. Mum suvtigan sirtlarning tabiiy guli yanada yorqinlashadi, tiniqligi ortadi.

Yog'och sirtiga birinchi bor suvtigan to'ldiruvchi shpaklyovka va gruntlar sirtning tekisligini ta'minlashidan qat'i nazar ularning notejis suvtishi, gruntlar ta'sirida yog'och tolalarining (zirapchalarning) ko'tarilishi orqasida sirtning silliqlik darajasi pasayadi. Bunday hollarda sirtlarni loklash va politurlashdan oldin qayta jilvirlanib silliqlanadi.



40-rasm.Qir'gichlar

Sirtlarni silliqlovchi materiallar. Sirtlarni silliqlash ishlari sirtlarga shpaklyovka suvtish, gruntovka qilishdan oldin va keyin bajarilishi mumkin. Shpaklyovka suvtish va gruntovka qilishdan oldin olib boriladigan silliqlash ishlari mushranda bilan randalangan sirtlarni qirgich yordamida qirishdan iborat.

Qirish metall qirgich (40-rasm) yoki oyna chizg'ich yordamida bajariladi. Qirish yog'och tolalarining o'sish yo'naliishi bo'yicha olib boriladi. Aks holda qirgich yog'och tolalarini ko'chirib chiqaradi va sirtning silliqligini buzadi.

Jilvir qog'oz sirtlarni silliqlash maqsadida turli markadagi jilvir qogozlar ishlatiladi. Jilvir qog'oz yelimlangan mato yoki qog'ozga sepilgan maydalangan shisha sinit yoki kvarsdan iboratdir.

Jilvir qog'ozlar yirik va mayda donli bo'lib, donlarning o'lchamiga qarab quyidagicha nomerlanadi: 12, 16, 20, 24, 36, 60, 80, 100 120, 140, 170, 200, 280. Nomerlar ortib borishi bilan jilvir qog'oz mayda donli bo'lib boradi.

Silliqlanadigan sirtlarning silliqlik darajasiga qarab har xil yiriklikdagi jilvirlar ishlatiladi. Jilvirlash, ko'pincha, shpaklyovka suvtilib, gruntovkalashdan keyin bajariladi. Silliqligi yuqori bo'lgan sirtlarni jilvirlashda mumkin qadar mayda donli jilvirlar (120—140) ishlatiladi. Loklanadigan va politurlanadigan sirtlar 170—280-nomerli jilvirlar yordamida jilvirlanadi.

Gruntovkalangan yoki gruntovkalangan yog'och sirtlarni jilvirlashda bir marta talab etilgan nomerli jilvir bilan silliqlangan sirtni changdan tozalab bir oz suv purkaladi yoki alif suvtildi. Suv yoki alif ta'sirida namlangan ayrim yog'och tolalari burtib ko'tariladi. Bu tolalarni ikkinchi bor jilvirlab sirtning silliqligi orttiriladi. Talab etilishiga qarab bu hol ikki-uch takrorlanadi.

Shpaklyovka suvtigan sirtlar ham talab etilishiga qarab turli yomerdag'i jilvirlar bilan jilvirlab

silliqlanadi.

Silliq sirtlarni hosil qilishda jilvir qogozlarni ishlatishdan oldin bir-biriga ishqalab olinadi. Bunda ularning ayrim yirik, o'tkir uchlik donalarining qirralari sinib sirtni tirnamaydigan, uning silliq chiqishini ta'minlaydigan bo'ladi.

Pemza — och sariq raigli, Yengil, govak, qattiq toshdir. Pemza shpaklyovkalangan va bo'yagan sirtlarni quruqligicha va namlab silliqlash uchun ishlatiladi.

22-mavzu **Yog'ochlarga lak bilan pardoz berishda uning strukturasini to'la bilgan holda pardozlash.**

Ishdan maqsad: Lakli materiallar tavsifi va uni yuzaga surtish uslubi O'rganish uchun amaliy mashqlar: buyum yuzasini grunlash, zamazka qilish. Lak surtish. Tampon tayyorlash. Birinchi, ikkinchi, uchinchi polirovka qilishda tamponning

Kerakli jihozlar: Yog'ochga mexanik ishlov beruvchi asboblardan randa, arra, elektr charx dastgohi, bolg'a, iskana, jilvir qog'oz va boshqalar.

Lok va bo'yoqlar. Pardozlashning so'nggi bosqichi loklash yuza bo'yashdan iborat. Bu yo'l bilan pardozlash materialining tiniqligi, jilolanishi, yog'ochning tabiiy gulini o'zgartirishiga qarab ikki turga bo'linadi: yog'ochning tabiiy rangi va gulini o'zgartirmaydigan tiniq yoki duradgorlik pardozi va yog'ochining tabiiy rangi hamda gulini yo'qotib, sidirg'a ko'rinishga keltiradigan tiniqmas yoki bo'yoqchilik pardozi.

Odatda, rangi va guli ko'rimsiz bo'lgan yog'ochdan tayyorlangan; buyum va mebellarga tiniqmas pardoz beriladi. Bu maqsadda moyli va sirli (emalli) bo'yoqlar ishlatiladi.

Tiniqmas pardozlash yo'li bilan bargli va igna bargli sifatsiz yog'ochlardai tayyorlangan buyum va mebellar bo'yaladi.

Tiniqmas pardoz ishlari donalar, seriyalab buyum ishlab chiqarishda, xonalarni pardozlashda qo'llaniladi. Ish tartibi quyidagicha olib boriladi: gruntokkalash, quritish; shpaklyovkalash, quritish, jilvirlash; birinchi marta bo'yash, quritish, jilvirlash; ikkinchi marta bo'yash, quritish jilvirlash; uchinchi marta bo'yash, quritish.

Sanoatda moyli bo'yoqlar quyuq holda ishlab chiqariladi. Uni ishlatish vaqtida alif qo'shib suyultiriladi va ishga moslanadi.

Sirli bo'yoqlar moyli va nitroemallarga bo'linadi. Moyli sirlar loklarda, nitroemallar nitroloklarda tayyorlanadi. Sirli bo'yoqlar turli rangda tayyorlanib tayyor holda sotiladi.


Bo'yoq, suvda, spirt yoki moyda eriydigan va yog'ochning tabiiy gulini yo'qotmagai holda rang berish hususiyatiga ega bo'lgan moddalardir. Bo'yoqlar o'simlik bo'yog'i va sun'iy bo'yoqlarga bo'linadi.

O'simlik bo'yoqlari ayrim daraxt va o'simliklardan olinadi. Sariq bo'yoq, (rang) sariq zanjabildan, qora bo'yoq, zirkdan, jigarrang — olma daraxti po'stlog'idan, ko'k rang — javdar bug'doydan olinadi.

Sun'iy bo'yoqlar toshko'mirni qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan mahsulotlardan olinadi. Ularning asosli va kislotali xillari bo'ladi. Bo'larga yong'oq beisi va qizil rang beyslar misol bo'la oladi.

Bo'yadaligan yog'och sirtini yoppa tipiqmas pardan qoplab berkituvchi bo'yovchi moddalar pigmentlar deb ataladi. Pigmentlar bo'yoq, moddalaridan suvda va boshqa erituvchilarda eritmasligi bilan farq qiladi. Bu xildagi pigmentlarga: belila, oxra, suvik, sinkalar kiradi. Ular maydalangan talqon bolida bo'lib, biron-bir bog'lovchi modda (moy, lok, yelim) bilan aralashtirilgan holda ishlatiladi.

Pigmentlar rang belgisiga qarab klasslarga bo'linadi.




41-rasm. Bo'yoq cho'tkalari. a-yumaloq, b-fle's, v-raxlestka, g-filenkasimon, d-trafaretlar uchun, e-taroasimon. i-aircqimlar uchun

Pigmentlar oq, qora, kul rang, qizil, sariq, yashil, ko'k va jigar rang bo'ladi.

Bo'yash cho'tka yordamida suvtish va purkash yo'li bilan bajariladi. Sirtning katta-kichikligiga qarab har xil cho'tkalar ishlataladi (41- rasm). Cho'tka yordamida buyashda imkonli boricha cho'tkani yog'och tolalari yo'nalishi bo'yicha ortiqcha bosmasdan, bir tekis yurgiziladi. Aks xolda bo'yoq qatlaming notekis chiqib chatnab, yorilib ketishiga va buyum rangining bnr xil chiqmasligiga sabab bo'ladi. Buning oldini olish va bo'yoq qatlaming tekis, sifatli chiqishini ta'minlash uchun yangi yog'och buyumlar kamida 2—3 -marta bo'yaladi. Xar bir qayta bo'yashda oldingi qatlarning qurishiga imkon berish keraq Moyli bo'yoqlar kamida 24 soat ichida quriydi. Moyli bo'yoqlarning qurishini tezlatish maqsadida oz miqdorda (2,5—5%) aseton qo'shiladi.

Sirli bo'yoqlarning moyli bo'yoqlardan farqi shundaki, u bo'yoqlardan farqi shundaki, u 30—40 minut ichida quriydi, ishni tezlatish imkonini beradi. Sirli bo'yoqlar imkonli boricha, gruntovkalangan sirtlarga suvtildi. Suvtish mumkin qadar tez olib boriladi. Sirli bo'yoqlarni purkagich yordamida ham purkash mumkin.

Loklar tiniq pardozlashda ishlatalib yog'ochning tabiiy gulini o'zgartmagan holda yoki uni boshqacha tusga kiritgan holda sirtda yupqa, qattiq parda qatlami hosil qilib uning jilolanishini, namga, temperaturaning o'zgarishiga, yorug'lik ta'siriga va boshqa ta'sirlarga chidamliligini orttiradi. Loklar asosan tabiiy guli chirolyi bo'lgan yog'och sirtlariga suvtildi.



42-rasm.Cho'tka va tampon bilan loklash.

boshqalarning tarkibida bo'lib, ularni Bu xil smolalardan sun'iy lok-bo'yoq tayyorlashda foydalaniladi.

Loklash cho'tka va tampon (42-rasm) yordamida olib boriladi. Tampon toza doka yoki suvpga o'ralgan oppoq paxta yoki kigizdan iborat bo'ladi. Mato kir bo'lsa, loklash natijasida sirtda dog' hosil bo'ladi.

Poklash vaqtida, sirtning katta-kichikligiga qarab, lok tamponga tomiziladi yoki tampon lokka botirib olinadi. Tamga ortiqcha lok shimitilmasligi keraq Ortiqcha lok tamponni suvtish vaqtida oqib ketib sirtni dog' qilib qo'yadi. Birinchi qatlam lok suvtishda tamponni yog'och tolalari yo'nalishi bo'yicha yurgiziladi. Ikkinci, uchinchi qayta suvtishda tamponni aylanma shaklda yurgiziladi (92-rasm). Tamponni yurgizish vaqtida sirtda to'xtab qolishiga yo'l qo'yilmaydi. Tampon sirtda to'xtab qolsa, hosil bo'lgan parda qatlamenti shilib chiqadi. Bu o'z navbatida sirtda dog' hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun tamponni yurgizishda to'xtatmasdan sirtdan chiqarib yuboriladi.

Tamponni yurgizish vaqtida sirtda kir hosil bo'lib qolsa, har gal tamponga lok shimitilgandan so'ng uning betiga bir-ikki tomchi kerosin tomizib olinadi. Kerosin sirdagi kirni yuvishga yordam beradi.

Agar tamponning sirtda yurishi og'irlashib, mato titilib qolsa, u holda tamponning betiga 2—3 tomchi zig'ir yoki paxta moyi tomizib olinadi.

Spirli va moyli loklar 2—3 qayta suvtildi. Har bir qayta suvtishda, spirli loklarda 40—50 minutdan, moyli loklarda esa 6—8 soat davomida quritib olinadi. Nitroloklar 4—5 qayta suvtildi. Har bir suvtish 30—40 minutdan so'ng takrorlanadi. Har safar navbatdagi lok qatlami suvtishda oldingi qatlamenti mayin jilvir yordamida oxista jilvirlab olinadi.

Loklash vaqtida tamponning qurib qolishiga yo'l qo'yishdi. Buning uchun har safar ish oxirida

Loklar erituvchining turiga qarab spirtli, moyli va nityuloklarga bo'linadi. Lok tashqi ko'rinishidan loyqa, och jigar rangdan qora jigar ranggacha bo'lgan suyuqlikdir.

Loklarni asosini smolalar tashkil etadi. Ular sirtlarga suvtigandan so'ng uning tarkibidagi zrituvchi uchib bug'lanib) ketadi va smola yupqa, qattiq parda qatlami hosil qiladi.

Smolalar tabiiy hamda sun'iy bo'ladi. Tabiiy smolalar kanifol, shellak, dammara, sandarak va boshqalar igna bargni daraxtlarda, qayin daraxti po'stlog'ida va pista daraxtining tarkibida bo'lib, ularni daraxtni kesish, kertish va parmalab naycha qo'yib oqizib olinadi. Sun'iy smola tabiiy qazilmalar: toshko'mir, neft, slanes, torf va qayta ishslash yo'li bilan olinadi.

tamponni spirt yoki boshqa erituvchilarda yuvib olinadi yoki yangi tampon tayyorshadi. Nitrolaklarni purkagich yordamida ham purkaladi. Oqlashning eng qulay va oson usuli loklanuvchi detalni lokka botirib olishdir. Bu usulda sirt bir tekis loklanadi.

Pardozdashning eng so'nggi usuli politurlashdir. Bunda yog'och sirtiga politur suvtildi. Politur asosan smolaning 3% li kuchli vino spirtidagi yoki 89% li etil spirtidagi eritmasidir. Politur tarkibida 7 dan 12% gacha smola bo'ladi. Politur tarkibidagi smola miqdori oz bo'lgan uchun sirtda hosil bo'ladigan parda qatlami juda yupqa, tiniq, lokka nisbatan yaxshi jilolanadigan bo'ladi. Politurlangan sirtning tiniqligidan uning tabiiy guli aniq bilinib turadi.

Ayrim tabiiy guli bilinmaydigan yoki chiroyli bo'limgan yogochlarni imitasiya qilish yo'li (qimmatbaho yog'ochlarning guliga o'hshatib bo'yash) bilan pardozlanadi. Bu usulda yog'och sirti o'simlik va daraxt po'stloqlaridan olinadigan ayrim rangli bo'yoqlap bilan bo'yaladi. Bu xildagi bo'yoqlarni sanoatda qo'ng'ir ko'mir, torf va boshqa qazilmalarni qayta ishlash yo'li bilan ham olinadi.

Imitasiya qilish bosish yo'li bilan ham bajariladi. Bosish yo'li bilan imitasiya qilishda yog'och sirtiga guli tushiriladigan yog'ochning rangidagi gruntovka beriladi va nusxadan ko'chirilgan gul gruntovka qilingan sirtga bosma valik yordami bilan tushiriladi.

Sun'iy yo'l bilan yog'ochlarga gul solishda yog'och sirti tezob (yongoq morilkasi) va bir necha xil bo'yoqlarning aralashmasidan hosil qilinadigan beyslar bilan bo'yaladi. Yog'ochni qaysi tusga kiritilmoqchi bo'linsa, Shunga mos rangdagi tezob yoki beys bilan bo'yab, quritib, jilvirlangandan so'ng lok yoki politur suvtildi. Politur suvtish ham huddi lok suvtishga o'hshash tampon yoki cho'tka bilan bajariladi.

Politurning tarkibida erituvchining miqdori ko'p bo'lganligi uchun u tez quriydi. Shuning uchun politurlashni tez bajarish talab etiladi. Politurlash vaqtida politurning sirtga tomib qolishi va tamponning sirtda to'xtab qolishiga mutlaqo yo'l qo'yilmaydi. Tomgan politur sirtni qoraytirib qo'yadi.

23-mavzu Dastgohni tuzilishi, konstruktiv elementlari, asosiy va yordamchi qismlari.

Ishdan maqsad: stanina, support, shpindel, stollar, qirqish, uzatish va yordamchi mexanizmlar, gidravlik va pnevmatik yuritmalar. Yog'ochlarga ishlov beruvchi dastgohlarning konstruktiv va texnologik alomatlariga ko'ra tasnifi, qirqish, uzatish va yordamchi mexanizmlar, gidravlik va pnevmatik yuritmalar. Dastgoh qismi vazifalari va ishlash sharoiti.

Kerakli jihozlar: Yog'ochga mexanik ishlov beruvchi asboblardan randa, arra, elektr charx dastgohi, bolg'a, iskana, jilvir qog'oz va boshqalar.

Yog'ochga ishlov berish stanoklarining konstruktsiyasi ularning bajaradigan ishiga bog'liq. Ba'zi stanoklar yog'ochni arralash uchun, yana biri - randalash uchun, boshqalari-parmalab, teshish va hokazolar uchun ishlatiladi. Biroq stanoklar tuzilishi jihatdan bir-biridai farq qilgani bilan ularning konstruktiv elementlari bir xil vazifani bajaradi: staninalar, stollar yoki karetkalar detallar uchun baza bo'lib xizmat qiladi, uzellari esa kesish asbobini mahkamlash va ish vaqtida asbob yoki zagotovkaga harakat uzatish uchun xizmat qiladi. Stanoklariing konstruktsiyasini o'zgartirish ularning elementlari konstruktsiyasining printsipial o'zgarishiga hamma vaqt ham sabab bo'lavermaydi. Shunga ko'ra stanoklarning qismlarini bilish yangi konstruktsiyadagi stanoklar va avtomatik liniyalarni tez o'zlashtirishga imkon beradi.

Stanoklarning elementlari asosiy va yordamchi elementlarga ajratiladi. Asosiy elementlar jumlasiga staninalar, supportlar, ish organlari, surish mexanizmlari, yuritmalar, boshqarish organlari, tayanch va yo'naltiruvchi qurilmalar, qisqichlar, siqish moslamalari va tiraklar kiradi. Kesish asbobini charxlash, stanokni sozlash, rostlash va moylash, chiqindidan xalos qilish uchun mo'ljallangan qurilmalar yordamchi elementlar bo'lib hisoblanadi. Ko'pgina stanoklar stanok yoniga o'rnatiladigan mexanizmlar - zagotovka bilai ta'minlab turuvchi va taxlash qurilmalari bilan jihozlanadi biroq aytib o'tilgan elementlar kompleksi bilan hamma stanoklar ham jihozlanavermaydi.

Stanina stanokning asosi bo'lib, barcha uzellar va detallar staninaga mahkamlanadi. Stanina stanokning ayrim elementlari o'rtasida ta'sir kuchlarini, titrama nagruzkalarni hamda ishlov berilayotgan material nagruzkasini qabul qiladi.

Staninalar quyib va payvandlab tayyorlangan bo'lishi mumkin. Ularni ichini kavak qilib, kesimi, odatda, qutisimon, shu bilan birga, zarur bo'lgan turg'unlikni ta'minlab tayyorlanadi. Staninalarning shakli va o'lchamlarn stanokning vazifasiga hamda konstruktsiyasiga bog'liq.

Kesish asboblari aylanadigan stanoklarning ish organlari shpindellari, pichoqlar va arralar o'rnatiladigan vallari ana shu asboblarni mahkamlash va aylantirish uchun hizmat qiladi. Kesish asbobi ilgarilama harakat qiladigan stanoklarda ish organlari yo'nesish asbobini mahkamlash uchun, yoki uni mahkamlash va unga to'g'ri chiziqli kesish harakatini uzatish, yo'nesish asbobi ilgarilama harakat qiladigan stanoklarda ish organlari - shkivlari aylanadi, kesish asbobi, ya'ni g'o'labur arrasi yoki jilvirlash tasmasi zagotovkaga nisbatan ilgarilama harakat qiladi.

24-mavzu Yog'och materiallariga yumaloq arrali dastgohlarda ishlov berish texnologiyasi.

Ishdan maqsad: Yog'ochlarga ishlov beruvchi yumaloq arrali dastgohlar turlari. Ularning kinematik sxemasi, vazifasi va tuzilishi. Yog'och materiallariga ishlov beruvchi o'quv ustaxonasi jihozlari. Asbob-uskunalar bilan tanishish va ish joyini tashkil qilish.

Kerakli jihozlar: Yog'ochga mexanik ishlov beruvchi asboblardan randa, arra, elektr charx dastgohi, bolg'a, iskana, jilvir qog'oz va boshqalar.


Disk arrali universal TS6-2 stanogi

Konstruktsiyasi. Disk arrali universal Ts6-2 stanogi (26-rasm) taxta, brusok va shchitlarni bo'yamasiga va ko'ndalangiga arralash uchun mo'ljallangan. Stanokning stanimasi qutisimon qilib quyib yasalgan. Stanina ichidagi o'zaro bog'langan va stanimaga sharnirli mahkamlangan ikkita plita 7 ga podshipniklarda arralar vali 1 va elektr dvigatel 8 o'rnatilgan. Elektr dvigatel bilan arralar vali ponasimon tasmalardan iborat uzatma yordamida o'zaro kinematik bog'langan.

Arralar vali hamda elektr dvigatelinig vertikal sirtidagi vaziyatini maxovikcha 6 bilan o'zgartirish mumkin; maxovikcha yuqori plitaga mahkamlangan gaykali vint bilan bog'liq. Plitalarni o'zaro bog'lovchi shtanganing uzunligini o'zgartirish yo'li bilan tasmalarning tarangligini rostlash mumkin. Stol 2 ning arra uchun mo'ljallangan darchasi va tirak uchburchaklik 3 siljiyidigan ko'ndalang paz bor. Io'naltiruvchi lnneyka 5 va disk arraning to'sig'i 4 stolga mahkamlapgan.

Ish rejimini tanlash. Ixtisoslashtirilgan disk arrali stanoklar uchun ish rejimi qanday tanlansa, bu stanok uchun ham xuddi shunday tanlanadi.

Taxta va zagotovkalarni bo'yamasiga yoki tolalar yo'nalishiga nisbatan 30° gacha burchak ostida arralash uchun ish rejimi bo'yamasiga arralash vaqtidagi kabi, boshqa hollarda esa ko'ndalangiga arralash vaqtidagi kabi tanlanadi.



26- rasm. Disk arrali universal TS6- 2 stanogi:

a — umumiyo ko'rinishi, b — kinematik sxemasini; 1 — arralar vali, 2 — stol, 3 — suriladigan tirak uchburchaklik, 4 — to'siq, 5 — yo'naltiruvchi lineyka, 5 — arrani balandlik bo'yicha rostlash maxovikchasi,
7 — plita, a — elektr dvigatel


TS6-2 stanogining texnik xarakteristikasi

Zagotovkalarning eng katta o'lchamlari, mm:

qalinligi	130
eni	400
Arraning eng katta diametri, mm	500
Arraning aylanish chastotasi, ayl/min.....	3000
Elektr dvigatelning quvvati, k-Vt	4
Gabarit o'lchamlari, mm:	
uzunligh	1310
eni	890
balandligi	1250
Massasi, kg	700

Stanokni sozlash. TS6-2 stanogidan materialni bo'yamasiga arralash uchun foydalanilganda disk arrani shunday o'rnatish kerakki, u stol tepasidan materialning qalinligi plus 10...15 mm balandda bo'lsin.

Stanok zagotovkaning eniga quyidagicha moslanadi: yo'naltiruvchi lineyka disk arraga aniq parallel qilib, undan zagotovkaning eni plus 0,5 mm (yassi arra ishlatilganda) masofada o'rnatiladi. Materialdan bir-ikki zagotovka kesib olingach, zagotovkalarning ustki va ostki sirtlarining kengligi (toretsdan 30 ... 40 mm masofada) to'rt joyidan tekshiriladi. Agar tekshirib ko'rilgan o'lchamlar berilgan o'lchamdan ko'zda tutilgan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgai kattalikka farq qilsa, stanok to'g'ri sozlangan hisoblanadi. Agar zagotovkaning ustki va ostki sirtlarining kengligi turlichcha bo'lsa, qirqib olinadigan zagotovkaning ikki enidan kengroq taxta tanlanadi. Keyinchalik yon baza sifatida foydalanish uchun taxta bir marta arralangandan keyin ag'darib qo'yiladi, shunda uning ostki sirti ustki tomonda bo'ladi (27-rasm, a,b). Ikkinci marta arralagandan keyin zagotovkaning ostki va ustki sirtlarining kengligi yana tekshiriladi; agar ikkala sirtning kengliklari bir-biriga mos bo'lsa, nuqson kelib chiqishiga stanokning yaxshi sozlanmaganligi emas, balki baza yon qirraning ostki va ustki sirtlarga yoki arra sirtining stol 4 sirtiga perpendikulyar emasligi sabab bo'ladi. Zagotovkaning ostki va ustki sirtlari kengligining bir-biridan farq qilishi arralar valining qiyshiqligidan dalolat beradi. Bu holda arralar valini stolga nisbatan parallel o'rnatish kerak, bu ish bilan sozlovchi-chilangar shug'ullanadi.




27-rasm. Arraning stolga va lineykaga nisbatan turish vaziyati:

a, b — arralar vali stol sirtiga parallel bo'limganda, v, g — lineyka disk
arra tekisligiga parallel bo'limganda, I, II — zagotovkaning ustki va ostki qatlami; 1 — disk
arra, 2 — zagotovka, 3 — yo'naltiruvchi lineyka,
4 — stol

Agar yo'naltiruvchi lineyka 3 arra tekisligiga parallel bo'lmasa, zagotovka 2 yo'naltiruvchi lineyka 3 dan chetga og'adi. (27-rasm, v) yoki arra diskni bilan lineyka orasida siqilib qoladi (27-rasm, g). Bu hollarning ikkalasida ham arralangan sirtning g'adir-budurligi oshib ketadi, arra qiziydi, zagotovkaning qirralari o'zaro parallel bo'lmaydi. Bu nuqsonni bartaraf qilish uchun yo'naltiruvchi lineykanini mahkamlab turgan vintlarni burab bo'shatib, lineykanini arra diskiga nisbatan parallel o'rnatish, keyin vintlarni yana burab mahkamlash zarur.

Stanokda ishlash. Torets sirtga ishlov berganda stanokchi arralanadigan materialni tirak uchburchaklikka jips tekkizib turgan holda, yo'naltiruvchi lineyka taqalguncha suradi (bunda material bilan birga uchburchaklik ham suriladi) va materialdan zagotovka kesib olinadi. Kesilgan zagotovka bunkerga tashlanadi, arralanayotgan material esa tirak uchburchaklik bilan birga dastlabki holatga qaytadi.



28- rasm. Qistirma qo'yib bo'yamasiga arralash sxemasi:

1 - taxta, 2- arra, 3- qistirma , 4- yo'naltiruvchn lineyka (disk arraning to'sig'i va zagotovkaning stanokdan otilib chiqishiga yo'l qo'ymaydigan moslama ko'rsatilmagan)


Bo'yamasiga arralashda stanok bir marta sozlangancha eni turlicha bo'lgan zagotovkalar kesib olinadi. Bunda yo'naltiruvchi lineyka 4 (28-rasm), enli qistirmalar 3 dan foydalanib, enliroq zagotovkaning eniga moslab o'rnatiladi. Taxta 1 dan kengligi har xil zagotovkalar kesib olishda bir yo'la bitta yoki ikkita qistirmadan foydalanish tavsiya etiladi.

Ish jarayonida brakka yo'l qo'ymaslik uchun, kesib olinayotgan zagotovkalarning qo'yilgan talablarga mosligini vaqt-vaqt bilan tekshirish kerak.

Zagotovka dastaki suriladigap Ts-6 stanogida ishlaganda pona-pichoq, to'siqlar va zagotovkalarning stanokdan chiqib ketishiga yo'l qo'ymaydigan tirak (tirnoq) lar stanokka o'rnatilgan bo'lishi shart. Pona-pichoqning qalinligi arra tishlarining ochilish kengligidan 0,5 mm ortiqroq bo'lishi, pichoqning arra tishlaridan uzoqligi esa 10 mm dan oshmasligi lozim. Pona-pichoq disk arra sirtida siljitaladi va arra tishlariga dasta yoki maxovikcha yordamida yaqinlashtiriladi yoki ulardan uzoqlashtiriladi. Tiraklar arraning har ikki tomoniga o'rnatiladi. Qisqa zagotovkalar 1 ni qiyasiga arralaganda (28-rasm) maxsus moslama 2 dan foydalaniladi.

Arraning ustki qismini to'sib turuvchi to'siqlar avtomatik ravishda pastga tushib, arraning yog'ochga kirib turgan tishlarinigina ochiq qoldirishi lozim.

Arra diskni arralanayotgan joyning oxiriga etay deganda zagotovkani qo'lida surish qat'iy taqiqlanadi; bunday vaqtda zagotovkani navbatdagi zagotovka bilan yoki maxsus yog'och yordamida surish kerak. Arra ishlab turganda uni qo'lida yoki bir parcha yog'och bilan to'xtatish, to'sig'ini ko'tarish yoki olib qo'yish, stanokni yoki arra kirib turadigan tirkishni tozalash ham taqiqlanadi.



29- rasm. Qisqa zagotovkalarni qiyasiga arralash sxemasi:
1- zagotovka, 2- maxsus moslama.

Diskli stanokning ish organalri va surish mexanizmlari. Arra vali.

Arra vali disk arrali va agregat stanoklarning ish organi hisoblanadi. Arra vali (30-rasm, a) korpuslar 2 ga o'rnatilgan ikkita sharikli podshipnik 3 da aylanadi, val stanokning tayanch qismiga (masalan, stanimaga) shu korpuslar yordamida o'rnatiladi.


Valning bir uchiga shkiv 1 mahkamlangan; elektr dvigatelning aylanish harakati shu shkivga kiygizilgan tasma orqali valga uzatiladi. Valning ikkinchi uchiga disk arra 5 maxsus shaybalar 6 va 4 orasiga olinib, gayka 7 yordamida siqib qo'yilgan.

Shayba 4 valga, odatda, prizmatik shponka yordamida qo'zg'almas qilib, shayba 6 esa sirpanadigan qilib o'rnatiladi.

Shayba bilan disk arrani siqib turuvchi gayka 7 disk arraning aylanish tomoniga teskari yo'nalishda burab mahkamlanishi lozim, shunda u ish jarayonida buralib bo'shamaydts. Shu boisdan arra valining uchidagi rezbasi valning qaysi tomonga aylanishiga qarab o'ng rezba yoki chap rezba bo'lishi mumkin.

Disk arrali stanoklarning ba'zi (muvozanatlovchi va tortsaviy mayatnikli) konstruktsiyalarida arra vali sharikli podshipniklarining har ikkala korpusi yaxlit quyilgan bo'ladi va stanimaga sharnirli mahkamlanadi yoki qo'zg'almas o'qda buriladigan yaxlit ramkadan iborat bo'ladi.


TsDK-5 va TsMR-2 tipidagi ko'p arrali stanoklarda taxtalar yoki zagotovkalar bir o'tishda bir necha qismga kesiladi. Arra vali 10 (30-rasm, b) quyma korpus 13 ga mahkamlangan podshipniklarda o'rnatiladi; korpusning toretslari flanetslar 12 va 15 bilan berkitilgan. Valning bir uchiga uni tasmali uzatma orqali elektr dvigatelga ulaydigan shkiv 16 o'tqazilgan. Shponka 17



30-rasm. Bir arrali (a) va ko'p arrali (b) stanoklardagi arralar valining yig'ilgan holati:

1,16 - shkivlar, 2, 13- korpuslar, 3 - sharikli podshipnik 4, 6 - shaybalar, 5 -disk arra, 7 - gayka, 8 - vtulka, 9 — shpilka , 10 — arralar vali, 11 — oraliq halqa, 12, 15 — flanetslar, 14, 18 - chiqiqlar 17

shponka.



31-rasm. Elektr dvigatellarni stanoklarga support yordamida mahkamlash:

a — chervyakli uzatma bilan, b — shesternya-reykali mexanizm bilan; 1-stanina, 2 — elektr dvigateli balandlik bo'yicha rostlaydigan mexanizm maxovikchasi, 3 — arra, 4 — elektr dvigatel, 5 —arrani qiya o'rnatish maxovikchasi, v - elektr dvigatel qo'zg'aluvchan mexanizmining maxovikchasi, 7-supportning qo'zgaluvchan qismi, 8 — vint, 9 — sozlash vaqtida support suriladigan yo'naltirgichlar, 10-shesternya-reykali mexanizm, 11-maxovikcha

hamda boltli tortsaviy shayba shkiv 16 ni valda qo'zg'atmay qo'yadi. Valning ikkinchi uchiga arralar 5 o'rnatilib, shayba 6 va gayka 7 bilan mahkamlanadi. Arralar valga bevosita mahkamlanishi bilan birga, maxsus opravka-vtulka 8 ga ham biriktirilgan bo'ladi; vtulka sirpanuvchan shponkada val bo'yicha suriladi. Shpilka 9 li halqlar 11 arralar oralig'ining o'zgarishiga yo'l qo'ymaydi. Chiqiqlar 18 valni stadinaga sharnirli mahkamlash uchun, chiqiq 14 yordamida esa val o'rnatilgan korpusni arraning vaziyatini balandligi bo'yicha o'zgartirib buriladi.


Disk arrali va agregat stanoklarining ko'pchiligidagi elektr dvigatel vali ayni vaqtida arra vali vazifasini ham bajaradi. Bu esa tayanchlarni qisqartirish va tasmali uzatmani yo'qotish hisobiga stanoklarning konstruktsiyasini soddalashtirish imkonini beradi. 23-rasmda elektr dvigatellarni biriktirishga ikki misol keltirilgan. Stanoklarning ba'zi konstruktsiyalarida (31-rasm, a) stanina 1 ga arra 3 ni zagotovkaga nisbatan muayyan burchak ostida o'rnatish mumkin. Buning uchun stanok konstruktsiyasiga maxovikchasi 5 bo'lgan chervyakli uzatma kiritilgan, bu uzatmaning g'ildiragi elektr dvigatel 4 mahkamlangan plita bilan bog'langan. Elektr dvigatel gorizontal tekislikda maxovikcha 6 li vint yordamida 100 mm chegara siljitaladi. Agar siljish 100 mm dan ortsa, konstruktsnyaga vint o'rniga maxovikchasi 11 bo'lgan shesternya-reykali mexanizm 10 kiritiladi (31-rasm, b). Uzunchoq shakldagi (statorning diametrini qisqartirish uchun) elektr dvigatel supporting harakatlanadigan elementi 7 ga mahkamlanadi, bu element yo'naltiruvchi 9 bo'yicha suriladi. Elektr dvigateli vertikal tekislikda surish uchun maxovikcha 2 li vintdan foydalaniladi.

Pichoqlar vali

Yog'ochga uzunasiga frezalash usulida ishlov beradigan stanoklarda, chunonchi: randalash stanogi, reysmusli stanok, to'rt tomonlama bo'yamasiga frezalash-randalash stanogida pichoqlar vali ishlataladi.

Pichoqlar vali 2 po'latdan yasaladi (32-rasm, a). Valning konstruktsiyasi unga pichoqlar 5 ni o'rnatish va ularni aylanma harakatlaitirish nmkonini beradi. Valda pichoqlar joylashadigan pazlar va ularni mahkamlaydigan qurilmalar bo'ladi. Valning chekka uchlarida bo'yinlar bor, val shu bo'yinlarga podshipniklar 3 da o'rnatiladi. Valning bir uchiga mahkamlangan shkiv 1 valga aylanma harakat uzatadi. Ba'zan shkiv o'rnida yarim mufta bo'ladi; yarim mufta pichoqlar valini elektr dvigatel valiga bevosita ulaydi. Bunda elektr dvigatel valining o'qi bilan pichoqlar valining o'qi o'qdosh bo'lishi lozim.

SR6-8 tipidagi reysmusli stanoklarda pichoqlar vali (32-rasm, b) o'roqsimon yassi pichoqlar o'rnatiladi; bu pichoqlarning tig'i valning tsilindrik sirtida vint chiziqlari bo'ylab joylashgan. O'roqsimon pichoqlarning tig'lari yo'niladigan yog'ochga deyarli hamma vaqt juda kam tegib turganligidan, bunday pichoqlar vali boshqa vallardan ravon ishlashi bilan ajralib turadi. Bunday pichoqlar bilan ishlov berilgan sirtlarda g'adir-budurlar kam bo'ladi.




32-rasm. Pichoqlar vali:

a- pichoqlar to'g'ri chiziqli yo'nalishda joylashgan 6- pichoqlar vint chiziq bo'yicha joylashgan; 1-

shkiv, 2- val, 3- podshipnik, 4-pichoq

Pichoqlar vali bir minutda 6000 marta va bundan ko'p aylanadi, shunga ko'ra val hamda pichoqlar shunday muvozanatlanadiki, valning qarama-qarshi tomonlariga o'rnatilgan ikki pichoqning og'irlilik markazlari aylanish o'qidan baravar masofada joylashgan bo'ladi. Aks holda muvozanati buzilgan markazdan qochuvchi kuchlar paydo bulib, kuchli vibratsiya paydo bo'ladi, bu esa ish sifatining pasayishiga hamda stanok elementlarining sinishiga sabab bo'ladi.

Pichoqlar vali bir, ikki va bundan ko'p pichoqlar juftini o'rnatishga mo'ljallangan. Pichoqlarni o'rnatish usullari 32-rasmida ko'rsatilgan. Pichoqlar 3 valdag'i pazlarga o'rnatilgan. Har bir pichoq pazning devori bilan ponasimon vkladish 4 orasiga boltlar 5 bilan siqib qo'yilgan; boltlar vkladishlardan buralib chiqqanda kallaklari bilan pazning qarama-qarshi



33-rasm. Pichoqlarni vintlar (a) va prujinalar (b) yordamida surish usullari.


1-tirak planka, 2-vint, 3- pichoq, 4- ponasimon vkladish, 5-prujina.

tomondagi pichoqqa taqaladi. Pichoqni bir tekisda siqib quyish uchun valning uzunligi bo'yicha bir necha bolt bilan siqib qo'yish ko'zda tutilgan.

O'tmaslashgan pichoqni almashtirish uchun hamma boltlar bo'shatilib pichoq olinadi va o'rniga o'tkir pichoq qo'yiladi, so'ngra valning o'rtasidagi boltdan boshlab barcha boltlar bir necha priyomda buralib, pichoq qattiq siqib qo'yiladi. Pichoq tig'ining vaziyatini o'zgartirish uchun, pichoqni valga o'rnatishda yo tirak planka 1 li vintlar 2 (33-rasm, a), yoki prujipalar 6 (33-rasm, b) ishlatiladi.

Disk arralar

Disk arrali stanoklarda diametri 800 mm gacha va qalinligi 2,5 mm gacha bo'lgan disk arralar ishlatiladi. Format stanoklarga arralardan tashqari, frezalar ham o'rnatiladi. Disk arralar profiliga ko'ra butun qirqimi bo'yicha qalinligi bir xil bo'lgan (34-rasm, b) yassi diskdan iborat (34-rasm, a) va chetlari qalinroq, o'rtasi yupqaroq disk ko'rinishida (34-rasm, v) bo'ladi.



34-rasm. Disk arralar.

a-umumiyo ko'rinishi; b-yassi arraning profili, v-randalash arrasining profili, g-qattiq qotishmadan iborat plastinkali tish.

Chetlari qalinqroq arralar randalaydigan arra deb ataladi. Yog'och-qirindi plitalar, fanerlar, qoplamali shchitlardan zagotovkalar qirqish, ba'zan g'o'la yog'ochlarni arralash uchun ham tishlariga qattiq qotishma plastinkalar kavsharlangan disk arralar (34-rasm, g) ishlataladi. Bunday arralarning tishlari legirlangan po'latdan qilingan arra tishlariga nisbatan 30...40 marta chidamliroq. Tishlariga qattiq qotishma plastinkalar qoplangan arralarni qayta charxlaganda arraning diametri juda kam kichrayadi. Qattiq qotishma plastinkali disk arra bilan arralashdan hosil bo'lgan tirkish oddiy arradan hosil bo'lgan izdan enliroq bo'ladi, lekin buning (xususan taxta fanerlarni bichishda) ahamiyati yo'q, bundan tashqari, qattiq qotishma plastinkali arralar ishga tayyorlanganda (plastinkalarni kavsharlab yopishtirgandan keyin ularning yon qirralari jilvirlanganda) arralangan sirt sifati yuqori bo'ladi, bu esa qipiqla chiqib isrof bo'lgan yog'och o'rnini qoplaydi.

Disk arra tishlarining uchlari bo'y lab o'tgan aylana diametriga disk arraning tashqi diametri D deyiladi. Har bir disk arraning markazida valga kiygiziladigan teshik bo'ladi. Teshikning diametri disk arraning ichki diametri d deb ataladi, u arra valining diametriga mos bo'lishi kerak. Arra vali bilan teshik orasidagi zazor 0,1 mm dan katta bo'lmasligi lozim.

25-mavzu Dastgohlarda bajariladigan ish turlari va dastgohdan foydalanish qoidalari.

Ishdan maqsad: Yog'ochlarga ishlov beruvchi dastgohlarga texnik qarov qoidalari. Ustaxonada, ichki havfsizlik texnologiyasi, yong'in havfsizligi va shaxsiy gigiena qoidalari.

Kerakli jihozlar: Yog'ochga mexanik ishlov beruvchi asboblardan randa, arra, elektr charx dastgohi, bolg'a, iskana, jilvir qog'oz va boshqalar.

Yog'ochga ishlov berish yarim avtomat va avtomat stanoklari hamda stanok liniyalarini boshqarish uchun elektr apparatlardan ko'pincha elektr, gidravlik va pnevmoatik apparatlardan tashkil topgan sistemalar ishlataladi. Boshqarish sistemalari quyidagilarni ta'minlaydi:

-to'siqlar olib qo'yilgan, blokirovkalar buzilgan, pnevmotarmoqda havo bosimi bo'limgan yoki kam bo'lgan vaqtarda yuritmalarini ishga tushirishga yo'l qo'ymaydi;

-yuritmalarini qat'iy izchillik bilan (masalan, dastlab kesish mexanizmlari yuritmalarini, shundan keyingina surish mexanizmni) yurgizadi;

-elektr yuritmalaridan birontasi to'xtab qolganda stanokni yoki stanok liniyasini to'xtatadi;

-stanokning berilgan ish rejimini o'zgartirmay saqlaydi;

-stanok qismalarining qat'iy izchillik bilan surilishini ta'minlaydi;

-zagotovkalarning bitta-bittalab uzatilishiga imkon tug'diradi;

-yordamchi operasiyalarni p bajarilishi (qisqichlarning ishga tushirilishi, ishdan to'xtatilishi, ishlov berilgan zagotovkalarning stanokdan olib tegishli joyga taxlanishii ta'minlaydi);

-stanokni muayyan programma asosida ishlatadi (programma asosida boshqariladigan stanoklarda).

Arra vali disk arrali va agregat stanoklarning ish organi hisoblanadi. Arra vali (17-rasm, a) korpuslar

2 ga o'rnatilgan ikkita shariqli podshipnik 3 da aylanadi, val stanokning tayanch qismiga (masalan, stanicaga) shu korpuslar yordamida o'rnataladi.

Valning bir uchiga shkiv mahkamlangan; elektr dvigatelning aylanish harakati shu shkivga kiygizilgan tasma orqali valga uzatildai. Valning ikkinchi uchiga disk arra 5 maxsus shaybalar o va 4 orasiga olinnb, gayka 7 yordamida siqib qo'yilgai. Shayba 4 valga, odatda, prizmatik shponka yordamida qo'zg'almas qilib, shayba 6 esa sirpanadigan qilib o'rnataladi.

Shayba bilan disk arrani siqib turuvchi gayka 7 disk arraning aylanish tomoniga teskari yo'nalishda burab mahkamlanishi lozim, shunda u shu prosessda buralib bushamaydi. Shu boisidan arra valining uchidagi rezbasi valning qaysi tomonga aylanishiga qarab o'ng rezba yoki chap rezba bo'lismumkin. Disk arrali stanoklarning ba'zi (muvozanatlovchi va torsaviy mayatnikli) konstruksiyalarda arra vali shariqli podshipniklarning har ikkala korpusi yaxlit quylgan bo'ladi va stanicaga sharnirli mahkamlanadi yoki qo'zg'almas o'qda buriladigan yaxlit ramkadan iborat bo'ladi. SDK-5 va SMR-2 tipidagi ko'p arrali stanoklarda taxtalar yoki 'zagotovkalar bir o'tishda bir necha qismiga kesiladi. Arra vali 10 (17-rasm, b) quyma korpus 13 ga mahkamlangan podshipinklarda urnataladi; korpusning toreslari flaneslar 12 va 15 bilan bekitilgan. Valning bir uchiga uni tasmali uzatma orqali elektr dvigatelga ulaydigan shkiv 16 o'tqazilgan. Shponka 17, hamda boltli torsaviy shayba shkiv 16 ni valda qo'zg'atmay qo'yadi.


Valning ikkinchi uchiga arralar 5 o'rnatilib, shayba-b va gayka 7 bilan mahkamlanadi. Arralar valga bevosita mahkamlanishi bilan birga, maxsus opravka — vtulka 8 ga ham biriktirilgan bo'ladi; vtulka sirpanuvchan shponkada val bo'yicha suriladi. Shpilka 9 li halqlar 11 arralar oralig'ining o'zgarishiga yo'il qo'ymaydi. Chiqiqlar 18 valni stanicaga sharnirli mahkamlash uchun, chiqiq 14 yordamida esa val o'riatnlgi korpusni arraning vaziyatini balandligi bo'yicha o'zgartirib buriladi. Disk arrali va agregats tanoklarning ko'pchiligidagi elektr dvigatel vali ayni vaqtda arra vali vaznfasini ham bajaradi. Bu esa tayanchlarni qisqartirish va tasmali uzatmani yo'qotish hisobiga stanoklarning konstruksiyasini soddalashdirish imkonini beradi.

18-rasmda elektr dvigatellarni biriktirishga ikki misol keltirilgan. Stanoklarning ba'zi konstruksiyalarda (18-rasm, a) stanina 1 ga arra 3 ni zagotovkaga nisbatan muayyan burchak ostida o'rnatish mumkin. Buning uchun stanok konstruksiyasiga maxovikchasi 5 bo'lgan chervyakli uzatma kiritilgan, bu uzatmaning g'ildpragi elektr dvigatel 4 mahkamlangan plita bilan bog'langan. Elektr dvigatel gorizontal tekislikda maxovikcha 6 li vint yordamida 100 mm chegara siljiltiladi. Agar siljish 100 mm dan ortsa, konstruksiya vint o'rniga maxovikchasi bo'lgan shesternya-reykali mexanizm 10 kiritiladi (18-rasm, b).


Yog'ochga uzunasiga frezalash usulida ishlov beradigan stanoklarda, chunonchi: randalash stanogi, reysmusli stanok, to'rt tomonlama bo'yamasiga frezalash-randalash stanogida pichoqlar vali ishlataladi.

Pichoqlar vali 2 po'latdan yasaladi (19-rasm, a). Valning konstruksiysi unga pichoqlar 5 ni o'rnatish va ularni aylanma harakatlantirish imkonini beradi. Valda pichoqlar joylasha-digan pazlar va ularni mahkamlaydigan qurilmalar bo'ladi. Valning chekka uchlardida bo'yinlar bor, val shu bo'yinlarga podshppniklar 3 da o'rnataladi.. Valning bir uchiga mahkamlangan shkiv valga aylanma harakat uzatadi. Ba'zan shkiv o'rnida yarim mufta bo'ladi; yarim mufta pichoqlar valini elektr dvigatel valiga bevosita ulaydi. Bunda elektr dvigatel valining o'qi bilan pichoqlar valining o'qi o'qdosh bo'lisi lozim.

SR6-8 tipidagi reysmusli stanoklarda pichoqlar vali (19-rasm, b) o'roqsimon yassi pichoqlar o'rnataladi; bu pichoqlarning tig'i valning silindrik sirtida vint chiziqlari bo'ylab joylashgan. Uroqsimon pichoqlarning tig'lari yo'niladigan yog'ochga deyarli hamma vaqt juda kam tegib turganligidan, bunday pichoqlar vali boshqa vallardan ravon ishlashi bilan ajralib turadi. Bunday pichoqlar bilan ishlov berilgan sirtlarda g'adir-budurlar kam bo'ladi. Pichoqlar vali bir minutda 6000 marta va bundan ko'p aylanadi, shunga ko'ra val hamda pichoqlar shunday muvozanatlanadiki, valning qarama-qarshi tomonlariga o'rnatilgan ikki pichoqning og'irlilik markazlari aylanish o'qidan baravar masofada joylashgai bo'ladi. Aks holda muvozanati buzilgan markazdan qochuvchi kuchlar paydo bo'lib, kuchli vibrasiya paydo bo'ladi, bu esa ish sifatining pasayishiga hamda stanok elementlarining sinishiga sabab bo'ladi. Pichoqlar vali bir, ikki va bundan ko'p pichoqlar juftini o'rnatishga mo'ljallangan.



20- rasm. Pichoqlarni vintlar (a) va prujinalar (b)
yordamida surish usullari: 1-panka, 2 -vint, 3- pichoq, 4
-ponasimon vkladish, 5 -tirak plan prujina.



21- rasm. Yig'ilgan holdagi shpindel: a-shpindel b -nasadka; 1- podshipnik, 2, 10-shpindellar, 3 -ko'tarish mexanizmining vinti. 4 - gayka, 5 -shesternya 6 - nasadka o'rnatiladigan uya, 7 -maxovikcha 8-fiksator. 9-shkiv, 11 -nasadka, 12-differensial gayka, 13- halqalar, 14-frezani mahkamlash uchun gayka (a -nasadkadagi

Pichoqlarni o'rnatish usullari 120-rasmda ko'rsatilgan. Pichoqlar 3 valdag'i pazlarga o'rnatilgan. Har bir pichoq pazning devori bilan ponasimon vkladish 4 orasiga boltlar 5 bilan siqib qo'yilgan; boltlar vkladishlardan buralib chiqqanda kallakkari bilan pazning qarama-qarshi tomonidagi pichoqqa taqaladi. Pichoqni bir tekisda siqib qo'yish uchun valning uzunligi bo'yicha bir necha bolt bilan siqib qo'yish kuzda tutilgan.

Utmashlashgan pichoqni almashtirish uchun hamma boltlar bo'ylab pichoq olinadi va o'rniga o'tkir pichoq qo'yiladi, so'ngra 1.1 ning o'rtasidagi boltdan boshlab barcha boltlar bnr necha priyomda buralib, pichoq qattiq siqib qo'yiladi. Pichoq tig'inin o'zgartirish uchun, pichoqni valga o'rnatishda yo tirak planka 1 li vintlar 2 (20-rasm, a), yoki prujinalar 6 (20-rasm, b) ishlatiladi.

Shpindellar uzunasiga frezalash, frezalash, turum qirqish, aralash, zanjirli o'yish stanoklari va yog'ochga frezalash yoki silliqlash usulida ishlov berishga mo'ljallangan boshqa xil stanoklarda kesish asbobini o'rnatish va aylantirish uchun ishlatiladi. 21-rasmda frezalash stanogi shpindelinnng (21-rasm, a) konstruksiyasi ko'rsatilgai. Shpindel stanok supporting stakaniga ichiga sharikli podshipniklar bilan mahkamlangan. Shpindelning yo'qori qismida kesish asbobi bo'lgan pasadka uchun konussimon chuqurcha bor.

Shpindelning pastki qismiga shkiv mahkamlangan. Support shpindel bilan birga vertikal, yo'nalishda surib rostlanadi. Staninaga qo'zg'almas qilib mahkamlangan vint shesternyaga bog'liq gayka bilan o'zaro ta'sir etishadi; bu shesternya valdag'i shesternya bilan tishlashadi. Maxovikcha shpindelnn ko'tarish va tushirish uchun ishlatiladi. Kesish asbobi bo'lgan shpindelli pasadka shpindelga ikki rezbali differensial gayka bilan biriktiriladi; gayka rezbalarining yo'nalishi bir ammo qadami har xil. Rezbaning nasadkaga tegib turamagan qismidagi qadami shpindel qismidagi qadamidan kichikroq. Gayka burilganda bir vaqtning o'zida ham opravkaga nisbatan, ham shpindelga nisbatan suriladi. U burilish burchagini qisqartirmagani holda shpindelga nisbatan ko'proq suriladi, natijada nasadka shpindelga qattiq mahkamlanadi.

22- rasm. Murakkab shpindelning sxemasi: 1-parma, 2-shpindelning qo'zg'aluvchan qismi, 3-stakan, 4- shkiv, 5, 7-podshipniklar, v - shpindelning yuqorigi


Nasadkaning o'rta qismida gayka bilan siqib qo'yiladigan 11 olinadigan halqalar bor, ish prosessida nasadkaning bir yoki bir necha halqasi olinib, ular urniga bir yoki bir necha freza qo'yiladi va nasadkada halqalar orqali gayka bilan mahkamlanadi. Shpindelga bir freza yoki uncha baland bo'limgan bir necha freza o'rnatish zarur bo'lsa qisqaroq nasadka tanlanadi.

Ish prosessida shpindelning uzunligini o'zgartirish uchun teleskopik shpindellar ishlataladi. 22-rasmida shunday shpindellardan birining tuzilishi ko'rsatilgan. Bu shpindel ikki qismidan iborat; qismlardan biri ikkinchisi bo'ylab shponkada yoki shlisali birikmada sirpanishi mumkin. Shpindelning shkiv 4 li yo'qori qismi 6 podshipniklar 5 ga, pastki qismi 2 esa stakan 3 ning podshipniklari 7 ga o'rnatilgan. Bu esa shpindelning pastki qismiga parma bilan mahkamlangan. Shpindelning pastki qismini dasta 8 yordamida vertikal tekislikka siljitim mumkin, bunda shpindelning yo'qori qismi 6 tishlashgan holda turadi.

Yog'ochga ishlov berish stanoklarida ko'pincha, elektr dvigatellarning uzaytirilgan vallari shpindel vazifasini o'taydi. Kesish asbobi valga bevosita yoki shpindel nasadkasi yordamida mahkamlanadi. Tok chastotasi 50 Gs bo'lganda elektr dvigatel val-shpindellar minutiga taxminan 3000 marta aylanishi mumkin; biroq mahsulot sifatlari chiqishi va uskuna yo'qori unum bilan ishlashi uchun valshpindellar minutiga taxminan 4500, 6000 marta va bundan ham tezroq aylanadi. Buning uchun stanoklarga tok chastotasini mos ravishda 75, 100 Gs gacha va undan ko'proq oshiradigan o'zgartirgichlar o'rnatiladi.

Jilvirlash stanoklarining ish organlari jilvir qog'oz bilan o'zaro ulangan ikki yoki uch shkiv ko'rinishida yo bo'lmasa sirtiga jilvir qog'oz qoplangan disk yoxud silindr ko'rinishida yasaladi.

Jilvirlash stanogi silindri 4 ning sirtiga vint mexanizm 1 yordamida jilvir qog'oz tortiladi. Movut qistirma 3 silliqlanuvchi zagotovka bilan jilvir qog'oz o'rtasidagi zARBni susaytiradi. Silindr aylanganda o'q yunalishida salgina qaytma-ilgarilama suriladi. Zagotovka sirti silindrning ustki yoki ostki tomoniga tegib (bu stanokning tuzilishiga bog'liq), silindr o'qiga nisbatan perpendikulyar yunalishda ilgarilama harakat qilib jilvirlanadi.



23- rasm. Silindrli (a) v (b) jilvirlash stanoklarining ish organlari: 1-vintli qurilma, 2- qumqog'oz, 3-qistirma , 4- silindr, 5- taranglash shkivi 6-yuritish shkivi, 7 –dazmolcha.


Odatda bir silindrga bir yoki ikki va undan ko'p silindar o'rnatiladi. Ensiz tasmali jilvirlash stanoklarida yuritish shkivi 6 (23-rasm,b) vint mexanizmli taranglash shkivi 5 shkivlar orasidagi masofani uzgartirishga yordam beradi. Dazmolcha 7 jilvir qog'ozni jilvirlanadigan sirtga tegib turishini ta'minlaydi.

Enli tasmali jilvirlash stanoklarida jilvir qog'oz odatda, uchta shkivga tortiladi. Jilvir qog'ozning surpanishini kamaytirish uchun vallar sirtiga rezina qoplanadi.

Surish mexanizmlari Zagotovqaga o'tish bilan ishlov beradigan stanoklarda surish harakati uzlusiz ravishda zagotovkaga uzatiladi. Bu harakat, odatda, doimiy va vaqtiga-vaqtiga bilan bo'ladi. Pozision ishlov berish stanoklarida surish harakati yo zagotovkaga, yoki kesish asbobi mahkamlangan ish organiga, ba'zi hollarda esa bir yo'la ham zagogovkaga ham ish organiga uzatiladi. Bu stanoklarda kesish asbobi yoki zagotovka har surilishdan keyin albatta salt harakatlanadi, shunga ko'ra surish mexanizmi suruvchi qurilmalarga qaytma-ilgarilanma harakatni ko'p hollarda turli tezlikda uzatishi lozim. Zagotovkaga o'tish bilan ishlov beradigan stanoklarda surish mexanizklari bir yoki bir necha juft jo'valar ko'rinishida yoki

juvalar va disklar, jo'valar va gusenisalar, gusenisa zanjirlari va harakatlanmaydigan roliklar, aylanadigan barabanlar hamda stollar ko'rinishida yasaladi. Ko'pincha tirakli (zagotovkani ko'ndalangiga surishda) plastinkasimon zanjirlar ishlatiladi. Surish mexanizmlarini elektr dvigatel yoki gidrodvigatellar harakatlantiradi.

Pozsiyalab ishlov berish stanoklarida surish mexanizmlari sifatida qo'zg'aluvchan stollar, karetkalardan, kesish asbobini zagotovkaga surish uchun esa supportlardan foydalaniladi. Surish qurilmalarini elektr dvigatel, pnevmodvigatel va gidrodvigatel harakatlantiradi



24-rasm.Jo'va-diskli surish mexanizmi: 1- jo'valar, 2,4-disklar, 3- diskning arralangan joyga tushadigan qismi.


uzatish jo'valari ishlatiladi. Ba'zida juvalarning zagotovkalarni zarur kuch bilan bosish uchun mahkamlash mexanizmi barcha detallarining va yo'qorigi jo'valar yuritmasining (disk arrali stanoklarda) massasi tegishlicha tanlanadi hamda pnevmo dvigatellar yoki prujinalar ishlatiladi.

Bo'yamasiga frezalash stanoklarida juvalarning sirti taram taram qilinadi, by esa ularni zagotovka sirti bilan yaxshiroq tishlashishiga imkon beradi. Ko'pincha, taram-taram jo'valar qiyaroq yunalgan bo'ladi; shu tufayli zagotovka oldinga surilishi bilan bir vaqtida stanokning yo'naltiruvchi yon lineykasiga siqiladi. Zagotovkaning baza sirti buzilmasligi uchun pastki juvalarning sirti tekis qilinadi.

Nam va muzlagan zagotovkalarga jo'valar yordamida suriladigan stanoklarda ishlov berish tavsiya etilmaydi.

Disk arrali stanoklarda jo'va diskli surish mexanizmi ishlatindi (24-rasm). Bu mexanizm ikkita jo'va 1 va ular tepasiga joylashtirilgan ikkita disk 2 va 4 dan iborat, zagotovkaning ostki sirti ana shu jo'valarga tayanib turadi. Zagotovka disk 4 ning tagiga suriladi, shunda disk bilan birinchi jo'va zagotovkani siqib arra tomon suradi. Zagotovka arraning ikkinchi tomoniga utgach, disk 2 tagidagi ikkinchi juva ustiga tug'ri keladi.

Gusenisali surish mexanizmi zagotovkani ish organiga nisbatan to'g'ri chiziqli yo'nalishda suradi. Shu sababli bunday stanoklarda zagotovkalarga yo'qori aniqlikda ishlov beriladi. Diskarrali stanokning gusenisali surish mexanizmi (25-rasm) ikki yulduzchaga, ya'ni yetakchi 5 va yetaklanuvchi 4 yulduzchalarga chizilgan gusenisa 3 dan iborat. Roliklar 2 zagotovkani gusenisaga siqib turadi. Gusenisasi cho'kadigan surish mexanizmlari ham ishlatiladi.



25- rasm. Gusenisali surish mexanizmining sxemasi: 1- arra disk, 2- rolik, 3 - gusenisa, 4 - yetaklanuvchi yulduzcha, 5 - yetakchi

Stanoklarning stollariga, odatda, harakatlanadigan yoki harakatlanmaydigan jo'valar o'rnatiladi; harakatlanmaydigan jo'valar stollar sirtidan sal balandroq ko'tarilib turganligidan zagotovkaning stol sirtiga ishqalanishini kamaytiradi.

Reysmusli stanoklarda ustki jo'valar ramaga o'rnatilgan bo'ladi; ularni qo'zg'aluvchan stolga urnatilgan pastki juvalarning vaziyati o'zgartirib sozlanadi. Jo'valarni siljitim mumkinligi va ularning diametrlerini to'g'ri tanlash ularning zagotovkaga nisbatan shataksirashini qisman kamaytirishga imkon beradi. Masalan, to'rt tomonlama bo'yamasiga frezalaydigan quvvatli stanoklarda juvalarning siljishini kamaytirish uchun diamyotri 500 mm gacha bo'lган uzatish jo'valari ishlatiladi.

Ba'zida juvalarning zagotovkalarni zarur kuch bilan bosish uchun mahkamlash mexanizmi barcha detallarining va yo'qorigi jo'valar yuritmasining (disk arrali stanoklarda) massasi tegishlicha tanlanadi hamda pnevmo dvigatellar yoki prujinalar ishlatiladi.

Nam va muzlagan zagotovkalarga jo'valar yordamida suriladigan stanoklarda ishlov berish tavsiya etilmaydi.


Disk arrali stanoklarda jo'va diskli surish mexanizmi ishlatindi (24-rasm). Bu mexanizm ikkita jo'va 1 va ular tepasiga joylashtirilgan ikkita disk 2 va 4 dan iborat, zagotovkaning ostki sirti ana shu jo'valarga tayanib turadi. Zagotovka disk 4 ning tagiga suriladi, shunda disk bilan birinchi jo'va zagotovkani siqib arra tomon suradi. Zagotovka arraning ikkinchi tomoniga utgach, disk 2 tagidagi ikkinchi juva ustiga tug'ri keladi.

Zanjirli mexanizmlar (26-rasm) zagotovka kesish asbobiga tik yo'nalishda suriladigan stanoklarda va zagotovkalar ikki yoki to'rt tomonidan ishlov beriladigan hajmiy format stanoklarda ishlatiladi.


Zanjirli mexanizmlar ikki yoki ko'proq zanjir 1 dan iborat bo'lib, har bir zanjir yetaklanuvchi 2 va yetakchi 3 yulduzchalarga kiygiziladi.

Zanjirning ayrim zvenolari uzaro sharnirli ulangan. Zvenolarning bir qismida cho'kadi-gan tiraklari 4 bo'lganligidan, bunday mexanizm har xil o'lchamdag'i taxtani suradi. Zanjirli surish mexanizmlari ishlov berilayotgan. zagotovkalarni chetga surilishiga to'sqinlik

qiluvchi qurilmalar bilan ta'minlangan.




26-rasm. Zanjirli surish mexanizmining sxemasi: 1 - zanjir, 2,3 -yulduzchalar, 4 -tirak



27-rasm. Avtomatik uzatkichning sxemasi: 1 - elektr Dvigatel, 2- variator, 3- uzatuvchi roliklar.


Zagotovkalarning surilishini mexanizasiyalashtirish maqsadida ba'zan avtomatik surgichlar ishlataladi. Avtomatik surgich (27- rasm) ning elektr dvigateli 1, surish tezligini ravon o'zgartiradigan variatori 2, tishli uzatmalar sistemasi va roliklari 3 bor. Aylanish harakati roliklarga variator va uzatmalar sistemasi orqali elektr dvigateldan uzatiladi. Bu qismlarning hammasi bir korpusta joylashgan, korpus esa stoykaga o'rnatilgan. Suruvchi roliklarning vallari richaglarga mahkamlangan; richaglarning sharnirli biriktiriladigan markazi esa yuritish mexanizmi shesternyalar 4 ning aylanish markaziga mos keladi; bu shesternyalar roliklarning vallariga mahkamlangan shesternyalar bilan tishlashadi. Buning natijasida suruvchi roliklar o'zlarining vaziyatini bir-biridan mustaqil ravishda balandlik bo'yicha o'zgartiradi, bunda zagotovkaning sirti juda notejis bo'lganda ham roliklar unga tegib turadi. Zagotovkalar stanokning stoliga va yo'naltitiruvchi lineykaga roliklar yordamida siqilib, kesish asbobi tomon suriladi.

Zagotovkalarni surish uchun mo'ljallangan karetkalar (28-rasm) frezalash stanogi, bir to-monlama turum kirqish stanogi va zagotovkani ko'ndalangiga kesish uchun mo'ljallangan disk arrali ba'zi stanoklarda bo'ladi. Karetka 4 kesish asbobining aylanish o'qiga nisbatan perpendikulyar qilib stol 2 dan pastroqqa o'rnatilgan yo'naltiruvchi 8 bo'yicha suriladi. Karetka burish kronshteyni 5 ga va yo'naltiruvchi bo'yicha g'ildiraydigan silliq roliklar 7 tayanib turadigan platformadan iborat. Zagotovkalar 3 karetkaga stoyka 6 qisqichlari yordamida mahkamlangach, karetka aylanadigan kesish asbobi tomon qo'lda yoki maxsus (odatda gidravlik) yuritma yordamida



28- rasm. Zagotovkalarini karetka bilan surish sxemasi: 1 - kesish asbobi, 2 - stol, 3- zagotovka, 4 - karetka, 5 - burish kronshteni, 6- stoyka, 7- roliklar, 8 - yunaltiruvchi.


suriladi. Boshqacha tuzilishdagi karetkalar ham bor.



28- rasm. Zagotovkalarni karetka bilan surish sxemasi: 1 - kesish asbobi, 2 - stol, 3- zagotovka, 4 - karetka, 5 - burish kronshteni, 6- stoyka, 7- roliklar, 8 - yunaltirgich.

Pozision ishlov berish stanoklari (tortmaga turum qirqish, ko'p shpindelli parmalash- paz ochish stanok)da zagotovkalarni surish uchun qo'zg'aluvchan stollardan foydalilanadi. Stollar alohida yuritmali (ko'proq gidravlik yuritmali) suriladigan supportlar ustiga o'rnatiladi va gorizontal hamda vertikal yo'nalishda siljitimda mumkin.

29-rasm, a da kronshteyn 3 ga o'rnatilgan vavertikal yo'nalishda siljiyidigan stol ko'rsatilgan. Zagotovkalar 2 stolga quyiladi va toreslari kesish asbobi 1 urnatilgan shpindeldan pastroqda urnatilgan quzg'almas tirak bo'yicha tekislanadi,sungra gidravlik yoki boshqa xil qisqichlar bilan siqib quyiladi. Shundan keyin gidrosilindr 4 ning pastki bo'shlig'i bosim magistraliga, yo'qori bo'shlig'i esa drossel orqali tushirish magistraliga tutashtiriladi. Kronshteyn stol bilan birga ravon ko'tariladi va zagotovkaning toreslariga ishlov beriladi. 29- rasm, b da kronshteynga o'rnatilgan va gorizontal yo'nalishda suriladigan 1 stolning sxemasi ko'rsatilgan. Stol 5 kronshteyndz gorizontal vaziyatda joylashgan gidrosilindr shtokiga ulangan. Qisqich 6 li stoykalar stolga mahkamlangan. Stolning turish balandligi maxovikcha 9, vint 8 va gayka 7 yordamida rostlanadi. Zagotovka stolga joylanib, tirakka siqib qo'yilgach, gidrosilindr 4 ishga solinadi. Shtok o'ngdan chapga harakatlanib kronshteyn bilan stolni ham shu yo'nalishdz siljitudi, shunda zagotovka kesish zebobiga tomon suriladi. Stol tegishlicha sozlanib eng chekka chap holatni egallagach, gidravlik yuritmashi boshqarish organlari (masalan, zolotnikli gidrozppzratlzer yoki richagli qurilmalar) ga ta'sir etadi hamda yo'nalishini avtomatik ravishda o'zgartirib, teskari tomonga harakatlanadi va tirakka taqalib to'xtagach, dastlabki vaziyatni egallaydi.



29- rasm. Qo'zg'aluvchan stollarning surilish sxemasi: a-vertikal yo'nalishda, b-gorizontal yo'nalishda. 1-kesish asbobi, 2 -zagotovka, 3- kronshteyn, 4-gidrosilindr, 5-stol, 6- qisqichlar, 7 -gayka. 8- vint. 9 -maxovikcha.


30- rasmida arra 2 ning stol 5 da yotgan zagotovka 1 tomon surilishi ko'rsatilgan. Arra tebranadigan ramka 3 ga (30-rasm, a), yoki bikr sterjenga (30- rasm, b) mahkamlanadi; gidrovigatel 4 ishlaganda sterjen dumzalab ishqalanadigan tayanchlar 6 da suriladi; 26- rasm, v da arraning tros 7 vositasida surilish sxemasi berilgan trosni alohida o'rnatilgan hidrovigatel (rasmida ko'rsatilmagan) harakatlantiradi. Bunday surish sxemalaridan eni 1750 mm va undan enliroq materiallarni kesishda arralar nisbatan ko'proq suriladigan stanoklarda foydalaniladi. Ba'zan tros o'rniga zanjir ishlatiladi.

31- rasmida kesish zebobini krivoship-shatun mexanizmi suradigan parmalash churqurcha o'yish stanoklarida ishlatiladigan ko'ndalangiga surish mexanizmining sxemasi ko'rsatilgan. Elektrdvigatel 1 ga sharnirli ulangan plitaga shatun 2 ham sharnirli biriktirilgan. Krivoship shatun mexanizmini ikkinchi elektrdvigatel tishli uzatmalar sistemasi orqali harakatlantiradi, bunda zagotovkada churqurcha hosil qilish uchun kerak bo'ladi tebranma harakatni shpindelga, ya'ni elektr dvigatel valiga shatun uzatadi.


Sozlashda kulisa 3 ning vaziyatini o'zgartirish yo'li bilan shpindelning zarur tebranish amplitudasi o'rnatiladi. Kulisa disk arra markazidan qancha uzoq bo'lsa, shpindelning tebranish amplitudasi shuncha katta bo'ladi.

Yuritmalar. Yuritmalar stanokning ish organlari, surish mexanizmlari, yordamchi elementlari, zagotovkani stanokdan oladigan va stanokka zagotovka uzatadigan mexanizmlar va qisish moslamalarini harakatlantiradi, shuningdek, stanokni sozlaganda uning elementlarini siljitimishga imkon tug'diradi. Yuritma dvigatel va uzatmalar sistemasidan tashkil topgan.

Elektr yuritmalar sodda tuzilganligi va jo'ngina boshqarilishi sababli yog'ochga ishlov berish stanoklarida keng foydalaniladi, elektr yuritmalarining foydali ish koeffisienti katta. Elektr



31- rasm. Kesish asbobini krivoship-shatunli mexanizm yordamida surish sxemasi:1- elektr dvigatel, 2- shatun, 3- kulisa.



32-rasm: Ish organlarining elektr yuritmalarini sxemalari. a-mufta orqali stanok valiga, b-tasmalni uzatma – stanok vali orqali, v-uzatma zvenolarsiz, g- chastota uzgartichilar bilan; 1-stanina, 2-elektro dvigatel. z- tasmalni uzatma. 4- chastota uzgartich.

yuritmalar massasi va o'lchamlarining kattaligi ularning kamchiligi hisoblanadi. Bundan tashqari, elektr yuritmadan foydalanganda stanok organlarining tezligini ravon o'zgartirish qiyinlashadi. Ko'p hollarda elektr dvigatel vallarining aylanish chastotasini kamayitish maqsadida (masalan, surish mexanizmlari uchun) yuritma sistemasiga og'ir, qo'pol uzatmalar kiritishga to'g'i keladi, elektr dvigateli yurgizib yuborish vaqtida uning inersionligi (harakatni davom ettirish yoki harakatsiz tura bilish qobiliyati) kutilganidan ham kattaroq tok vujudga kelishiga sabab bo'ladi, natijada dvigatel qizib ketishi mumkin. Shunga ko'ra surish mexanizmini harakatlantirish uchun, ko'pincha, elektr dvigatel o'mniga gidrovigatel o'rnatiladi.

32- rasmida eng ko'p uchraydigan elektr yuritmalarini sxemalari berilgan. Uzatish zvenolari bo'limgan elektr yuritmada (32- rasm, a) elektr dvigatel 2 ish organiga, ya'ni pichoqli valga mufta yordamida ulangan, ish organlarining massasi katta bo'lganda hamda kesish asbobini katta tezlikda aylantirish zarurati bo'limgan stanokdagina elektr yuritma ishlataladi. Ish organi elektr dvigateliiga tasmalni uzatma 3 orqali ulangan yuritmalar (32-rasm, b) dan foydalaniлади. Bunda elektr dvigateling ayliish chastotasi bir minutda 3000 bo'lganda, ish organlarini minutiga 6—8 ming marta aylantirish mumkin.

Elektr dvigatel valiga bevosita ulangan shpindellarga (32- rasm. v) o'rnatilgan kesish asboblarining katta tezlikda kesishini ta'minlash uchun yo'qori chastotali tokda ishlaydigan elektr dvigatellardan foydalaniлади.

Yog'ochga ishlov berish yarim avtomat va avtomat stanoklari hamda stanok liniyalarini boshqarish uchun elektr apparatlardan ko'pincha elektr, gidravlik va pnevmoatik apparatlardan tashkil topgan sistemalar ishlataladi. Boshqarish sistemalari quyidagilarni ta'minlaydi:

to'siqlar olib qo'yilgan, blokirovkalar buzilgan, pnevmotarmoqda havo bosimi bo'limgan yoki kam bo'lgan vaqtarda yuritmalarini ishga tushirishga yo'l qo'ymaydi;


Yuritmalarini qat'iy izchillik bilan (masalan, dastlab kesish mexanizmlari yuritmalarini, shundan keyingina surish mexanizmini) yurgizadi;

elektr yuritmalaridan birontasi to'xtab qolganda stanokni yoki stanok liniyasini to'xtatadi;

stanokning berilgan ish rejimini o'zgartirmay saqlaydi;


stanok qismlarining qat'iy izchillik bilan surilishini ta'minlandi;

zagotovkalarning bitta-bittalab uzatilishiga pmkon tug'diradi;



33- rasm. Zagotovkalarni vertikal yo'nalishda siqish uchun rolikli (a) va bosh-moqli (b) qisqichlarning tuzilishi.

yordamchi operasiyalarni p bajarilishi (qisqichlarning ishga tushirilishi, ishdan to'xtatilishi, ishlov



34-rasm. Egiluvchan tasma ko'rinishidagi qisqichlar: 1- qo'zg'almas shkivlar, 2- kronshteyn, 3-egiluvchan tasma, 4- taranglash shkivi, 5-gayka.

berilgan zagotovkalarning stanokdan olib tegishli joyga taxlanishini ta'minlaydi;

stanokni muayyan programma asosida ishlataladi (programma asosida boshqariladigan stanoklarda).


Qisqichlar va siqish moslamalari

Ishlov berilayotgan zagotovkalar stanokning baza sirtlariga, tegishli yunaltiruvchi va tayanch elementlariga jips tegib turishi lozim. O'tish bilan ishlov beradigan stanoklardan

zagotovkani baza sirtlarga moslamalar (33- rasm, a) yoki boshmoqlar (33-rasm, b) bosib siqib turadi. Bu moslamalar gorizontal yoki vertikal joylashishi mumkin. Yon tomondan siqish moslamalarining roliklari gorizontal tekislikda aylanadi. Siqish moslamalari bir-biridan mustaqil ravishda balandroq yoki pastroq, o'rnatili-shi mumkin. Roliklar zagotovkani bosib tekislikka siqib turishi va zagotovkaning notekisligini kompensasiyalash uchun roliklarning shtoklariga prujinalar urnatilgan.

Zagotovkalarini baza sirtiga siqish moslamasi qo'zg'almas shkivlar 1 ga kiygizilgan egiluvchan tasma 3 kurinishida bo'lishi ham mumkin (34-rasm);


shkivlar kronshteyn 2 yordamida mahkamlangan bo'ladi. Tasmalar suriladigan gayka 5 shkiv 4 yordamida tarang tortiladi.




35- rasm. O'tish bilan ishlov beradigan stanoklarning qisish moslamalari:

1,6- shkivlar, 2- tasma, 3-rama, 4-stanina, 5- support, 7 -roliklar

Zagotovkalarning yon chetlariga yoki uchlariiga o'tish bilan ishlov berish stanoklarida format stanoklar, turum qirqadigan romli stanoklarda siqish moslamasi zagotovkaning nisbatan uzun qismini baza sirtiga jips siqib turadi (35-rasm). Shkivlar 1 va 6 rom 3 ga mahkamlangan. Ponasimon tasma 2 shkivlar ustidan tortilgan. Tasmaning zagotovkami siqib turadigan pastki qismi prujinali roliklar 7 ga tayanadi. Zagotovkani tekislikka bosib turuvchi moslama support 5 yordamida o'rnatiladi; supportni stanina 4 da surish yo'li bilan sozlash mumkin. Shkiv 6 dagi tasmani taranglash uchun taranglash qurilmalari bor.




36-rasm.Zagotovka qo'lda suriladigan stanoklarning qisish moslamalari: 1-yo'naltiruvchi lineyka, 2- shpindel va freza to'siqlarining ochiladigan qismi, 3- stoyka, 4- prujinalanadigan plastina.



37- rasm. Ekssentrik (a, 6) va pnevmatik (v) qisqichlar

Zagotovka qo'lda suriladigan stanoklarda zagotovkani baza sirtga prujinaluvchi plastina 4 (36-rasm) siqib turadi, plastina stanok stanimasiga mahkamlangan. Pozision ishlov berish stanoklarida zagotovkalar vintli, ekssentrik (37-rasm, a, b) richagli, takomillashtirilgan pnevmatik (37-rasm, v) va gidravlik qisqichlar bilan maxkamlanadi.



38- rasm. Tiraklar: a -qaytarma tirak bilan birga ishlataladigan bikr tiraklar, 6, v- kesish asbob zagotovkaga suriladigan stanoklar uchun tiraklar, g -prujinalanadigan tiraklar, d — cho'kadigan tiraklar

Tiraklar pozision ishlov berish stanoklarida zagotovkalarni kesish asbobiga nisbatan to'g'ri vaziyatda turishini ta'minlaydi. Stanokda bajariladigan operasiyalarning turiga qarab, bikr, qaytarma, prujinalanadigan, botib turadigan va tebranma tiraklar ishlataladi.

Uzunligi bir xil bo'lган zagotovkalarning bir uchiga ishlov berishda bikr tiraklar ishlataladi. Detallarga ikkala tomonidan ishlov berilayotganda bikr tiraklar qaytarma (38-rasm, a) va botib turadigan (38- rasm, d)

tiraklar bilan birga ishlataladi; zagotovkaning uchlariga torsaviy ishlov berilayotganda uning bir uchi bikr tirakka va ikkinchi uchi qaytarma tirakka ta-qab qo'yiladi.

Turum qirqish ishlari uchun bikr tirak prujinalanuvchi yoki botib turadigan tirak bilan birga ishlataladi (38-rasm, g, d). Zagotovkaning hosil bo'lgan turum yelkalari shu tirak bo'yicha to'g'rilanadi.

Kesish asbobi zagotovka tomon suriladigan stanoklarda qaytarma va botib turadigan tiraklar ishlataladi.

Qaytarma tiraklardan foydalanilganda zagotovkaning toresi bir tirakka taqab urnatiladi, boshqa tiraklar qaytarib qo'yiladi. Botib turadigan tiraklar bilan ishlaganda stanokchi zagotovkaning toresini tegishli tirakka surib boradi va uni lineykaga siqib qo'yadi. Zagotovka joylashgan zonadagi boshqa tiraklar cho'ktiriladi.

Ta'minlash qurilmalari paketlarda taxlangan zagotovkalarni stanokning surish mexanizmiga bitta-bittalab uzatish uchun xizmat qiladi.

PA-5 markali ta'minlagich (39-rasm) shit ko'rinpshidagi zagotovkalarni uzatish uchun mo'ljallangan. U ko'tariladigan gidravlik stol 1, pnevmatik turtgich 2 va rolikli konveyer 3 dan tashkil topgan. Ko'tariladigap stol 1 dastlabki holatda rolikli konveyer 3 bilan bir sathda bo'ladi. Konveyerga shitlar paketa qo'yiladi, so'ngra ta'minlagichni boshqarish sistemasi ishga solinadi. Bunda dastlab rolikli konveyer yuritmasi ishga tushib, konveyer zagotovkalar paketini stol 1 ustiga surib boradi. Bu yerda paket oxirgi viklyuchatelga tegishi bilan konveyer yuritmasi to'xtab, stolni ko'taruvchi gidravlik yuritma ishga tushadi. Paketning shit PA-5 ta'minlagichining yo'qori qismidagi oxirgi viklyuchatelga tekguncha stol ko'tariladi. Shit viklyuchatelga tekgach stol ko'tarilishdan to'xtaydi, aymi vaqtda turklichning pnevmatik yuritmasi ishga tushadi. Turtkich paketning ustki shitini stanok yoki liniyaning surish organlari tomon suradi, keyin yana dastlabki holatga qaytadi, stol yana ko'tariladi va sikl takrorlanadi.


Bu vaqtda rolikli konveyerga boshqa shitlar paketi qo'yiladi. Ko'tariladigan stol paketning oxirgi shitini stanokka uzatgach pastga tushadi, pastda turganda stol oxirgi viklyuchatelga ta'sir etadi, natijada rolikli konveyer harakatga kelib sikl takrorlanadi.

PA-5 ta'minlagichi uzunligi-500...2000 mm, eni 400...800 mm va qalinligi 10...40 mm bo'lgan shitlarni surishga mo'ljallangan. Surish tezligini keng chegarada uzgartirish mumkin.


Boshqacha xil tuzilishdagi ta'minlagich va olgichlar ham mavjud. Ulardan ba'zilari (masalan, vakum kutargichlar bilan jihozlangan ta'minlagich hamda taxlagichlar va hokazo) yo'qorida aytilganlardan asosan farq qiladi.

O i sh q u r i l m a l a r i (taxlagichlar) ishlov berilgan zagotovka va detallarlarni stanokka yoki stanoklar liniyasiga avtomatik ravishda taxlash uchun mo'ljallangan.

Oddiy taxlagach jo'valarining og'ish burchagi o'zgaradigan konveyer, gidrosvigatel va datchikdan tashkil topgan. Gidrosvigatel yurgizib yuboriladi, jo'va ko'tariladi, datchik bo'shaydi va jo'vaning ko'tarilishi to'xtaydi. Navbatdagi zagotovka kelib tushgach, prosess takrorlanadi. Zagotovkalar paketlarga taxlangach, paket olinadi, gidrosilindrni teskariga yurgizish yo'li bilan jo'va tushiriladi, zagotovkalar keyingi paketlarga joylana boshlaydi. Ish paytida konveyer jo'vasining o'qi hamma vaqt bir xil gorizontal tekislikda yotadi, biroq jo'va yoy bo'yicha emas, balki vertikal yo'nalishda surilgann sababli uning o'qi konveyerga nisbatan salgina siljiydi.



39-rasm. PA-5 ta'minlagichi: a - umumiy ko'rinishi, b - ishlash sxemasi; 1 - stol, 2 - turkich, 3 - rolikli konveyer, 4 - platformani ko'tarish mexanizmining gidrosilindri; 1VK — 4VQ — oxirgi viklyuchatellar



40- rasm. Keng prolyotli reysmusli stanoklar uchun universal harlash qurilmasining sxemasi: 1 -surish elektr dvigateli, 2- reduktor, 3, 8- oxirgi viklyuchatellar, 4,7 -kronshteynlar, 5 -gorizonta 1 yo'naltirgich, 6, 10 -vintlar, 9- qayroq o'matiladigan moslama,11-support, 12-maxovikcha, 13-charxtoshni aylantiruvchi elektr dvigatel, 14- kosasimon charxtosh, 15- qayroq.

UA-5 markali taxlagich tuzilishi jihatdan PA-5 ta'minlagichiga o'xshaydi. Stanokning surish mexanizmi shitlarni ko'taruvchi platformaga suradi. Shitlar oxirgi viklyuchatela tekkach, platformannig gidravlik yuritkichi ishga tushib, platforma pastga tusha boshlaydi. Navbatdagi shitning sirti stanok stolining sirti bilan baravarlashgach yoki undan salgina pastroqda joylashgach, platformaning tushishi to'xtaydi. Shitlardan paket hosil bo'lgach, pastki holatdagi platforma oxirgi viklgochatela tegishi natijasida rolikli konveyer harakatga keladi. Platformadagi paket konveyerga o'tadi, bunda platformaning oxirgi viklyuchateli ta'sir kuchidan xolos bo'ladi va platforma ko'tariladi; so'ngra sikl takrorlanadi.

Pichoqlar vali (kallagi)dagi pichoqlarni bevosita valda turganda charxlash hamda shaklini to'g'rilash uchun olinadigan, ba'zan bevosita val bilan bog'liq holda yasalgan charxlash qurilmalaridan foydalananadi. Bu qurilmalar kesish qirralarining aylanish radiuslarini aniq to'g'rilashga va charxlashga ketadigan vaqtini tejashga imkon beradi. Mazkur qurilmalar ish prosessida ikki operasiya orasida pichoqlarni charxlash maqsadida ham ishlatiladi, natijada pichoqlar charxlanmasdan uzoq vaqt ishllanadi.

40-rasmida shunday qurilmalardan biri ko'rsatilgan. Support 11 ning gorizontal yo'naltiruvchisi 5 ikkita kronshteyn 4 va 7 ga mahkamlangan. Support yo'naltiruvchi vint 6 bo'ylab suriladi, vintni esa reversiv elektr dvigatel 1 redutkor 2 orqali harakatlantiradi. Soddaroq tuzilishdagi qurilmalarda bu maqsadda dastadan foydalananadi.

Supportga doim mahkamlangan gayka (rasmida ko'rsatilmagan) vint 6 bilan doimo tishlashgan holda turadi. Support 11 ga qo'zg'almas qilib mahkamlangan elektr dvigatel 13 valiga dumaloq charxtosh 14 o'rnatilgan. Charxtosh elektr dvigatel 13 ning holati maxovikcha 12 balandligi bilan rostlanadi. Supportdagi maxsus uzupchoq o'yiqla qayroq 15 bilan moslama 9 mahkamlangan. Qayroqning turish aniqligi vint 10 bilan rostlanadi. Oxirgi viklyuchatellar

3 va 8 qurilmaning ishini avtomatik tarzda boshqarish uchun mo'ljallangan.

Pichoqlarning ketingi raxlari o'tmaslashgan bo'lsa, pichoqlar stanokda turganda qayraladi, so'ngra jilvirlanadi, bu vaqtida stanok to'xtatilgan

bo'lishi lozim. Qayrash uchun kosasimon charxtosh 14 li elektr dvigatel 13 maxovikcha 12 yordamida ko'tariladi, qayroq 15 esa charxtoshdan pastroqda tushiriladi. Pichoqlar valining dvigateli yurgizib yuborilgach, qayroq ehtiyyotkorlik bilan pastroq tushirilib, pichoqlarning tig'iga salgina tekkizib qo'yiladi. Qayroqni bo'yamasiga surib elektr dvigatel 1 yurgiziladi (qayroq qo'lda harakatlantirilganda maxovikcha yordamida suriladi) va qayroq pichoqni har gal qayrab o'tgandan keyin sekin asta pastga tushiriladi. Qayroq barcha pichoqlarning tig'lariga bor uzunligicha tegib turadigan bo'lgach, qayrash tugallangan xisoblanib, dvigatel to'xtatiladi. Pichoqlar vali mahkamlanadi va charxtosh charxlanadigan pichoqning ketingi qirrasiga ozgina tegib turadigan qilib pastroq tushiriladi. Elektr dvigatellar 13 va 1

yurgizib yuborilib, navbatdagi pichoqning ketingi qirrasini charxlashga va jilvirlashga kirishiladi.

Shuni esda tutish kerakki, pichoqlar boshidan oxirigacha bir xilda charxlanmasligi va pichoqnnig uchini charxlaydigan qilib sozlangan charxtosh. va qayroqning vaziyati pichoqning o'rtal qismini charxlash uchun to'g'ri kelmasligi mumkin Shunday hollarda xatoga yo'l qo'ymaslik uchun qayroq va charxtoshni pichoqqa juda ehtiyyotlik bilan yaqinlashtirish zarur.

Pichoqning tig'ida hosil qilingan raxi 0,15...0,20 mm gacha kichraygach, charxlash to'xtatiladi va tig'dagi ptirlar, g'adir-budurlar qo'lida qayrab tekislanadi.


Stanoklar qirindi, qipi va mayda chiqindilardan tozalanib turishi uchun ularga qabul qilgichlar o'rnatiladi. Qabul qilgichlar eksgauster sistemasiga trubalar yordamida ulangan. Qabul qilgichlar bajaradigan vazifasiga va stanokning tuzilishiga qarab har xil bo'ladi. Masalan, bo'yamasiga frezalash stanoklarida ular cho'yan yoki po'latdan quyib yasaladi va ayni vaqtida pichoqlar atrofidagi to'siq vazifasini o'taydi. Supporti suriladigan stanoklardagi qabul qilgichlar eksgauster sistemasiga egiluvchan metall shlang yordamida ulanadi.

Ishchilarining jarohatlanishi va mayib bo'lishining oldini olish uchun stanoklarning harakatlanadigan qismlari maxsus to'siqlar bilan o'rabi olinadi; bu to'siqlar stanokning sinishiga sabab bo'ladigan yoki normal ishlashiga xalaqit beradigai narsalarni stanok ichiga tushib ketishiga ham yo'l qo'ymaydi.

Yog'ochga ishlov berish stanoklarining ko'pgina modellarida stanokning qo'zg'aluvchan qismlari bevosita stanina ichida yoki to'siq bilan o'rabi olingan, bundan to'siqlar boshqarish sistemasi bilan shunday bog'langanki, to'siq olipgan yoki chetga surib qo'yilgan hollarda stanok to'xtaydi. To'siqlarning konstruksiyasi har xil va ular stanoklarning ta'rifida berilgan.

Moylash moslamalari ikki gruppaga ajratiladi. Birinchi gruppaga stanok qismlarini vaqt-vaqt bilan qo'lida moylashga mo'ljallangan moslamalar, ikkinchi gruppaga bir tuda qismlarni moylashga mo'ljallangan va ishqalanuvchi sirtlarga uzuksiz ravishda moy berib turadigan moslamalar kiradi. Yog'ochga ishlov berish stanoklarida birinchi grupper moylash moslamalaridan eng ko'p ishlatiladiganlari qalpoqli moydonlar va press-moydonlardir.

41-rasm, a da qalpoqli moydon ko'rsatilgan. Shtuser 1 rezbali tomoni bilan podshipnik korpusiga burab kirkizildi, shtuserga esa quyuq moy oldindan to'ldirib qo'yilgan qalpoqcha 2 burab kirkizildi.




41-rasm. Qo'lida moylash uchun moydonlar: 42- rasm. Dozalovchi klapan: a - qalpoqli; 6- press moydon; 1-shtuser, 2- tarelka, 3- filtr, 2 -qalpoqcha , I -sharik 4-dozalovchi shtift, 5- kalibrlangan teshik

Qalpoqcha shtuserga burab kirkizilsa, moy sizib chiqib shtuser teshigiga tushadi va ishqalanuvchi detallarni moylaydi. Ish prosessida moydoning qalpoqchasi qo'lida vaqt-vaqt bilan burab qo'yiladi.

Press-moydonda (41- rasm, b) zapas moy bo'lmaydi, bu moydon orqali dastaki shprisdan ishqalanuvchi detallar joylashgan bo'shlislarga moy yuboriladi. Moydonga chang kir tushmasligi uchun uning teshigi sharcha 3 bilan berkitilgan. Pressmoydonlar, ko'pincha dumalash podshipniklarining korpuslariga moy to'ldirish, ba'zan sirpanish sirtlarini moylash uchun ishlatiladi.

Moy vannalari va moy nasoslari bir tuda detallarni gruppaviy moylash uchun mo'ljallangan. Moyga chang tushish ehtimoli deyarli bo'limgan yopiq joyda (masalan, reduktorlar ichida) ishlaydigan mexanizmlarni



43-rasm. Markazlashtirilgan sirkulyasyon uzuksiz moylash sxemasi: 1,2 -tindirgichlar; 3,5,II,14,16 -moy trubalari, 4 shesternyali nasos, 6,10,15 -kondisionerlar, 7- manometr, 8 -kollektor, 9- bekitish jo'mragi, 12-saqlash klapani, 13- bak.

moylash uchun moy vannalaridan foydalaniadi. Yog'ochga ishlov berish stanoklarini moy nasoslari yordamida markazlashtirilgan tartibda moylash usuli eng ko'p tarqalgan, moy nasoslari stanokning moylanadigan joylariga trubalar vositasida ulanadi. Moy nasoslarinipg tuzilishi har xil bo'lib, ba'zilari yo'qorida ta'riflab o'tilgan gidravlik sistema nasoslaridan farq qilmaydi. Stanokning har bir moylanadigan joyiga yuboriladigan moy miqdori klapan yordamida tartibga solib turiladi (42-rasm). Bu maqsadda ko'p plunjерli nasoslardai ham foydalaniadi. Bunday hollarda har bir moylanadigan joyga moyni alohida plunjер yuboradi.

43-rasmda markazlashtirilgan uzluksiz sirkulyasion ravishda moylash usulining taxminiy sxemasi berilgan. Shesternyali nasos 4 bak 13 dagi moyni kondisionerlar 15, 6 yoki 10 orqali haydash moy trubasi bo'yicha kollektor 8 ga yuboradi, bu yerga kelib tushgan moy trubalarga taqsimlanib, ulardan moylanadigan joylarga yetib boradi. So'ngra moy trubalar 3 bo'ylab oqib tindirgichlar 2 va 1 ga tushadi, undan yana nasosga qaytib boradi. Sistemadagi moy bosimi manometr 7 yordamida aniqlanadi. Sxemada bekitish jo'mraklari 9 va saqlagich klapan 12 ko'zda tutilgan.

Harakatni o'zgartiruvchi mexanizmlar bilan tanishish. Mashg'ulotning maqsadi: 1. O'quvchilarga eng ko'p tarqalgan harakatni o'zgartiruvchi mexanizmlarning tuzilishi va vazifasini tushuntirish. 2. Tasmali, tishli va reykali uzatmalarining kinematik sxemalarini tuzish va modellarini yasashni o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi. O'qituvchi kishilar mehnatini osonlashtiradigan turli mashinalar, apparatlar va qurilmalar mavjudligini aytib, ular haqida texnik-texnologik ma'lumotlar beradi. Masalan, mashinalar, stanoklar va texnik qurilmalarning asosi ulardagi mexanizmlarning tuzilishi va ishslash prinsiplari har xilligini, ularning hammasi ham o'z o'mnda juda muhim ahamiyat kasb etishini tushuntiradi. Bir qancha qismlardan iborat bo'lib, foydali ish bajaradigan mexanizmlar mexanik mashinalar deb atalishi, ulardan xalq xo'jaligining barcha sohalarida keng foydalilanayotgani va hokazolar tushuntirilgach, mexanizmlar haqida, ya'ni aylanma harakat uzatmalarining vazifasi, tuzilishi va qo'llanishi (tasmali, friksion, tishli uzatmalar yetakchi va yetaklanuvchi detallar) to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

Shundan so'ng amaliy ish sifatida tokarlik stanogining kinematik sxemasini chizish va tasmalar turini aniqlash tavsiya etiladi. Bunda avval shkiflar diametrini o'lchash o'qituvchining bevosita rahbarligida bajariladi.

O'quvchilar tasmali uzatmalar texnikaning qaysi sohalarida ishlatalishiga misollar topishlari, bajargan ishlari yuzasidan hisobot yozishlari, o'qituvchi esa ularning bajargan ishlarini va harakatni o'zgartiruvchi mexanizmlar haqidagi bilimlarini baholashi lozim.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

- 1.Yog'ochsozlik dastgohlarid ish yoritmalari nega kerak ?
- 2.Yog'ochsozlik dastgohlarini boshqarish organlari haqida gapiring.
- 3.18-rasmni izohlab bering.
- 4.Yuritmalarining ahamiyati nimada ?
- 5.Taxlagichlar va ning turlari haqida ma'lumot bering.

Mustaqil ta’lim topshiriqlari bo'yicha metodik tavsiyalar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar boyicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar boyicha amaliy mashg'ulotlarni o'zlashtirish;
- o'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishslash;
- fanning boblari va mavzulari ustida ishslash;
- talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishslashga o'rgatish, mashqlar bajarish;
- yangi texnika, jihozlar, keng ko'lamli ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

Mustaqil ishlarning tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Kirish. Duradgorlikning xalq turmushidagi roli va vazifasi.
2. Duradgorlik ustaxonasida ish o'rni va jihozlari. Yog'och va uning tuzilishi.
3. Duradgorlikda ishlatiladigan yog'och turlari va xossalari. Duradgorlik ustaxonasining ichki tartib-qoidalari. Texnika havfsizligi, ishlab chiqarish tozaligi va gigiyena qoidalari.
4. Birikmasiz to'g'ri burchak shaklidagi buyumlar tayyorlash texnologiyasi. Yog'och materialini kesish to'g'risida umumiyl tushuncha.
5. Yog'och materiallarini rejalah, yo'nish, arralash, randalash.
6. Mehnat havfsizligi qoidalari. Yasash uchun buyumlar: Plakat taxtachasi; chizma uchun chorcho'p; yo'nalish ko'rsatkich taxtachasi; supurgi dastasi, kurak dastasi, bolta dastasi.
7. Birikmasi egri chiziq shaklidagi buyumlar tayyorlash texnologiyasi.
8. Kesuvchi asboblarni ishga sozlash. Ish turiga qarab qirquvchi, yo'nuvchi, uyuvchi uskunalar tanlash. Uskunalarini charxlash va o'tkirlik burchaklarini tekshirish.
9. Buyumlarni teshish uchun parma va yordamchi moslamalarni tanlash va mahkamlash. Yog'och materialarni oyish va parmalash, pardozlash (silliqlash).
10. Mix va burama mixlar yordamida oddiy birikma tayyorlash texnologiyasi.
11. Detallarni mix, burama mix, yog'och mixlar bilan biriktirish. Birikmani bajarishda qo'llaniladigan moslamalar, asboblar va materiallar.
12. Yog'och mixlarni tanlash. Detallarni biriktirishda sifat talabi. Sifatsizlik turlari va ularni bartaraf qilish. Biriktiriladigan detalni qalinligiga qarab burama mixlarni tanlash va mahkamlab biriktirish.
13. Yelimlar yordamida murakkab birikma tayyorlash texnologiyasi.
4. Yelimlar, biriktiriladigan detal yuzasini Yelimalashga tayyorlash. Yelim tanlash. Yelimalarni eritish. Qisuvchi moslamalarni tayyorlash.
15. Detallarni Yelim yordamida yig'ish. Yelimning turiga qarab yig'ilgan buyumni Yelim ketguncha saqlab turish. Yelimalangan choklarni tozalash. Yelimalangan choklarning sifatini tekshirib ko'rish. Biriktiriladigan yuzalar sifatini tekshirish.
16. Burchakli murakkab bir tirnoqli birikmalarni tayyorlash texnologiyasi.
17. Tirnoqli birikmalar tasnifi va texnologiyasi.
18. Burchakli va tirnoqli birikmalarni tayyorlashda ishlatiladigan material va asboblar. Tayyorlanadigan buyumlar: ramka, duradgor guniyasi, kiyim ilgich, eshik va deraza kesakillari.
19. Burchakli o'rtalik birikmalar tayyorlash texnologiyasi.
20. Qulqocha va turumli o'rtalik birikmalar texnologiyasi.
21. O'rtalik birikmalarni bajarishda ishlatiladigan materiallar, asboblar va moslamalar tavsifi. Biriktiruvchi detallar qalinligiga qarab qulqocha va turumlar o'lchamini olish, o'rtalik birikmalarni bir tirnoqli berk va qaldirg'och quyruq shaklidigi berk birikmalar ishslash.
22. Murakkab ko'p tirnoqli birikmalar tayyorlash texnologiyasi.
23. Burchakli ko'l tirnoqli birikmalar texnologiyasi va biriktiriladigan birikmalar.
24. Burchakli ko'p tirnoqli birikmalarni bajarishda ishlatiladigan materiallar va asboblar. Moslamalar

- tavsifi. Ish turiga qarab asboblarni tanlash. Ochiq qaldirg‘och va ochiq to‘g‘ri burchakli ko‘p tirnoqli birikmalarni bajarish.
25. Yog‘ochlarga kuydirib ishlov berish texnologiyasi.
 26. Yog‘ochlarni kuydirib ishlov berishga ishlatiladigan materiallar va asboblar tanlash hamda rasm chizish.
 27. Detallar o‘lchamiga qarab kuydiruvchi asboblar va materiallar tanlash. Kuydiruvchi asbob bilan detallarni bir - biriga ishqalash natijasida kuydirish.
 28. Yog‘och materiallariga pardozi berish va pardozilovchi asboblar
 29. Yog‘ochlarga lak bilan pardozi berishda uning strukturasini to‘la bilgan holda pardoziplash.
 30. Lakli materiallar tavsifi va uni yuzaga surtish uslubi. Duradgorlik polirovkasi va uni bajarish texnologiyasi.
 31. Yog‘och materiallariga mexanik ishlov berish texnologiyasi.
 32. Dastgohlar tizimining shartli belgilari, konstruktiv elementlari, asosiy va yordamchi iismlari: stanina, support, shpindel, stollar, qirqish, uzatish va yordamchi mexanizmlar, gidravlik va pnevmatik yuritmalar.
 33. Yog‘och materiallariga yumaloq arrali dastgohlarda ishlov berish texnologiyasi.
 34. Yog‘ochlarga ishlov beruvchi yumaloq arrali dastgohlar turlari. Ularning kinematik sxemasi, vazifasi va tuzilishi.
 35. Dastgohlarning qirqish asbobi, ularni o‘rnatish va unga quyiladigan talablar.

VI. Asosiy va qo’shimcha o’quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. Ashish Kashyap, Rashmi Sharan, Rishika Jalali Little Girls Dress Making Course Book Copyright © 2011 USHA INTERNATIONAL LIMITED
2. Woodwork Joints, William Fairham 2008
3. N.S.Gaipova va boshqalar. Tikuvchilik texnologiyasi asoslari. O’quv qo’llanma. T.: “Adabiyot” 2006
4. Q.M.Abdullayeva. Tikuvchilik buyumlarini modellashtirish asoslari. O’quv qo’llanma. T.: “Adabiyot” 2006
5. S.S.Yaxyayev va boshqalar. Childangarlikdan amaliy ishlar. O’quv qo’llanma. T.: “Iqtisod -moliya” 2008

Qo’shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisidagi nutqi.- Toshkent.: “O’zbekiston”, 2016. -56 b.
